O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI

SOTSIOLINGVISTIKA

SAMARQAND – 2009

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ZARIF ALIQULOV
SAODAT BOYMIRZAEVA

SOTSIOLINGVISTIKA

SAMARQAND - 2009

Zarif Aliqulov, Saodat Boymirzaeva. Sotsiolingvistika. Ma`ruzalar matni. SamDU nashri. -Samarqand. 2009. …bet.

Mas'ul muharrir: filologiya fanlari doktori,
professor **Bekmurod Yo'ldoshev**

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent **Tolib Jo'rayev**
filologiya fanlari nomzodi **Azamat Pardayev**

Mualliflardan

Milliy ustiqlol sharofati bilan filologiya fakultetlarida “Sotsiolingvistika” kursi o‘qitila boshlandi. Bu fan talabalarga nutq odobini shakllantiruvchi asosiy omil bolib, ularga qaysi jamiyatda qanday so‘zlash, va soz hamda iboralarni tanlash tamoyillarni o‘rgatadi.

Ma’lumki, ijtimoiy hayotda kechayotgan hech bir jarayon inson nazaridan chetda qolmaydi, u bu jarayonlarni kuzatadi va munosabat bildiradi. Sotsiolingvistika fanining tadqiq obyekti insonning jamiyatda sodir bo’layotgan o’zgarish, voqea-hodisalarni bevosita kuzatishi bilan bog`liq voqelanadigan nutq jarayoni va uning birliklaridir.

Sotsiolingvistika til va tafakkur munosabati, kommunikatsiya, ya’ni muloqot jarayonida tilning funksional ko’rinishlari kabi masalalar bilan shug’ullanadi. Shuningdek, sotsiolingvistika faqat til hodisalarining tabiatini anglash bilan chegaralanib qolmaydi, u jamiyatdagi madaniy-ma’rifiy, iqtisodiy-siyosiy masalalarni hal etish bilan ham uzviy bog’liq.

Mazkur qo’llanma filologiya fakultetida tahsil olayotgan talabalarga mo’ljallangan bo’lib, unda sotsiolingvistika fanining maqsad va vazifalari, mazmun-mohiyati, ijtimoiy fanlar orasida o’ziga xos xususiyatlarini yoritish maqsadi ko’zlangan.

Qo’llanmani yaratish jarayonida H.Ne’matov, Sh.Safarov, S.Mo’minov, B.Jo’rayeva, G.Toirova kabi tilshunoslarning kuzatishlariga tayanildi.

Sotsiolingvistika fani va uning o`rganish obyekti

1. Ijtimoiy tilshunoslik fani.
2. Sotsiolingvistik tadqiqotlarga bo`lgan zarurat.
3. Sotsiolingvistika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Sotsiolingvistika atamasi haqida.
5. Tilda millatning ijtimoiy guruhlanishi haqida.

Tayanch so`z va iboralar: *Til va jamiyat, til siyosati, nutq, lisoniy omil, ma'naviy tarbiya, etimologiya, psixologiya, falsafa, obyektiv borliq, shakl va mazmun, strukturalizm, nutq birliklari.*

Sotsiolingvistika atamasi ikki tarkibiy qismdan iborat bo`lib, lotincha socialic - jamiyat va lingua - til so`zlaridan tashkil topgan. U ijtimoiy tilshunoslik demakdir.

Tilshunoslikda u quyidagi ma'nolarda qo`llaniladi:

1. Til va jamiyat o`rtasidagi o`zaro munosabat, ya'ni jamiyat hayoti va rivojlanishida tilning o`rni, aksincha, tilning taraqqiyotida jamiyatning ahamiyati.
2. Tilda millatning ijtimoiy guruhlanishi munosabati bilan bo`ladigan farqlar.

Fan va texnika taraqqiyoti va XX asr o`rtalarida vujudga kelgan sotsial o`zgarishlar tufayli tilshunoslik fani ham boshqa fanlar qatori jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi.

Sotsiolingvistika fani faqat tilshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari orasidagi munosabatlarni emas, balki falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya, tarixga va boshqa fanlarga oid masalalarni ham qamrab oladi.

Fanda ushbu yo`nalishga bo`lgan qiziqishning kuchayishi turli sabablarga bog’liq bo`lib, ular quyidagilar:

1. Jamiyatning ilmiy asoslangan til siyosatiga bo`lgan ehtiyoji.
2. Struktural tilshunoslikning tilning faqat ichki tuzilishini o`rganishga bo`lgan qiziqishi.

XX asrning 30-yillarida maydonga kelgan strukturalizm tilni asosan bir tomonlama o`rganishni, tilning tuzilishi va uni tashkil etuvchi birliklar orasidagi munosabatlarni o`rganishni tilga oid boshqa masalalardan ustun qilib qo`ydi. Natijada til birliklariga xos bo`lgan shakl va ma'no birligini rad etib, faqat shaklni o`rganishga e'tibor qaratildi. Ko`p o`tmay, bu oqim inqirozga uchradi, chunki u qo`yilgan maqsadlarni uzil-kesil hal qila olmadi. Tilning yashashi va rivojlanishi bu tilda gaplashuvchi jamiyat bilan uzviy bog`liq ekani ravshan bo`lib qoldi.

An'anaviy tilshunoslik lisoniy birliklarni faqat shakliy tomondan o`rganishga e'tibor qaratdi. Bunday qarash, ayniqsa, tilga semiotik nuqtai nazardan yondashish, belgini faqat shakldan iborat deb hisoblash natijasida yana ham kuchaydi. Natijada lisoniy birliklarning o`zi ifodalayotgan obyektiv borliq bilan munosabati e'tibordan chetda qoldi. Keyinchalik tilni bunday o`rganish bir yoqlama ekanligi, shaklni ma'nodan uzib bo`lmasligi ayon bo`ldi va natijada lisoniy birliklarning ma'no tomoniga e'tibor kuchaydi. Tilshunoslikda sintaktik tadqiqotlar ko’lamining oshishi

natijasida ma'lum bo`ldiki, lisoniy birliklarning shakl va mazmun tomonidan ta'rifi ham tilni to`liq izohlash imkonini bermaydi. Lisoniy birliklarni kontekst, nutq vaziyati bilan bog`lab o`rganishgina ularning ma'nosini to`g`ri tushunish imkoniyatini yaratadi. Masalan, *Rayhon dasturxon ustiga tort tortdi. Hammang o`z aravangni tort. Qo`lingni tort.*

Menga ham besh kilo uzumingdan tort.

-To`g`ri aytasiz, -dedi Xasanali, -ammo men ham uning dardiga bir necha kunlab tushunmay yurgan edim.

-Xo`sh, dardi?

-Muhabbat (xabar).

-Muhabbat (so`roq)?

-Muhabbat! - deb takrorladi Xasanali (tasdiq).

(A.Qodiriy, O`tgan kunlar)

Bunim yo`q, unim yo`q,
Uyimda unim yo`q,
Ishimda unum yo`q,
Aytishga unim yo`q. (Kamiy)

Bunday misollarni ko`plab keltirish mumkin. Rus tilshunos olimi L.S.Kovtunning e'tirof etishicha, hozirgi zamon rus adabiy tili lug`atida "sidit" (o`tirmoq) so`zining o`ndan ortiq ma'nolari bo`lib, ular matnda, ya'ni nutq jarayonida o`z aksini topadi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlarga qiziqishning asosiy sabablaridan biri hisoblangan til siyosati kundan-kun keskinlashib bormoqda. Jahonning ko`pgina mamlakatlarida, ayniqsa, Osiyo va Afrika mamlakatlarida shu vaqtga qadar til muammosi o`z yechimini topgan emas. Hatto Hindistonday yirik mamlakatda hanuzgacha ingliz tili o`z hukmron mavqeini saqlab qolmoqda.

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, yurtimizda demokratik jamiyatga asos solina boshlandi. Bu tuzum jarayonlari mazmun va mohiyatiga ko`ra avvalgi jarayonlardan tubdan farq qilib, ijtimoiy hayotimizning har bir sohasida o`z aksini topmoqda. Sodir bo`layotgan ushbu jarayonlar ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlarga ham o`z ta'sirini o`tkazib, ularda ushbu jarayonlarni ifodalaydigan ma'no va tushunchalarning paydo bo`lishiga sabab bo`ldi. Ushbu o`zaro munosabat natijalari har qaysi fanda o`ziga xos tarzda ifodalanib bormoqda. Chunonchi, jamiyat bilan tilshunoslik o`rtasidagi munosabat bunga yaqqol misol bo`la oladi.

Sotsiolingvistika fanining barcha taraqqiyot bosqichlari ushbu fanning obyekti - insonning jamiyatda sodir bo`layotgan o`zgarish, voqea-hodisalarni bevosita kuzatishi bilan bog`liq ekanligini ko`rsatadi. Bu kuzatish o`z ko`lamiga ko`ra juda keng bo`lib, ijtimoiy hayotda kechayotgan hech bir jarayon inson nazaridan chetda qolmaydi. Shu tarzda har bir sohada tilning o`ziga xos vazifaviy ko`rinishi vujudga kelib, ushbu o`ziga xoslik aynan shu jabhadagi kommunikativ jarayonda o`z ifodasini topadi.

Ma'lumki, har qanday fan tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarni ifodalashda o`ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning bilan birga aynan bir fanning o`zi ushbu o`zgarishlarga munosabat masalasida bir qancha tarmoqlarga bo`linadi. Shu ma'noda tilshunoslikning ham bir necha sohalari mavjud: vazifaviy lingvistika, struktural lingvistika, etnolingvistika, matn lingvistikasi, psixolingvistika, sotsiolingvistika, matematik lingvistika, areal lingvistika kabilar.

Sotsiolingvistika til va tafakkur, kommunikatsiya jarayonida tilning funksional ko`rinishlari kabi masalalar bilan shuqullanadi. Bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida sodir bo`layotgan ijtimoiy jarayonlar davrida kishilar o`rtasida kommunikatsiya turlari son va hajm jihatdan kengayib bormoqda. O`ziga xos kommunikatsiya sohalari vujudga kelmoqda. Sotsiolingvistika faqat til hodisalarining tabiatini anglash bilan chegaralanib qolmasdan, u jamiyatimizdagi madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy-siyosiy masalalarni hal etish bilan ham uzviy ravishda bog’liq.

XX asr oxirlarida mustaqillikka erishgan yosh mamlakatlar ijtimoiy hayotida til siyosati alohida o`rin egalladi va milliy tilga bo`lgan e'tibor yuqori darajaga ko`tarildi. Milliy tillarga "davlat tili" maqomining berilishi o`z huquqiy asosiga ega bo`lib, ularning qo`llanish shart-sharoitlari konstitutsiyaviy asosini topdi. Mamlakatimizda ona tilimizga davlat tili maqomi berilgandan keyin jamiyatimizning barcha sohalarida tilga bo`lgan munosabat mohiyatan o`zgardi, ya'ni o`zbek tili davlat siyosatining tayanch nuqtalaridan biriga aylandi.

XX asrning o`rtalarida dastlab Amerika va Yevropa davlatlarida, so`ngra boshqa mamlakatlarda taraqqiy etgan sotsiolingvistika fani Rossiya, Angliya, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlarda jadal sur'atlar bilan taraqqiy etmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, til siyosatidagi o`zgarishlar uning ijtimoiy hayotda tutgan o`rni, funksiyaviy xususiyatlariga o`z ta'sirini o`tkazmasdan qolmaydi. Ushbu hodisalarning barchasi sotsiolingvistik tadqiqotlar mohiyatini yanada oshiradi, ularga yangicha yondashish, yangi tahlil uslublarini qo`llashni talab qiladi.

Ma'lumki, til tizimining sotsiolingvistik tahlili uning u yoki bu ijtimoiy va etnomadaniy muhitda qanday faoliyat ko`rsatishi, qaysi vositalarni bajarishini o`rganishni maqsad qilib qo`yadi. Ana shu tahlil asosida tillarning sotsiofunksiyaviy tasnifini yaratish mumkin, ayrim hollarda tillarning ijtimoiy farqi o`ta darajada sezilarlidir. Ular unda so`zlovchilar soni, qo`llanish chegarasi, bajarayotgan ijtimoiy vazifalari, hayotiyligi va boshqa xususiyatlari jihatidan o`zaro keskin farq qiladi. Bu xususiyatlar har bir tilning sotsial va kommunikativ mohiyatini belgilab beradi.

Tillarni jamiyatdagi kommunikativ mohiyatiga nisbatan tahlil qilish nafaqat qiyosiy tipologiyaning, yangi yo`nalishlardan bo`lmish sotsiolingvistik tipologiya uchun muhim bo`lib qolmasdan, balki til ta'limi sohalari uchun ham ahamiyatlidir. Yana shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, sotsiolingvistika tobora lingvodidaktik ko`rinish, xarakter kasb etib bormoqda. Darhaqiqat, madaniyatning uzviy qismi bo`lgan tilning ijtimoiy hayotdagi funksiyaviy mohiyatini aniq belgilamasdan turib, til ta'limini rejali tashkil qilish imkoniyati bo`lmaydi.

Sotsiolingvistikaning tadqiq manbai nutq jarayoni va uning birliklaridir. Shu xususiyati bilan sotsiolingvistika tilshunoslikning barcha maktab va oqimlaridan tubdan farq qiladi. Sotsiolingvistika ma'lum bir sharoitda ma'lum bir axborotni nutq birliklari vositasida tinglovchiga yetkazish, bu nutq parchasida so`zlovchi belgi-xususiyatlarning in'ikosi, uning tinglovchiga ta'siri masalalarini o`rganadi va o`rgatadi. Masalan:

Starshina bu gal ham yumshadi.
-Xorosho… keyin-chi?
-Shu… ovqat yedik.
-Qanaqa ovqat.
-Sosiska.
-Necha porsiya.
-Men bir porsiya, mana bu bir yarim.
-Sherigingiz o`zi uchun javob beradi.
-I tak, qancha o`tirdingiz kafeda.
-Bir soatcha.
-Tish do`xtiriga qatnab turasizmi.
-Nima edi - dedim hayratlanib.
-Savolni men beraman, postradavshiy. -Xolmirza… tois, Xolmurodov!
-Tishingizning mazasi yo`qmi.
-Yo`q-e, tishim butun.
-Tishi butun odam to`rtta sosiskani bir soat yeydimi?
-Ochered ko`p ekan, -dedim yolg'on gapirib.
-Xo`p, keyin nima bo`ldi?
-Keyin… kiyinaman deb bundoq qarasam, telpagim yo`q.
-Xorosho, -dedi starshina bir qadar yengil tortib. -Telpagingiz qanaqa edi?
-Shu… telpakdaqa telpak…
-Oti nima o`sha telpakning kibankami, ushankami?
-Bizga konkretno gap kerak, -dedi starshina norozi ohangda. -Aniq ayting.

(O`.Hoshimov, "So`qqabosh bevagina")

Sotsiolingvistika o`zbek tilining mukammal va betakror ohanglaridan o`z o`rnida foydalana olish, o`ynab gapirsa ham o`ylab gapirish, qopib emas, topib gapirish yo`llarini o`rgatuvchi fandir. Shuningdek, ona tilida ta'sirli nutq ayta olish, aytilmoqchi bo`lgan fikrga mos libos tanlay bilish, maqsadga muvofiq lisoniy ifodalarni tanlay olish, so`z bilan tinglovchining faqat qulog'ini emas, balki qalbini ham zabt eta olish kabi sirlarni o`rgatadi. Zotan, nutqning go`zalligi, tilning burroligi, lisoniy ifodaning aniqligi inson uchun o`ziga xos husndir, bu husn oxir-oqibatda jamiyatning, millatning husnini ko`rsatadi. Masalan:

Tursunboy to`yonaning kattasi bo`yniga shilq etib tushay, deb turganini payqadi-yu, g'ingshidi:

-Endi, domlajon, tengi chiqsa, tekin ber deganlari juda to`g'ri. Uyqu joy tanlamas, muhabbat chiroy deganlaridek, singlimizga shunday odam xaridor bo`pti, bor-baraka qilib to`yni o`tkazib yuboravering.

-Yo`q, uka, boshqa gap bor, -domla Obodiy xo`rsindi. -Osilsang baland dorga osil debmizu, bu yog'ini o`ylamabmiz. Bor tovog'im, kel tovog'im, deb bejiz aytishmagan. Garnitur qilish kelin tomonning vazifasi. O`zing bilasan, kuyovni payg'ambarlar ham siylagan.

-Albatta, domlajon, albatta, Kelinni kelganda ko`r, sepini yoyganda ko`r, deb turganlar bordir.

-Barakalla, qush tilini qush biladi-da! Domla ma'qullab bosh silkidi. -qatorda noring bo`lsa, yuking yerda qolmaydi, deb shuni aytadi-da! Yaxshiyam sendek norim bor!

(O`.Hoshimov)

Tilimizda muayyan bir ma'noni bir qancha shaklu shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud. Masalan, inson bosh qismining old tomoni *oraz, uzor, ruxsor, angor, chehra, yuz, bet, aft, bashara, nusxa, turq* singari so`zlar orqali ifodalanadi.

O`zbek tili barqaror birikmalarga ham niqoyatda boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, *boshi ko`kka yetmoq, yer tagida ilon qimirlasa bilmoq, ichini mushuk tatalamoq, ko`zini bo`yamoq, ko`zi to`rt bo`lmoq, tepa sochi tikka bo`lmoq, tomdan tarasha tushganday, xamirdan qil sug'urmoq, tarvuzi qo`ltig'idan tushmoq, ikki oyog'ini tirab turmoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq* va boshqalar.

Albatta, nutq jarayonida aynan qaysi shaklu shamoyilni tanlash, muloqot vaziyati uchun eng uyg'un ifodani topa bilish nutq egasining mahoratu malakasiga, saviyasiga bog'liq. Muloqot vaziyatini tugal his etmasdan turib, tanlangan lisoniy ifoda har qancha go`zal bo`lmasin, maqsad nishonga yetib bora olmaydi. Bunday ifoda hatto boshga balo keltirishi ham mumkin. XI asr Sharqning buyuk allomasi Kaykovus o`zining "Qobusnoma" asarida shunday hikoyatni keltiradi:

Bir kun xalifa Xorun ar Rashid tush ko`radi, tushida uning barcha tishlari to`kilib ketgan emish. Xalifa tongda tushni ta'bir qiluvchidan tushini ta'bir qilishni so`raydi. Tushni ta'bir qiluvchi shunday deydi: Ey, amiralmuminin, sening oldingda barcha yaqinlaring, qarindosh-urug'laring vafot etadi. Sen ularga qaraganda uzoq umr ko`rasan. Sendan boshqa hech kim qolmaydi. Bu so`zni eshitgan Xorun ar Rashid: Menga bunday qayg'uli so`zni qanday aytding. Mening barcha qarindoshlarim o`lsa, men qanday yashayman, qanday ishlayman, - deb darg'azab bo`ldi va uni yuz tayoq urishni buyurdi. Keyin boshqa tush ta'bir aytuvchini chaqirib, undan tushining ma'nosini so`raydi. Tush ta'bir etuvchi shunday javob beradi: "Ey, amiralmuminin, muborak bo`lsin, sening umring boshqa barcha qarindoshlaringga qaraganda ko`p bo`ladi, uzoq umr ko`rasan", -deydi. Shunday Xorun ar Rashid deydi: Barcha aqlning yo`li birdir va ikkovining ta'birining negizi bir yerga borib taqaladi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bag'oyat ko`pdir.

Bu ibratli hikoyatda tilning nechog'li nozik va murakkab qudrat ekanligi, lisoniy ifodalarni ziyraklik bilan tanlay bilishning muhimligi ta'kidlangan.

Nutqda yoki nutq parchalarida axloq-odob, so`zlashish rasm-rusumlari, nutqning muayyan ehtiyojlari, so`zlovchi va tinglovchining yosh, saviya, madaniylik darajasi kabilar o`z aksini topadi va bularning barchasi nutqning

ta'sirchanligi uchun ahamiyatlidir. Mana shu masalalar sotsiolingvistikaning tadqiq manbaidir. Shu bois sotsiolingvistika fani bir tomondan tilshunoslik, ikkinchi tomondan axloq-odob va ma'naviyat bilan uzviy aloqadadir.

Tilshunoslik fani tilning ichki qurilishi, lisoniy birliklar, ularning o`zaro munosabatlari, tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari kabi masalalar bilan shug'ullanib, nolisoniy omillarni ko`p hollarda ekstralingvistik omillar sifatida tadqiqot jarayonidan chetlashtirsa, sotsiolingvistika nutq uchun ahamiyatli bo`lgan barcha qirralarni birgalikda olib qarashga intiladi. Shu sababli hozirgi sotsiolingvistik tadqiqotlar tilshunoslar nazarida mutlaqo tilshunoslikka aloqador emasdek tuyuladi. Xolbuki, o`z milliy tilining bilimdoni bo`lgan har bir shaxs shu tilda go`zal nutq ifoda qila olishi bilan bir qatorda, xalqning muomala odobidan ham xabardor bo`lmog'i lozim.

Darhaqiqat, til – millat ko`zgusidir. Dono xalqimiz bekorga "Yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar", - deb aytmagan. Bundan ko`rinadiki, tilimiz nojo'ya so`zlarni so`zlamasligi, eng avvalo, dilimiz pok bo`lishi kerak. Zero, dilni, siyratni poklamay turib, tilni ham poklab bo`lmaydi.

XI asrning atoqli shoiri, donishmand va davlat arbobi Yusuf Xos Hojib o`zining "Qutadg'u bilig" asarining "Til odobi" bobida tilning ahamiyati, qisqa va mazmunli so`zlash, tilga ortiqcha erk bermaslik va boshqalar haqida ibratli o`gitlar beradi:

Kishini ro`shnolikka chiqargan ravon til deb bilgin.
Kishini til e'zozlaydi, kishi u tufayli baxtga erishadi.
Kishini til qadrsiz qiladi, er boshini yoradi.
Til hovlida (ya'ni qafasda) yotgan arslon kabidir.
Ey, qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni yeydi.
Tili tufayli ozor topgan kishi nima deydi, eshit,
Bu so`zga amal qilgin, o`z foydangga ishlat:
Til meni juda ko`p kulfatlarga soladi.
(U) boshimni kesmasin, (men) tilimni kesayin.
So`zingga ehtiyot bo`l, boshing ketmasin.
Tilingga ehtiyot bo`l, tishing sinmasin.
Sening o`zing esonlik tilasang,
Tilingdan yaroqsiz so`zingni chiqarma.
Bilib so`zlasa, so`z donolik sanaladi.
Nodonning so`zi o`z boshini yeydi.
Ko`p so`zda ortiq foyda ko`rmadim.
Yana (ko`p) so`zlashdan naf topmadim,
So`zni ko`p so`zlama, bir oz ozroq so`zla.
Tuman ming so`z tuguni (jumbog'i)ni shu bir so`zda yech.

(N.Mallayev. O`zbek adabiyoti tarixi. -Toshkent. 1976. 128-129 b.).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, qanday qilsak, yuksak ma'naviyatli kishilar bo`lib, qalbimiz nurga, tanimiz kuchga to`ladi? Oldimizdagi vazifalarni qay darajada bajaramiz? Komil inson bo`lib yetishish uchun nimalarga apamiyat berishimiz kerak, degan savollarga javobni bizga sotsiolingvistika fani

beradi. Shu ma'noda kurs talabalarga ma'naviy tarbiya berishning muhim yo`llaridan biridir.

O`zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon iqtisodiy-madaniy hamjamiyatida shaxdam qadamlar bilan kirib borayotgan bir paytda mamlakatlararo muloqotlarning o`rnatilishida ham sotsiolingvistikaning o`rni beqiyosdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Sotsiolingvistikaning o`rganish obyekti.
2. Sotsiolingvistika fani nimani o`rganadi.
3. Sotsiolingvistikaning boshqa fanlardan farqi va o`zaro aloqasi.
4. Sotsiolingvistika fanining yuzaga kelishiga sabab.
5. Sotsiolingvistik tadqiqotlarga bo`lgan ehtiyoj.
6. Sotsiolingvistika fanining tarkibiy qismlari.
7. Til va jamiyat orasidagi munosabat deganda nima nazarda tutiladi.
8. Sotsial tizimning tilga ta'siri.
9. Struktural tilshunoslik tilning qaysi sohalariga e'tibor qaratgan.
10. Amaliy tilshunoslikda qaysi sohalar e'tibordan chetda qoldi.
11. Shakl va ma'no munosabatlari deganda nimani tushunasiz.
12. Nima sababdan sotsiolingvistika faniga qiziqish tobora kuchaymoqda.
13. Xalqaro (mamlakatlararo) aloqada sotsiolingvistikaning o`rniq
14. Nima sababdan sotsiolingvistika jahonning rivojlangan mamlakatlarida taraqqiy etmoqda.
15. Sotsiolingvistikaning tadqiq manbalari.
16. Nima sababdan sotsiolingvistika fani nutqqa, muloqotga alohida e'tibor qaratadi.
17. Mustaqillik davrida mamlakatimizda sotsiolingvistikaga bo`lgan munosabat.

Sotsiolingvistikaning yo`nalish maktablari. Lisonshunoslik va nutqshunoslik.

1. Ijtimoiy yo`nalish va sotsiolingvistika.
2. Sistem tilshunoslik.
3. Tilning ijtimoiy tomonlari.
4. Sossyur – sistem tilshunoslik fanining asoschisi.
5. A.Shleyxer ta`limoti.
6. Nutqdan lisonga, lisondan nutqqa o`tish.
7. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik.

Tayanch so`z va iboralar: *Tajriba, lison, paradigma, naturalistik oqim, falsafa, biologik organizm, sotsial lingvistika, yosh grammatikachilar, shakl, nutqshunoslik, lisonshunoslik, mikrosistema, mohiyat, nutq, tilshunoslik maktabi, fikr, umumiylik, sabab, oqibat, sistema va boshqalar.*

Ma`lumki, har bir davr o`z oldiga muayyan maqsad va aniq talablar qo`yadi. Masalan, XX asr tilshunoslik fani F.de Sossyur asos solgan sistem tilshunoslik nomi bilan bog`liq. Bu tilshunoslik XX asrda falsafada va davrning eng ilg`or fani fizikada o`zaro aloqalari borligini ham, uni o`rganish jarayonini ham ikki bosqichi: moddiy shaklda insonga bevosita kuzatishga berilgan, ya`ni ko`rilishi, sezilishi, o`lchanishi mumkin bo`lgan hodisa, yakkalik, alohidalik, voqelik oqibat va bevosita kuzatishga berilgan hodisalar ostida turgan mohiyat, umumiylik, imkoniyat sabablarini farqlash, ulardan birini kuzatish, tajriba asosida tavsiflash, ikkinchisini esa, aqliy idrok asosida ochish bilan uzviy bog`liq. Shuning uchun ham XX asr tilshunosligida, ya`ni strukturalizmda hozirgi kunda diskurs deb ataladigan, mohiyatan esa fikr almashinish jarayoni ikki tarkibiy qismga ajratildi:

1) bevosita kuzatishda har xil moddiy shaklda berilgan nutq (paroli);
2) nutq uchun imkoniyat sifatida inson ongida joylashgan til (lison)-(langue).

Til hodisalariga tarixiy niqtai nazardan yondashish turli mamlakat tilshunoslarini tillar o`rtasidagi yaqinlikni o`zaro qarindoshlik munosabatlari bilan izohlash mumkin, degan hulosaga olib keldi. Natijada ayrim til oilalarining, jumladan, Hind-Yevropa, semit, ugor-fin tillarining qiyosiy grammatikalari paydo bo`la boshladi. Bu esa o`zaro til hodisalariga yangicha munosabatning qiyosiy tarixiy metodning shakllanishiga olib keldi. Deyarli barcha manbalarda tilshunoslik tarixida qiyosiy- tarixiy tilshunoslik XIX asrda paydo bo`ldi, deb ta’kidlanib, uning asoschilari Frans Bopp, Rasmusk Rask, Yakob Grimmlar e`tirof eriladi. Vaholanki, ushbu soha bo`yicha Mahmud Koshg`ariyning “Devon”ida ilmiy asoslab berilgan. Buning sababi esa G`arb tilshunos olimlari Mahmud Koshg`ariy ijodi bilan tanish bo`lmaganligidir. Qanday bo`lishidan qat`iy nazar, bu davrga kelib mazkur metodning shakllanishi bilan tilshunoslik mustaqil fan darajasiga ko`tarildi.

Tilshunos olimlar qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotini to`rt davrga bo`lib o`rganadilar.

1. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik shakllanishidan yosh grammatikachilarning qarashlarigacha bo`lgan davr (XIX asr I choragi-1870 yillar).
2. Yosh grammatikachilar davri (XIX asrning 70-90 yillari).
3. Yosh grammatikachilar davridan to F. de Sossyurning “Umumiy lingvistika kursi” paydo bo`lgunga qadar bo`lgan davr (XIX asrning oxiri va XX asrning ikki o`n yilligi).
4. F. de Sossyur g`oyalari tarqalgan paytdan to hozirgi kunga qadar bo’lgan davr.

Qiyosiy- tarixiy tilshunoslik taraqqiyotining birinchi davrida, aniqrog`i, XIX asrning 50-60 yillarida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotida yangi bosqich

boshlandi. Nemis olimi A.Shleyxer til haqida falsafiy mulohazalar yuritishdan ko`ra tilni taraqqiyot jarayonida obyektiv o`rganish tarafdori bo`lib chiqdi. A.Shleyxer, avvalo, naturalistik oqimning asoschisi sifatida mashhurdir. Naturalistik oqimning mihiyati shunda ediki, bunda til biologik organizm deb tan olinar va til taraqqiyoti hamda yashash usullariga nisbatan biologiya qonunlari tadbiq etilar edi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasiga doir A.Shleyxer yaratgan eng muhim ishlar sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin: “Tillarning qiyosiy tarixiga doir” (1848), “Cherkov-slavyan tili morfologiyasi” (1852), “Hind-Yevropa tillarining qiyosiy grammatikasi” (1861-1862), “Nemis tili” (1858), “Yevropa tillari” (1850) va boshqalar. A.Shleyxer tabiatda Ch.Darvin, falsafada Gegel amalga oshirgan kashfiyotlarni tilga tadbiq qildi. Dunyo tillarini tipologik (morfologik) tasnif qilishda u Gegel dialektikasidagi qonunlaridan foydalandi.

Har qanday fikrlashda tafakkurning materiali va shakli bo`lishi kerak, tilda esa so`zning leksik ma`nosi o`z tovush va ifodasiga ega. Ammo so`z grammatik ifodaga ba`zan ega, ba`zan esa yo`q. Shunga muvofiq A.Shleyxer dunyo tillarini uch guruhga ajratadi.

- Ajratuvchi-amorf tillar. Bu tipda leksik ma`no o`zining tovush ifodasiga ega emas, ya`ni affikslar yo`q. Bunday tillarda so`zlar morfologik jihatdan qismlarga bo`linmaydi. Bunga Xitoy tili misol bo`la oladi. Bu tipdagi tillarni o`sha tipga oid so`zlarni A.Shleyxer kristalga o`xshatadi.
- Biriktiruvchi tillar. Grammatik ma`no o`z tovush ifodasiga ega. Leksik ma`no ifodalaydigan qism bilan Grammatik ma`no ifodalaydigan qism bu tillarda bir-biri bilan jips bog`lanmaydi. Bunday tipdagi so`zlarni A.Shleyxer o`simliklarga o`xshatadi. Olimning fikricha ugar-fin tillari, turkiy tillar ana shunday tipdagi tillardir.
- Flektiv tillar. Grammatik ma`no o`z tovush ifodasiga ega, lekin leksik ma`no bilan Grammatik ma`no o`rtasidagi chegara aniq emas, ular juda jips bog`langan.

Olimning tillarni uch guruhga ajratish lozimligi haqidagi fikrlari asosli. Ammo undan chiqarilgan xulosa esa butunlay noto`g`ri. Chunki A.Shleyxer ajratuvchi guruhga kiruvchi tillarni eng arxaik tillar, biriktiruvchi guruhga kiruvchi tillarni o`tkinchi davr tillari, flektiv guruhga kiruvchi tillarni esa eng rivojlangan, taraqqiy etgan tillar deb hisoblaydi.

Naturalizmning tilshunoslikka qo`shgan muhim rejasi shu bo`ldiki, u tilga tabiiy-materialistik qarashni olib keldi, tilning qismlari bir-biri bilan uzviy bog`langan, o`z ichki qurilishiga ega bo`lgan sistema deb tushunishning mustahkamlanishiga yordam berdi.

Komparativistika taraqqiyotining ikkinchi bosqichida, ya`ni XIX asrning oxirgi choragida tilshunoslikda yosh grammatikachilarning qarashlari yetakchi o`rin egalladi.

Avvalo, “Yosh grammatikachilar” terminning izohi to`g`risida shuni aytish lozimki, XIX asrning oxirlarida, aniqrog`i, 80-yillarda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda bir to`da yosh tilshunoslarning yangi oqimi paydo bo`ldi. Ular keksa avlod hisoblangan tilshunoslarning yoshlarga xos g`ayrat va shijoat bilan tanqid

qila boshladilar. Nemis filologi F.Sarnke hazillashib ularni “g`o`r”, “yosh”, “pishmagan” deb hisoblab, “yosh grammatikachilar” deb atadi. Yangi oqimning peshqadam vakillaridan biri bo`lgan K.Brugman bu atamani yangi lingvistik maktabning bayrog`iga aylantirib yubordi. Natijada bu hazil bilan aytilgan nom lingvistik terminga ham aylanishiga sabab bo`ldi. Yosh grammatikachilar maktabiga, asosan, Leypsig universitetining olimlari kirardi. Ularning eng mashhurlari Avgust Leskin (1840-1916), German Osgot (1847-1909), Karl Brugman (1849-1919), German Paul (1846-1921) va boshqalar.

Yosh grammatikachilar A.Shleyxer ta`limotini inkor etib, tilning ijtimoiy mohiyatiga ahamiyat bera boshladilar. Lekin tilshunoslikda ijtimoiy yo`nalish-sotsial lingvistika Shvetsariyalik F.de Sossyur va uning izdoshlari nomi bilan bog`liq.

F.de Sossyur (1857-1913) Leypsig universitetida A.Leskin, G.Osgot kabi yosh grammatikachilardan ta`lim oldi. 1881-1889 yillarda Sossyur Parij oliy o`quv yurtida German tillari va hind-yevropa tillari qiyosiy grammatikasidan ma`ruzalar o`qiydi. 1891-yildan to umrining oxirigacha Jeneva universitetida ordinar-professor bo`lib ishlaydi. Uning asosiy ishi “umumiy lingvistika kursi” vafotidan keyin 1916-yilda shogirdlari Sh.Balli va A.Gesha tomonidan nashr etildi. Bu asar F.de Sossyurning nomini butun jahonga tanitdi va tilshunoslikda katta burilish yasadi. U yangi lingvistik ta`limotini yaratib, tilshunoslikning o`ziga xos xususiyatini to`g`ri belgilab berdi.

Sotsiolingvistikada til ijtimoiy hodisa deb qabul qilinadi va tilning rivojlanishi, yashashi hamda asosiy vazifasi jamiyat bilan bog`liq ravishda o`rganiladi. Shuning uchun tilshunoslik fani ham ijtimoiy fanlar sifatida tasnif etiladi. Tilshunoslikning XX asrdagi taraqqiyoti, umuman, shu yo`nalishda bordi va o`zimizda XX asrning 30-40 yillarida Yevropa an’analari asosida shakllangan hamda rivojlanayotgan tilshunoslik ham shu yo`nalish doirasida bo`ldi. Sotsiolingvistika tilning jamiyat bilan uzviy aloqadorligini tan oladi, lekin tilni mustaqil alohida tizim, ya`ni jamiyat tarkibidagi o`ziga xos bir alohidalik mustaqil bir tomon deb ham e`tirof etadi. Shuning uchun u til tizimini, uning fonetik, leksik, grammatik, stilistik shakllarini ularning o`zaro munosabatlarini o`rganishda asosiy e’tibor qaratadi, bevosita nutq jarayoni uchun fikrni ifodalash uchun katta ahamiyatga ega bo`lgan juda ko`p omillar – nutq sharoiti, tinglovchi va so`zlovchi saviyasi, nutq maqsadi, turli xili imo-ishoralar g`ayrilisoniy hodisalar sifatida tinglovchi diqqatidan chetga chiqariladi. Buning sababi shundaki, sotsiolingvistika til va uning ichki tizimini o`rganadi. Masalan:

Shapaloqdek oltin baldoq taqqan qizaloq uzatgan pulimni nari surdi.
-- Pasport?
-- Nima?
-- Pasport! Moskovskoy propiska?
-- Axir men Moskvada…
-- O`ting, grajdonin! Sleduyushshiy!

(O`.Hoshimov. 70-bet)

Lingvistikada uslublarni to`liqsiz gap deb qaralib, aslida ular pasportingiz bormi? Pasportim Moskvada ro`yxatda turadi deb ifodalanishini ta`kidlaydi.

Sotsiolingvistika esa bunda ilmiy to`lalikdan uzoq bo`lib, uning uchun u so`zlovchi fikrini to`laligicha tinglovchiga yetkazish uchun bir stamp, shakl. Yuqoridagi so`zlar qanday to`liq gapdan olingan, qayerdan uzib olingan, umuman, u uzilganmi, yoki uzilmaganmi, sotsiolingvistika uchun butunlay ahamiyatsiz. Shuning uchun ham sotsiolingvistik tadqiqotlarda grammatik talqin ikkinchi o`rinda turadi. Shu bilan bir qatorda sotsiolingvistika grammatikani rad etmaydi, grammatikadan ko`ra lisoniy vositalarning ijtimoiy axborot qiymati muhimroq o`rin egallaydi. Sotsiolingvistika bevosita nutq, tildan unumli foydalanish jarayoni haqidagi jarayondir.

Sotsial lingvistika til va nutqni farqlab, tilni, uning birliklarini moddiy voqelanishdan uzib, parodigmalarga birlashtirib, umumiy ma`nolarni o`rganishga intilsa, sotsiolingvistika nutq parchalarini muayyan qo`llanish sharoitida ko`rib chiqadi. Masalan,

-- *Qanaqa mo`yna edi? Norkami? Qorako`lmi? Andatrami?*
-- *Quyon edi.*
-- *Alohida belgisi bormidi?*
-- *Telpakningmi?*
-- *Quyonning! Quyonning rangi qanaqa edi?*
-- *Kulrang edi.*
-- *Erkakmidi?*
-- *Telpakfurushmi?*
-- *Quyon! – dedi starshina rostmana bo`g`ilib.*

(O`.Hoshimov)

Suhbat nutqidan iborat bo`lgan tilshunos uchun tadqiq manbai bo`lolmaydigan bu matn, topikdir, ya`ni jonli nutq jarayonidir. Vaholanki, tilshunos grammatik nuqtai nazardan mazkur topikning tarkibiy qismlari boshqacha shakllanishi zarur edi, ya`ni telpakning terisi nimadan edi? Quyonning emas, telpakning rangi qanaqa edi va h.

Yoki: -- *Qanchadan?*
-- *Sakkiz yuz.*
-- *Olti yuz.*
-- *Bo`lmaydi.*
-- *Yetti yuz.*
-- *Yo'q* (Oluvchi va sotuvchi o`rtasidagi muloqot).

O`tgan asrning o`ttizinchi yillaridan boshlab tilshunoslik fanida ham tilni sistema asosida o`rganuvchi til lingvistikasi (lisonshunoslik) va nutq lingvistikasi (nutqshunoslik) farqlandi. Yevropada zamonaviy tilshunoslik (modern tilshunoslik, ya`ni yangi tilshunoslik) deganda lisonshunoslik - til tizimining ifoda va ta`sir vositalarini alohida-alohida sistemalarga (mikrosistemalarga) yoki paradigmalarga birlashtirib, bir paradigmada birlashgan birliklar orasidagi munosabatlarni (oppazitsiyalarni) oralaridagi o`xshashlik va farqlari tushuniladi. Bunda tilshunos doimo nutqda voqelangan hodisalarga tayanar va shu asosda bu hodisalarning sabab va imkoniyatlarini ochirishga intilar edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sotsiolingvistika nutqni, asosan, topiklar asosida o`rganishni asosiy maqsad qilib qo`yadi. Topiklar jonli muloqot yoki uning

yozma aksining bir parchasidir. Badiiy asarlarda ham jonli nutq parchalaridan juda keng foydalaniladi. Bu esa, o`z navbatida, asarning badiiyligini oshiradi.

Masalan, *Abram peshanasini tirishtirib, qidirayotgan narsaning otini eslolmay, unga tikilib qoldi.*

-- Nimaydi-a?
-- Nimani-ye?
-- Anuv-chi. Oyim qovoqni so`yardilar-ku.
-- Pichoqmi? Qo`lingda turibdi-ku.
-- Yo`q. Anuv kattasi bor-ku.
-- Oshpichoqmi?
-- Ha. Oshpichoq. Bilasanu, aytmaysan-a.
-- O`zing nimaligini aytmasang, qayoqdan bilay?
-- Aytdim-ku.
-- Aytganing yo`q, bildingmi?
-- Aytdim.
-- Aytganing yo`q dedim. Aytganing yo`q.
-- Aytdim.
-- Aytganing yo`q.
-- Aytdim.
-- Bor-e. Qizbolasan-da, bo`lmasam…
-- Nima qilarding.
-- O`zim bilardim.
-- Bilmaysan!
-- Bilaman!
-- Bilmaysan dedim, bilmaysan!
-- Bor-e…

(R. Fayziy, Hazrati inson)

Sotsiolingvistik tadqiqotlar lisoniy birliklarni qo`llash nafaqat nutq sharoiti, vositasi va hokazolar kabi ijtimoiy hodisalar bilan, balki har bir xalq, millat, katta ijtimoiy guruh toifa uchun odat tusiga kirgan urf-odatlar, rasm-rusumlar, ya`ni etnografik tomonlar bilan aloqador ekanligini ko`rsatdi.

Nutqni ham lisoniy, ham etnik-etnografik xususiyatlarni hisobga olgan holda tadqiq etish natijasida sotsiolingvistikaning yangi tarmog`I – etnosotsiolingvistika shakllandi va bugungi kunda jadal rivojlanmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik deganda nimani tushunasiz?
2. Nima sababdan Mahmud Koshg`ariy qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi deb e`tirof etilmaydi?
3. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning qanday etaplari bor?
4. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fanining asoschilari deb kimlarni hisoblaymiz?
5. Yosh grammatikachilar kimlar edi?
6. F.de Sossyur kimlarning qo`lida ta`lim oldi?

7. Nima uchun yosh grammatikachilar deb yuritiladi?
8. A.Shleyxerning tilshunoslikka qo`shgan hissasi nimada?
9. Nima uchun F.de Sossyur sotsiolingvistika fanining asoschisi hisoblanadi?
10. Yosh grammatikachilardan kimlarni bilasiz?
11. A.Shleyxer tillarni qanday guruhlarga ajratadi?
12. O`zbek tili qaysi guruhga kiradi?
13. Yosh grammatikachilar nima uchun F.de Sossyurni tanqid qildilar?
14. F.de Sossyurning mashhur asari kimlar tomonidan nashr etildi?
15. Etnosotsiolingvistikaning jadal surat bilan rivojlanishiga sabab nima?
16. Sotsiolingvistikada topiklarning o`rni nimada?
17. Naturalistik oqimning vakillari kimlar?
18. XIX asrda Yevropada qanday oqimlar paydo bo`ldi?
19. Naturalistik oqimda til qanday tushuniladi?
20. Sotsiolingvistika qanday muammolarni hal qilishga xizmat qiladi?

Sotsiolingvistikada jamiyat va til o`rtasidagi munosabat. Mikro va makrosotsiolingvistika.

1. Til va jamiyat, ular o`rtasidagi munosabat.
2. Sotsiolingvistikada jamiyat tushunchasi.
3. Tilda "kompensatsiya" qonuni.
4. Tilning o`zgarish nazariyasi.
5. Til taraqqiyotida ichki va tashqi omillar.

Tayanch so`z va iboralar: *milliy til, adabiy til, nutq shakllari, leksik, fonetik, morfologik, semantik, stilistik qatlamlar, ishora, ijtimoiy guruh, sotsium, sistema, nutq jarayoni, nutq ishtirokchisi va boshqalar.*

Til, bu - inson ongining namoyon bo`lishi. Inson ongi esa tabiat o`zining ko`p million yillar davomidagi taraqqiyoti natijasida yuzaga keltirgan oliy mahsulidir. Bu jihatdan tilni ongning va ongimiz orqali dilimizning ifodasi sifatida borliqdagi boshqa hech bir narsa, hodisa, voqea, jarayon va kategoriyalar bilan qiyoslab bo`lmaydi. Ammo tabiiyki, har bir ijtimoiy voqea va hodisa singari, til ham turli qarashlar, fikrlar, nuqtai nazarlar kurashi jarayonida rivojlanadi, sayqal topadi.

O`z navbatida til uchun kurash faqat tilning ichki hayotiga tegishli qoida, yo`nalish va tartiblar uchun, ularning aniqligi, tiniqligi, asoslanganligi uchun kurash masalasi emas. Til uchun kurash, bu - ayni vaqtda tilning jamiyatdagi o`rni uchun ham kurashdir. Jahondagi globallashuv jarayonlari, fan-texnika yutuqlarining ko`payishi shu darajada tezlashib bormoqdaki, ularning tazyiqi,

shiddati va bosimiga ko`p milliy tillar bardosh berolmay, tarix shoh ko`chasining uvatiga chiqib qolmoqdalar.

Globallashuv jarayonida shu narsani diqqat doirasida tutish lozimki, hozirgi zamon xalqlar, mamlakatlar, qit'alar, davlatlar, hududlar o`rtasidagi muloqot va munosabatlarning jadallashib borish davridir. Jamiyatda hech bir xalq o`zicha, alohida, boshqa millatlardan uzilgan holda yashay olmaydi. Ularning doimiy ravishda iqtisodiy va ma'naviy munosabat va muloqotlarda bo`lishlari davr talabidir. Bunday munosabat va muloqot xalqlarning rivojlanishini tezlashtiradi, ilm-fan, texnika va sanoat, ma'naviy va madaniy sohalardagi yangiliklar, kashfiyotlar bilan tezda tanishish yo`lini ochib beradi. Bu esa, o`z navbatida, boshqa xalqlar tillarini o`rganishni ham taqozo etadi. Zero, xorijiy tilni o`rganishning o`zi ijtimoiy voqeadir. Xorijiy tilni o`rganish jarayonida o`zga madaniyatni o`rganish imkoniyati tug’iladi. Biz o`z navbatida o`z ijtimoiy muhitdagi madaniyatga oid tushuncha, qarashlarni o`zlashtiramiz va, eng muhimi, ushbu madaniyatni milliy madaniyatimiz tushunchalari nuqtai nazaridan baholaymiz. Xullas, jamiyatda o`ziga xos madaniyatlararo qarama-qarshilik "muxolifligi" yuzaga keladi.

Insonning butun ma'naviy boyligi, o`z xalqiga va boshqa xalqlarga munosabati, dilidagi eng samimiy va chuqur fikrlari til orqali o`z ifodasini topadi. Millatning qanchalik taraqqiy etganligi uning til madaniyatida juda yaqqol namoyon bo`ladi. Buni jahondagi yuzlab millatlar misolida ko`rish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, til jamiyatda paydo bo`lganidan boshlab ijtimoiy xarakterga ega. Chunki til kishilar jamoasida, ijtimoiy mehnat jarayonida yuzaga kelgan bo`lib, o`zaro aloqa bog’lash, fikr almashishga xizmat qiladi. Til faqat jamiyatda, odamlar o`rtasidagina mavjud bo`lgan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri jamiyat taqdiri bilan bog’langan. Jamiyat yo`q ekan, til ham bo`lmaydi.

Til birligi va uning erkin rivojlanishi millatning asosiy belgilaridan biridir. Milliy tilning xalq tilidan farqi, uning adabiy yozuv shaklining mavjudligidadir. Milliy tilning bu shakli mazkur millatning har bir a'zosi, har bir sheva uchun umumiydir. Har bir millatning madaniy merosi ana shu tilda o`z aksini topadi.

Har bir til turli rivojlanish davrini boshidan kechiradi. Birorta til paydo bo`lganidan boshlab to hozirgacha faqat o`z-o`zicha rivojlanib kelayapti deyish mumkin emas. Ma'lumki, til inson bilan bog’liq. Til o`z-o`zidan rivojlanmaydi, faqat jamiyat tildan foydalangani uchungina u rivojlanadi, o`zgarib turadi. Demak, tilning rivojlanish tarixi jamiyat tarixi bilan uzviy bog’liqdir.

Bir qarashda tovushlar, so`zlar va ularning tartibsiz yig’indisidan iboratdek bo`lib ko`ringan til, aslida mukammal sistemani tashkil qiladi. Tilning sistemali xususiyatini tilshunoslik tarixida birinchi bo`lib taniqli nemis olimi Vilgelm fon Gumboldt ochib berdi. Tovushlardagi umumiy va farqlanuvchi belgilar ularning o`zaro sistemasini tashkil qiladi. O`z navbatida tilning sistemasi turli hollarda turlicha namoyon bo`ladi. Shulardan biri Gumboldt tomonidan asos solingan kompensatsiya, ya'ni muvozanatni saqlash qonunidir.

Bu qonunga binoan so`zning biror qismida bironta o`zgarish ro`y bersa, bu o`zgarish so`zning boshqa qismiga ham ta'sir etmay qolmaydi. Masalan, qadimgi zamon ingliz tilidagi *berg, sort* so`zlarida *r* tovushi talaffuz qilinar edi.

Keyinchalik bu tovush asta-sekin talaffuzdan tushib qola boshladi. Bu tovushning tushib qolishi undan oldin kelayotgan qisqa unlilarning cho`ziqroq talaffuz qilinishiga olib keldi, shunday qilib, so`zdagi muvozanat saqlanib qoldi.

Ushbu masalaning chuqurroq va batafsilroq yoritilishida Ferdinand de Sossyurning xizmati beqiyosdir. U tilni shunday ta'riflaydi: "Til bir-biriga qarama-qarshi qilib qo`yilgan elementlar sistemasidir"; "til faqat farqlardan iborat". Bunday ta'rifdan chiqadigan xulosa shuki, tilni tashkil etuvchi elementlar uning sistemasini hosil qilmasdan, bu birliklar orasida o`rnatiladigan munosabatlar ahamiyatlidir.

Sossyur til sistemasining quyidagi ikki xususiyatini ko`rsatadi:

1. Til sistemasining tarkibiy qismlari hamma vaqt muvozanatda bo`ladi.
2. O`z xususiyatiga ko`ra til sistemasi yopiqdir.

Sossyurning fikricha, til birliklari o`zaro ikki xil munosabatga kirishadi: *sintagmatik va asotsiativ - keyingi paytda u paradigmatik munosabat deb yuritilmoqda. Til birliklari makonda va zamonda birin-ketin paydo bo`ladi. Bu sintagmatik aloqadir*. Buning ma'nosi shuki, so`z talaffuz qilinayotganda, tovushlar, gapdagi so`zlar baravariga, bir vaqtda aytilmasdan, ketma-ket talaffuz qilinadi. Demak, til birliklari orasidagi ketma-ket sodir bo`lgan aloqa sintagmatik aloqadir.

Birorta o`xshash xususiyati bilan birikkan til elementlari orasidagi munosabat *assosiativ munosabatdir*. Masalan, ***do`stim, uyim, mashinam*** so`zlari assotsiativ munosabat bilan bog’langan, chunki ularning hammasini birinchi shaxs birlikdagi egalik qo`shimchasi birlashtirib turibdi.

Tillardagi sintagmatik va assosiativ munosabatlar ham o`zaro bog’liqdir. Tilni tashkil etuvchi barcha elementlar o`zaro uzviy bog’langan. Bu to`g’rida Sossyur shunday deydi: “Tillarda hech qanday tasodifga o`rin yo`q, uning har qanday elementi katta bir butunlikning tarkibiy qismidir. Tabiiyki, muloqot vaqtida, so`zlovchi tovush, so`z va boshqa til birliklarini ishlatayotganda, albatta, til sistemasiga rioya qiladi, aks holda tinglovchi uni tushunmasligi mumkin.

Til milliy madaniyat shakli sifatida tafakkurning harakati, uning faoliyati natijasida yaratilgan ma'naviy boylikni zamonda va makonda abadiylashtiradi. Keyingi yillardagi mantiq, psixologiya, inson bosh miyasi faoliyatini o`rganish bilan bog’liq izlanishlar shuni ko`rsatdiki, tafakkurning bir-biridan farq qiluvchi ikki ko`rinishi mavjud bo`lib, ularning biri - *predmet tafakkuri,* ikkinchisi esa – *mavhum tafakkurdir*.

Predmet tafakkuri odam va hayvon uchun umumiy bo`lib, ularning kundalik amaliy hayotini belgilovchi, avloddan-avlodga instinkt orqali o`tib, ochlikni, xavf-xatarni, issiq-sovuqni ajratishni ta'minlaydigan tafakkurdir.

Mavhum tafakkur faqat odamlarga xos bo`lib, u til bilan birga paydo bo`lgan va u bilan birga rivojlanadi. Til vositasida erishilgan amaliy, nazariy yutuqlar e'tirof etiladi, targ’ib qilinadi. Tabiiyki, jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi tushunchalar, yozuvlar, yangi nazariyalar paydo bo`ladi, ularni qayd etish uchun hamma vaqt ham tilda tayyor so`zlar, so`z birliklari bo`lmasligi mumkin. Bunday hollarda til jamiyatdagi barcha hodisalarni o`zida aks ettirishi uchun mazkur yangilikka har tomonlama mos keladigan so`z va iboralarni topishi zarur. Shu

tariqa til ham jamiyat bilan birgalikda rivojlanib, takomillashib boradi. Shuning uchun ham til va jamiyat orasidagi munosabat to`g'risida gap borganda, shuni ta'kidlash o'rinliki, ularni bir-biriga har tomonlama bog'langan uzviy hodisalar deb hisoblanadi. Bu ikki hodisa umuman mavjud bo`lishi uchun ular orasida doimo hamjihatlik bo`lishi zarur: shu yo`l bilan ular bir-biriga doimo ta'sir o`tkazadi va bir-birini boyitib boradi. Umuman olganda tilning jamiyatga, jamiyatning tilga ta'siri masalalari yetarlicha yoritilgan. Ammo sotsiolingvistik nuqtai nazardan jamiyat tushunchasi shu ma'noda o`zining aniq talqinini topganicha yo`q.

Jamiyat deganda, muayyan nutq sharoitida nutq jarayoni ishtirokchilari, shu nutq ishtirokchilari mansub bo`lgan ijtimoiy-madaniy tabaqa hamda nutq sharoiti tushuniladi. Chunonchi, bozorda, do'konda sotuvchi va xaridor o`ziga xos bir jamiyatni tashkil qiladi.

Shuningdek, ko`chada ikki haydovchi turli usullar bilan muloqotda bo`ladi, bu ham o`ziga xos bir jamiyatdir. Shuningdek, savdoda sotuvchi, xaridor, oilada ona va bola, aka-uka va h., tabiatan hamda mohiyatan xilma-xil jamiyatlar bo`lib, ular orasidagi nutq mavzulari ham, so`zlash odobi ham turli-tumandir. Shuning uchun ham sotsiolingvistikada nutqiy muloqot turlari ajratiladi, masalan, oshxonada, do`konda, sartaroshxonada, pochtada, teatrda, stadionda, ko`chada va h. Har bir jamiyat uchun nutq shtamplarini belgilash leksikasini faollik darajasiga muvofiq ravishda bera olishga alohida e'tibor qaratiladi. Zamonaviy va bugungi kundagi ko`plab nashr etilayotgan asarlar bunga misol bo`la oladi. Hozir har bir kitob do`konida turli xildagi inglizcha, ruscha, nemischa, turkcha, koreyscha, yaponcha va b. so`zlashgichlarni ko`rish mumkin. Ular asosan topiklar va ma'lum miqdordagi so`zlardan iborat. Ular odatda uyalarga joylashtirilib beriladi.

Masalan, "Oshxonada" mavzusi bo`yicha topiklarga e'tibor beraylik.

- *Qanday ovqatlaringiz bor?*

- *Birinchisiga: sho`rva, mastava, borsh.*

- *Ikkinchiga-chi?*

- *Osh, makaron go`sht qiymasi bilan, shashlik, qovurma, jiz, manti, chuchvara, beshbarmoq.*

- *Kofe yoki choy ham bormi?*

- *Ha, bor.*

So`zlashgichdan foydalanuvchi shaxs shtamplardan kerakli so`zni qo`yib, undan o`z ehtiyojiga mos ravishda foydalanaveradi. Kishi nutqiy muloqotga kirishar ekan, bu muloqot qaysi jamiyatda voqealanishini bilishi zarur. Zeroki, har bir jamiyatning nutq shtamplari, muloqot doirasi va mavzusi, leksikasi o`ziga xosdir. Bundan tashqari, har bir nutqiy muloqotda jamiyatning o`ziga xos argo va jargonlari bo`lishi mumkin. Nutq jarayoni ishtirokchilari ulardan xabardor bo`lmasa, me'yoriy nutq amalga oshishi mumkin emas.

Sotsiolingvistikada jamiyat deganda, nafaqat nutq jamiyati, balki so`zlovchi va tinglovchi mansub bo`lgan ijtimoiy-madaniy hamda kasbiy tabaqa ham tushuniladi. Zeroki, bu tabaqalarda nutq ixtisoslashadi. Masalan:

- *Grajdanin! - dedi hushyor chegarachi hamon ko`zimga chaqchayib. - Dollar bormi?*

- *Yo`q!*

- Oltin bormi?
- Iya, menda oltin nima qiladi?
- Savolga javob bering!
- Oltin yo`q.
- Antikvar. Xoch bormi?
- Nima u?
- Narkotik modda-chi?
- U nima degani?
- Chekadigan!
- Bor "Kosmos".

(O`.Hoshimov)

Yoki:

- Baklashkani bo`shatib beying, - dedi dona-dona qilib, - magazinga topshiyaman. "Spyayt" topshiyaman. "Spyayt" keyakmasmi? Sakkiz yuz so`m.

- Keyakmas! -dedim men ham beixtiyor "r"ni aytishga tilim kelishmay.

- Baklashkani beying!

Uyga kirib, ichilmay qolgan suvni kosaga bo`shatib chiqishga majbur bo`ldim. Endi eshikni yopayotgan edim, bolakay so`rab qoldi.

- Siz shoyiymisiz, amaki?

Voy xuvori-yex! Kitob ham o`qirkan- a bu!

- Men bolalarga yozmayman-da, - dedim yumshab. -Yozsam senga kitobimdan berardim.

- Kitobmas, - dedi bolakay ko`zlarini pirpiratib. -"Zelyoniy"dan boymi? Hayron bo`ldim.

- Qanaqa "zelyoniy"?

-"Ko`ki"dan boymi? Dollay - bolakay barmoqlarini ishqab tushuntirdi. - Dollay boymi?

- Dollar? Menda dollar nima qilsin? Umuman senga dollarning nima keragi bor?

- Ikki yuz yigiyma ming boy edi, - dedi u tushuntirib, - shuni dollayga almashtiymoqchiman. Dollay bormi amaki?

Eshikni qarsillatib yopdim. Zum o`tmay qo`shnining qo`nqirog'i jiringladi.

- Suv keyakmi, xola?

(O`.Hoshimov).

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, ijtimoiy muqit, ayniqsa bolalikdagi ijtimoiy muqit nutqdagi murojaat shakllariga o`zining aniq ta'sirini ko`rsatadi. Yuqoridagi muloqot bunga yaqqol misol bo`la oladi. Dono xalqimiz bejiz "To`g'ri o`zadi, egri to`zadi", "Ko`ngli qoraning yuzi qora", "Ko`z qayerda bo`lsa, mehr ham o`sha yerda", "Mol egasiga o`xshaydi", "Qush uyasida ko`rganini qiladi", "Buzoqning yugurgani somonxonagacha" demaydi. So`zlovchi va tinglovchining yoshi, kasbi, egallab turgan lavozimi va shu kabilar alohida o`rin egallaydi. Masalan,

...Chol bozorkom raisidan ham dashnom eshitdi. U Qodir misgarning o`limiga ham kechikib bordi... Kechqurun Qo`ziboy chol gangib, qassobxonaga mo`raladi:

- Hormang, usta, savdo zo`rmi?

Qassob go`sht sotilmay turganidan kuyinib o`tirgan edi, tumshaydi:

-Bitta xolodilnik bersa, xotini taloq bo`ladimi?! Mana, go`sht buzilib qolsa, nima qilaman?

- E, tashvish chekmang, - dedi Qo`ziboy chol. - Hademay paxtadan odamlar qaytishadi... Buyoqda kun sovuyapti!

- Siz ham gapiraverasiz-da! ...Tiz cho`kib, rosa tilovat qildi. O`lganlarga jannatdan joy tiladi, tiriklarga insof-adolat... So`ng pichirlab:

- E, rasuli barhaq! Imonimni ber, - dedi. - Birovga yomonlik qilmadim, birovning haqini yemadim... Tog'lik og'aynilarni ham aldamadim.
Ko`pning duosini oldim. O`zingga shukur.

(SH.Xolmirzayev "Saylanma". I Toshkent 2003. 287-289-betlar)

Yuqoridagi nutq parchalaridan ko`rinib turibdiki, nutq shakllari turli-tuman xarakterda. Amerikalik tilshunos olim R.T.Bell fikricha, ijtimoiy tilshunoslikka ikki xil yondashuvni ko`rish mumkin. Birinchisi sof sotsiolingvistika bo`lib, unda gapiruvchi va tinglovchilar o`zaro nutq jarayonida munosabatda bo`ladi. Ikkinchisi esa - til sotsiologiyasi bo`lib, til tuzilishi bilan ijtimoiy tuzilishlarning ishoralar nazariyasi ichidagi integratsiyasidir. Bu yo`nalish tilshunoslikni boshqa ijtimoiy fanlar bilan qo`shib, til ishoralarining turli ijtimoiy hayot mazmunida ishlatilishi masalalarini o`rganadi. Birinchi yo`nalish mikrosotsiologiya deb nomlanib, uni asosan tilshunoslar, ikkinchisi esa makrosotsiologiya deb atalib, uni sotsiologlar o`rganadi.

Mikrosotsiolingvistikaning diqqat markazida kichik ijtimoiy guruhlarni tashkil etuvchi shaxs va guruhning boshqa a'zolari o`rtasidagi nutqiy hamkorlik munosabati bo`ladi. Makrosotsiolingvistikaning diqqat markazida esa bir sotsial guruh bilan ikkinchi bir sotsial guruh o`rtasidagi nutqiy muloqot yotadi. Mikro va makrosotsiolingvistikani bir-biridan ajratib bo`lmasligining asosiy sababi ham har qanday ijtimoiy guruh ayrim shaxslardan tashkil topgan bo`lishi bilan bog'liqdir. Har bir shaxs mazkur guruh uchun umumiy bo`lgan tildan foydalanadi va shu bilan birga o`ziga xos nutqiy xususiyatlarga ham ega bo`ladi. Bu xususiyatlar bir tomondan, shaxsning o`ziga xos psixologiyasiga, ikkinchi tomondan, bu shaxs a'zo bo`lgan kichik sotsial guruhning kasb-hunariga ham bog'liq. Demak bu guruhning o`ziga xos atama va jargonlari bo`lishi mumkin. Lekin bu guruhlar milliy hududning qayerida yashamasin, u mazkur milliy tilga aloqador bo`lsa, shu milliy til normasidan chiqib ketmaydi, balki milliy tilning bir ko`rinishida, variantida gapiradi. Tabiiyki, mikrosotsiolingvistika erishgan yutuqlar makrosotsiolingvistik tadqiqotlari uchun zamin vazifasini bajaradi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida tilning ijtimoiy guruhga ko`ra o`zgarish xususiyatlari atroflicha tadqiq qilingan. Buni tilshunoslar tilning o`zgarish nazariyasi deb ataydilar. Tildagi o`zgarishlar, aytib o`tilganidek, tilning ichki jarayonlari va tashqi ta'sirlar asosida sodir bo`ladi. Tilning ichki o`zgarish

jarayoniga tilshunoslik fanida "kompensatsiya qonuni" nomi bilan yuritiladigan hodisani misol qilib keltirish mumkin. Ushbu qonuniyatga ko`ra tilning biror qismida birorta o`zgarish ro`y bersa, bu o`zgarish tilning boshqa qismida ham o`z aksini topadi.

Til o`zgarishining tashqi omillari deganda, ko`proq tilning ishlatilishidagi ijtimoiy shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Ma'lumki, tilning lug'at tarkibi mazkur tilda so`zlashuvchilarning barchasi uchun umumiy, tushunarli bo`lgan umummillat toifasidagi so`zlardan tashqari, millatning ijtimoiy guruhlanishi bilan bog'langan bo`lishi ham tabiiy. Millatning ijtimoiy guruhlariga genetik jihatdan ayrim sotsiumlar va aholining hudud belgisiga ko`ra ajralgan ayrim guruhlari bilan birga jamiyatdagi sinfiy tabaqalanishga, kasb-hunarga ko`ra ajralgan aholi guruhlari ham kiradi. Sotsial tabaqalar nutqidagi o`ziga xosliklar, guruhlardagi o`zaro muloqot xususiyatlari, turli guruhlar orasidagi aloqa bir vaqtda qanday so`zlar va grammatik konstruksiyalarning tanlanishi tilning ishlatilish turlarining paydo bo`lishiga olib keladi. Shu bilan birga bunday o`zgarishlar so`zlashuvchilarning yoshiga, jinsiga, ma'lumotiga, nutq sodir bo`layotgan muhitga ham bevosita aloqadordir.

Momo qizini chaqirdi, unga mayus tikilib, yig'ladi:

- Konsert ko`rsatdimmi? Nimalar dedim… Eslolmayman.

- Hozir tirikmisiz, enajon?

- Xudoga shukur… Bolam, taraddudingni ko`r, men ketaman endi.

- Enajon!

- Xo`p de, yolg'izim. Sezib turibman… qil ustida turganga o`xshayman… Bolaga o`xshab qoldimmi?

- Sal…

- Sal emas. Rahmatli enam ham shunaqa bo`lgan edi. Keyin o`lar chog'ida aytgan edilarki…

- Nimalar degan edilar?

- Odamzod hayoti oxirida … so`nish oldidagi shamga o`xshar emish. Odam o`lim ostonasida birdan kuch yig'ar ekan. Sham ham so`nish oldidan birdan alanga olib yonadi-ku! Keyin so`nadi…

- Enajon!

- Men xiyla aljib qoldim-a? Esim bor… Keyin juda bo`shashib ketdim, jin urdi-qo`ydi. Xayriyat, hozir es-hushim joyida.

(SH.Xolmirzayev)

Yuqorida ta'kidlanganidek, fan va texnika taraqqiyoti, xalqaro aloqalarning, savdo-sotiqning kengayib borishi, bir tomondan, ko`ptillilik, tillarda baynalminal so`zlar sonining oshib borishiga sabab bo`lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy tillar bilan xalqaro tillar vazifasini o`tayotgan tillar o`rtasidagi to`qnashuvlarga, til chatishuvlariga kreollashtirish, pijinlashtirish sababdir. Bularning barchasi sotsiolingvistikaning zimmasidadir.

Jamiyatga til qanchalik zarur bo`lsa, tilga jamiyatning bo`lishi ham shunchalik zarurdir. Tilning mavqei, rivojlanishi uning muomalada bo`lishiga bog'liq. Til o`zining muloqot, bilish, ifoda vazifalarini bajarishi uchun uning o`z hududi, bu hududda yashovchi jamiyati, jamiyatning iqtisodiy bazasi bo`lmog'i lozim, zero bu hudud, sodir bo`layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar,

ma'naviy va mafkuraviy siljishlar tilga o`z ta'sirini o`tkazmay qolmaydi. Til kishilar orasida asosiy muloqot vositasi bo`lishi bilan bir qatorda, xalqning hayotiy tajribasini, an'anasi, milliy xarakterini va hatto bilim darajasini aks ettiruvchi ko`zgudir. Millatning bu xususiyatlari o`zgaruvchandir, shuning uchun ularni o`zida aks ettiruvchi til ham doimo o`zgarib, yangilanib boradi.

Jamiyatda ko`ptillilik, qardosh va qardosh bo`lmagan tillarning bir-biriga ta'siri masalasi ham sotsiolingvistikada til va jamiyat munosabatlari doirasida o`rganiladi. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi davrda xorijiy tilni o`rganish iqtisodiy, siyosiy talabga aylanib bormoqda. Mamlakatlararo, millatlararo muloqot turlari kundan-kun ortib bormoqda. Har qanday sharoitda ham gapiruvchining til malakasi har bir muayyan vaziyatda til vositalaridan mazkur shart-sharoitga to`g’ri keladiganlarini tanlay bilishiga qarab belgilanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Til va jamiyat deganda nima tushuniladi?
2. Til va jamiyat tushunchasi fanda qay darajada o`rganilgan?
3. Sotsiolingvistik jamiyat nima?
4. Xorijiy tilni o`rganishdan maqsad nima?
5. Tilning sistemali xususiyatga ega ekanligi kim tomonidan asoslab berilgan?
6. Muvozanatni saqlash qonunining ahamiyati nimada?
7. Sossyurning til to`g’risidagi fikrini qanday izohlash mumkin?
8. Sossyur tilning ikki xususiyatini qanday ta'riflaydi?
9. Til birliklari zamon va makonda o`z aksini qanday topadi?
10. Sintagmatik munosabat deganda nimani tushunasiz?
11. Assosiativ munosabat-chi?
12. Predmet va mavhum tafakkur deganda nimani tushunasiz?
13. Sotsiumlar nutqi deganda nimani tushunasiz?
14. Ijtimoiy muhit nutqqa qanday ta'sir etadi?
15. Sof sotsiolingvistika va til sotsiologiyasining farqi nimada?
16. Mikro va makrosotsiologiyaning tekshirish obyekti nimalardan iborat?
17. Til o`zgarish nazariyasini tushuntiring?
18. Millatning ijtimoiy guruhlanishi nima?
19. Sotsial tabaqalar nutqi to`g’risida nima deyish mumkin?
20. Qardosh va qardosh bo`lmagan tillarning bir-biriga ta'siri?

Milliy til va milliy ma`naviyat.

1. Milliy til – milliy ma`naviyatning tarkibiy qismi.
2. Sho`rolar davrida o`zbek tili.
3. Milliy tillarning yaqinlashish nazariyasi haqida.
4. O`zbek tili - o`zbek millatining ruhi.
5. Istiqlol va o`zbek tili.

***Tayanch so`z va iboralar:*** *milliy til, alifbo, sun`iy til, rasmiy til, radio, televideniya, o`zbek milliy ziyolisi, jarayon, aql-zakovat, millat, xalq, internatsionalizm, turkiy qabila, me`yor, me`yorlashgan til, kosmopolitik, davlat siyosati, milliy qadriyat, ijodiy taffakur, milliy mafkura va boshqalar*.

Ma`lumki, til o`ziga xos ijtimoiy voqea bo`lib, o`zining ichki qonuniyatlariga binoan asta-sekin, yildan-yilga, asrdan-asrga o`zgarib, boyib, takomillashib boradi. Har bir til turli rivojlanish davrini boshidan kechiradi. Birorta til paydo bo`lganidan boshlab to hozirgacha faqat o`z o`zicha rivojlanib kelyapti, deyish mumkin emas. Ma`lumki, til inson bilan bog`liq. Til o`z-o`zidan rivojlanmaydi; faqat jamiyat tildan foydalanganligi uchungina u rivojlanadi, o`zgarib turadi. Demak, tilning rivojlanish tarixi jamiyat tarixi bilan uzviy bog`langan. Tildagi o`zgarishlar keskin, to`satdan sodir bo`lmaydi: tilda inqilob bo`lmaydi. Tildagi o`zgarishlar asta-sekin, evalyutsion yo`l bilan amalga oshadi. Shuning bilan birga til taraqqiyotida turg`unlik ham bo`lmaydi, u doimo rivojlanishda. Bu qonuniyatni inkor qilish milliy tillar ravnaqiga jiddiy putur yetkazadi. Rossiyaning O`rta Osiyoni zabt etishi natijasida o`tgan davr mobaynida mamlakatimizda ona tilimiz misli ko`rilmagan darajada ko`p o`zgarishlarni, ijtimoiy po`rtanalarni boshdan kechirdi. Milliy tilimizning o`ziga xos taraqqiyot qonunlari ko`pgina hollarda siyosiy rahbariyat tomonidan nazar-pisand qilinmadi.

Zero, o`zbek xalqi O`rta Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo`lib, uning tili ham uzoq zamonlardan boshlab asta-sekinlik bilan taraqqiy qilib kelgan. O`rta Osiyoning hozirgi o`zbeklar yashaydigan qismida qadimdan birga yashab kelgan Eroniy elatlar bilan turkiy qabilalarning hamda ular so`zlashadigan tillarning tarixiy aralashuvi natijasida XI-XII asrlarda keyinchalik o`zbek deb nomlangan xalq va uning tili shakllana boshladi. Demak, o`zbek xalqi va uning tili ming yillik tarixga ega. Uning ilk yodgorliklari bevosita hozirgi o`zbek millatiga mansubligi, chunonchi, qariyb 15 ming misradan iborat bo`lgan “Qutadg`u bilig” shunday yuksak badiiy san`at va mahorat bilan yozilganki, mutaxassislar bundan adabiy nutq shakllanishi uchun kamida 500-600 yil keyin og`zaki me`yorlashgan til sifatida ishlov topishi kerak, degan fikrni ilgari suradilar. Taniqli adabiyotshunos olim professor N.M.Mallayey Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” asari to`g`risida quyidagi fikrni bildiradi: “Qutadg`u bilig” ahloqiy-ta`limiy asardir. Uning ahloq va odob masalalariga bag`ishlangan maxsus boblaridagina emas, balki

ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag`ishlangan boblarida ham Yusuf Xos Hojib o`z ahloqiy-ta`limiy qarashlarini ifodalaydi, asarning turli tabaqalariga mansub kishilarga o`git beradi, ular pand-nasixat qiladi. Yusuf Xos Hojibning ahloqiy-ta`limiy fikrlari katta ahamiyatga ega bo`lib, ma`daniyat va ma`rifatni ravnaq toptirishga, oliyjanob insoniy xislatlarni targ`ib qilishga qaratilgan. Yusuf Xos Hojib XI asrning donishmandi, ilm-ma`rifatning jarchisi hamda homiysidir. U ilm-ma`rifatga saodatning kaliti, deb qaraydi. Shuning uchun ham o`z dostonini "Qutadg`u bilig", deb ataydi hamda unda ilm-ma`rifatni tadbiq qiladi, olimlarni ulug`laydi, davlat boshliqlarini, ilm-fa`n ahillarini saroyga jalb etishga ulardan ta`lim olishga va ularning maslahatlari bilan ish ko`rishga chaqiradi". (N.M.Mallayev 126-bet).

Jahondagi kamdan-kam xalqlar bunday katta va uzoq madaniy an'ana hamda badiiy merosga egadir. IX-X asrlarda qoraxoniylar saroyida keng amalda bo`lgan, XIV-XV asrlarda Temuriylar davrida gullab yashnagan, Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang`itlar hukumronligi vaqtida rasmiy til sanalgan, tarixiy manbalarda turkiy hoqoniy, Chig`atoy, ilmiy tadqiqotlarida eski o`zbek, Chig`atoy, Turkiston nomlari bilan atalgan adabiy tilning bevosita davomi va merosxo`ri bo'lgan hozirgi milliy adabiy til (nutq) zamonaviy me`yorlari asrimizning 30-40-yillarda to`lasincha shakllandi. Ammo davr taqozosi bilan sho`rolar davrida milliy tilimizga juda katta zarar yetkazildi. Bunga tilimiz boshiga tushgan kulfatlarini ko`rsatish mumkin. Avval asrlar davomida xalqimiz foydalanib kelgan arab yozuvi uloqtirib tashlanib, ilmiy jihatdan chuqur asoslanmasdan, tashviqot va targ`ibot darajasidagina muhokama etilib, lotin alifbosi kiritildi. Buning oqibatida o`zbek millatining yangi avlodi o`zbek xalqining boy madaniy-ma`rifiy merosidan uzilgan holda o`sa boshladi. Oradan 10-11 yil o`tar-o`tmas, lotincha alifbo ham bekor qilinib, ruscha alifbo joriy etildi.

Milliy tillarning erkin rivojlanishiga ko`p jihatdan xalaqit bergan sabablardan biri millatlarning va milliy tillarning yaqinlashib, qo`shilib ketish "nazariyasi"ning paydo bo`lishi bo`ldi. Siyosiy zug`um ta`sirida xalqimizning til madaniyati va, shu jumladan, nutq madaniyati nihoyatda soxtalashib, haqiqiy hayot talablaridan orqada qolib ketdi. Nutq madaniyatining bu darajada oyoq osti bo`lib, barbod bo`la boshlashi, aslini olganda, milliy tillarning qo`shilib ketish siyosatini amalga oshirish yo`llarigan biri edi. Ya`ni, milliy tillar qo`shilib ketishi ular, avvalo, o`z qirralari, o`zlariga xos tomonlaridan ayrilib, bir-birlariga yaqinlashib, o`xshab borishlari kerak edi. Bu jarayonning mamlakatimizda namoyon bo`lishi shundan iborat bo`ldiki, o`zbek milliy ziyolilari va, birinchi navbatda, davlat hamda partiya mahkamalarida xizmat qiluvchilar o`z milliy tillaridan asta-sekin uzoqlasha boshladilar. Ular orasida o`zbek milliy tilida erkin so`zlashadiganlar yil sayin kamayib boraverdi. Hatto ular o`zbekcha so`zlaganda ham millatlararo tildan tarjima qilib gapirayotganlari bilinib turadigan bo`ldi. Shunday qilib, haqiqiy o`zbek milliy tili o`rniga "yangicha" – sun`ir rasmiy til paydo bo`la boshladi. Masalan, - *"Opacha" menga qarab, - Вы будите выступать или нет? – dedi past, ammo tahdidli ohangda (Bizda odat shu. Rasmiy majlislarda nutq u yoqda tursin, o`zaro suhbat ham rus tilida bo`ladi). So`zga chiqaman, deb qo`yganim*

uchun ming karra afsuslandim. Ammo endi gapirmay iloj yo`q. Daf'atan xayolimga g`alati fikr keldi.

- Savol bersam ham bo`laveradimi? – dedim sekin.

- Конечно. – "Opacha" shunday deb minbar tomon ketdi….

Allaqaysi rayonning "Komsomol vojagi" jonajon ЦК КПССning don siyosatini to`liq-quvvatlab yoshlar nomidan va`da berdi. Yig'ilish tugashi bilan meni "so'zga chiqish"ga undagan "opa"cha shiddat bilan yonimga keldi.

- Чтобы духа вашего больше здесь не было, - dedi kulrang ko`zlaridan o`t chaqnatib.

(O`.Hoshimov, Bir majlis hangomasi, 73-bet).

XX asrning oxirlariga qadar o`zbek tili rus tili va sovet internatsionalizmi tazyiqida rivojlandi. Istiqlol sharofati bilan o`zbek tili bu tazyiqdan xalos bo`ldi. Ona tilimizga sovet internatsionalizmi qanday tazyiq ko`rsatdi? degan savolning paydo bo`lishi tabiiydir. Buni quyidagiga o`xshash misollar bilan isbotlash mumkin. O`zbek va Qirg`iz tilshunosligi faniga ulkan hissa qo`shgan turkiyshunos olim, akademik Konstantin Kuzmich Yudakin o'z chiqishlaridan birida: - qirg`iz va rus tillarining qurilishini bir-biri bilan qiyoslar ekanmiz, bu tillar orasida o`xshashliklardan ko`ra farqlar ko`proq ekanligini ko`ramiz", -- deb ilmiy asoslangan to`g`ri fikrni ilgari surgan edi. Sho`ro olimlari, gumrohlari siyosatdonlari, til va tushunchalarni farqlamasliklari evaziga bu olimni "Mayda burjua millatchisi" deb aybladilar, olimni badarg`a qildilar. Negaki, rus tili haqida gapirish internatsionalizm, milliy xalqlar muammolari haqida gapirish esa millatchilik ko`rinishi, deb baholanar edi. Shuning uchun sho`ro tazyiqi ostida bo`lgan turkiy tillar tavsifida ham ularni rus tiliga zo`rlab yaqinlashtirish, rus tili qurilish qolipini o`zbek tili hodisalari talqiniga zo`rma-zo`rakilik bilan ko`chirish odat tusini oldi. Natijada o`zbek tili grammatik va boshqa qoidalari ularning shu til sistemasidagi amaliy qonuniyatidan emas, balki rus tili grammatikasi sistemasidagi qoliplar orqali belgilab kelindi. Hatto grammatika (xususan, sintaksis) nomli baynalmilaldir, degan g`ayriilmiy shiorlar ham ilgari surildi, grammatikaning talqini baynalmilallashtirildi. Bunday tazyiq va zo`ravonliklar asosida sho`ro hokimiyatining g`ayriilmiy, kosmopolitik, davlat siyosati yotardi. Shuning uchun ruscha so`zlarning nutqda hatto badiiy asarlarda qo`llanishi tabiiy bir holga aylandi.

Masalan, *Ey, uka? Men zagotovitel bo`lib ishlayotganimga necha yil bo`ldi? Sen bilmaysan. Unda sen yo`q eding… Endi, aytganingdek ishda ko`rsataman o`zimni, ishda, men 10 ta zagatovitening ishini qilaman! Bo`limni bir obxod qilaylik…. To`xtang-da! Bizda induvidualniy plan degani ham bor-da. Bu planni tushunasizmi?... Ana hozir faktura tuzamiz…. Shoniyoz ko`rindi, Berdiyor qo`llarini beliga tirab uni qarshiladi:*

-- Ha, zakuskaga ketganmiding?

-- Yo`g`-e, rapkoop boshlig`ining oldida edim, -- dedi shafyor, u xafa ko`rinardi

(SH. Holmirzaev, O'zbek bobo).

E`tibor bering:

-- Sayyora, - chaqirdi, professor kimnidir. Boyagi qiz kirdi.

-- Что папа?
-- Tanish, - dedi professor, - G`afurjon akaning o`g`li. Aytgan edim senga. Abdullo o`rnidan turib qizga qo`lini uzatdi.
-- Abdulla.
-- Maktabni oltin medal bilan bitirgan! –qo`shib qo`ydi professor g`urur bilan.
-- Поздравляю, - dedi qiz jilmayib…
-- O`zbekcha gapirsang-chi!- dedi professor uni urishgan bo`lib.
-- Ты же знаешь, какой у меня говор! – dedi qiz lablarini chuchchaytirib.
-- Чай поставить?
-- Albatta. Oying qani?
-- Пошла в ателье. Где будете пить?
Qiz shunday deb Abdullaga yer ostidan qarab qo`ydi.
-- Shu yerda – dedi professor.
-- Bo`lmasa hovlida. Qiz chiqib ketdi

(O`. Umarbekov, “Odam bo`lish qiyin”).

Bunday “g`amxo`rlik” shu darajaga yetdiki, o`zbek tili xo`jalik tiliga, ko`cha tiliga “madaniyatsiz kimsa”larning o`zaro aloqa-aralashuv, norasmiy muloqot vositasiga aylandi. Barcha rasmiy anjuman va hujjatlar, hatto ishga kirish va chiqish ma`lumotnomalari rus tilida olib boriladigan bo`ldi. Turli muassasa, korxona, o`rta va oliy o`quv yurtlarida yerli aholi 95-98%ni tashkil etganligi holda majlislar, hatto oliy o`quv yurtlaning o`zbek tili va adabiyoti fakultetlarida ham majlislar faqat rus tilida o`tkaziladigan bo`ldi. Milliy kadrlarning salmoqli bir qismi, ayniqsa, rahbar xodimlar ona tilida ravon yoza va so`zlay olmaydigan darajaga yetdi. Istiqlolgacha barcha ilmiy ishlar, nomzodli, doktorlik dissertatsiyalari (hatto o`zbek tili va adabiyoti bo`yicha ham) rus tilida yozilishi qonun asosida belgilab qo`yildi.

O`zbek ziyolilari o`z ona tilida yozish, ma`ruza qilishni esdan chiqarayozdi. Rus tilida yozadigan va ravon so`zlaydigan o`zbek mutaxassislari rag`batlantirilar va rahbarlik lavozimlariga tavsiya etilardi. O`zbek ziyolilarining farzandlari rasmiy o`zbek millatiga mansub yozilsa ham ular rus maktablariga qatnay boshladilar. Ravshanki, ular o`zbekcha rasm-rusumni, urf-odatni, hatto tilni ham bilmaydigan darajaga yetib ulgurdi. O`sha davrda hujjatida “o`zbek” deb yozilgan yuksak mansab va ilmiy daraja sohibi bo`lgan shaxsning ona tilida yozib kelgan arzgo`yiga yoki katta bir yig`inda o`zbek tilida berilgan savolga - |”Men o`zbek tilini bilmayman”, - deb javob berishi oddiy hol bo`lib qoldi.

Vaholanku, insoniyatning butun borlig`i, ma`naviy boyligi, o`z vataniga, xalqiga va shu bilan bir qatorda boshqa xalqlarga munosabati, qalbidagi eng samimiy va chuqur fikrlari til orqali o`zining ifodasini topadi.

Tabiiyki, millatning qanchalik taraqqiy etganligi uning til madaniyatida yaqqol namoyon bo`ladi.

Milliy til millat ongining, inson dilining ifodasi va namoyon bo`lishidir. Milliy tilni davlat tomonidan “jilovlashga” harakat qilish millatning fikrlari, qobiliyatlari, intilishlarini cheklash, “jilovlashga” tengdir.

O`tgan dolg`ali tarixga bir nazar tashlash bugunimiz ne`matlarining qadriga yetish, uni ardoqlash, avaylab asrash uchun benihoyat zarurdir.

O`z navbatida milliy istiqlol bu illatlarning barchasiga qaqshatqich zarba berdi. Milliy istiqlol mafkurasi xalq ommasini qanchalik harakatga keltira oladigan zo`r kuch ekanini o`z boshimizdan kechirdik. O`z ona tili kamsitilganini ko`rib va sezib turgan ommani hech qanday qarshi kuch to`xtata olmasligining guvohi bo`ldik. Millat o`z tilini xuddi o`z farzandidek, o`z yuftidek va vatanidek ikkilanmasdan, shubhalanmasdan himoya qilishini barchamiz o`z ko`zimiz bilan ko`rdik.

Darhaqiqat, til uchun kurash, millat uchun, uning jamiyatdagi o`rni, obro`si va kelajagi uchun kurashdir. Milliy til belga kuch beradi. Xalq iborasi bilan aytganda, milliy til xalqning ishongan bog`i va suyangan tog`idir. Milliy tilni “Ona tili” deyishimiz bejiz emas. U bizni onadek o`stirib, katta yo`lga olib chiqadi. Haqiqatni ikkinchi tomoni shundan iboratki, har birimiz milliy tilning farzandigina bo`lib qolmay, har vaqtda uning yaratuvchisi, boyituvchisimiz.

Istiqlol har birimizning milliy hayotida faol qatnashishimiz uchun katta imkoniyatlar ochib berdi. O`zbek tilining tarixida yangi sahifa ochildi. O`zbek xalqining har bir vakili, o`zbek tilining jonkuyari, o`zbek tilini boyitish ishiga o`z hissasini qo`shishi shart: bu narsa ham farz, ham qarzdir.

Ajdodlarimizning asrlar davomidagi uzluksiz mehnati tufayli o`zbek milliy tili degan bir olam paydo bo`lgan. Milliy tilimizni hurmat qilar ekanmiz, biz ajdodlarimizning mehnatini, aql-u zakovatini hurmat etgan bo`lamiz. Milliy tilimizni hurmat qilar ekanmiz, ayni vaqtda o`z farzandlarimizning kelajagi to`g`risida qayg`urayotganimizni bildiramiz. Milliy tilimizga hurmat bildirarkanmiz, aql-idrokimiz, ta`limotimizga sodiqligimiz qay darajada ekanligi namoyish etgan bo`lamiz. Bugungi kunda o`zbek millatining muhim shakllantiruvchi omillaridan biri belgisi sifatida o`zbek tili yangi taraqqiyot bosqichiga ko`tarildi. O`zbek tilining mavqei va ahamiyati kundan-kun oshib bormoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov 1999-yilning iyunida “Fidokor” gazetasining muxbiri savollariga bergan javoblarida o`zbek tilining o`zbek millatining ruhi deb baholadi. Shuning uchun tilimiz, o`zbek nutqi milliy mafkuraning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida butun davlat va jamiyat diqqat-e`tiboridadir. Yuqorida takidlanganidek o`zbek tili davlat siyosatining tayanch nuqtalaridan biriga aylandi. Bugun biz ko`cha kuyda, ishxonalarda, hatto amerikalik, londonlik, yaponiyalik, Koreys, Nemis va Fransuzlarning o`zbekcha gapirishlarini guvohi bo`lmoqdamiz. Bu o`zbek ma`naviyatining tarkibiy qismiga aylangan o`zbek tilining ravnaqidan dalolat beradi. Bularning barchasi ma`naviy-madaniy qadriyatlarimiz tiklanib, xalqimizning ruhiy poklanishiga xizmat qilmoqda. Bu har bir shaxsning ushbu madaniy qurilishda yetuk to`laqonli fuqaro ekanligini his etib, tilga oqilona munosabatda bo`lishni taqozo etadi.

Istiqlol sharofati bilan o`zbek tilining umumiy o`rta va oliy ta`lim tizimida o`qitilishi tom ma`noda yangilanmoqda. Ona tilining, ijodiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida qabul qilingan yangi dastur ishlab chiqildi.

Shuni alohida takidlash lozimki, mustaqillikka erishgan yosh O`zbekiston davlati dastlabki qadamlaridanoq, o`zining til siyosatini respublikaning mustaqilligi, madaniy hamda mafkuraviy platformasining asosiy bo`g`imlaridan deb bildi va uni kerakli qonun va qarorlar bilan mustahkamladi. Natijada, davlat tili maqomi berilgan o`zbek adabiy tili respublikadagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma`naviy, iqtisodiy-xo`jalik, ma`rifiy-tarbiyaviy sohalarning barchasida ish yuritish va muloqotning asosiy quroliga aylandi. O`zbek tiliga nisbatan har qancha cheklashlarga, tazyiq o`tkazish va mensimay qarashlarga chek qo`yildi. Bu o`zbek xalqi orzu qilib kelgan, o`zbek tili asrlar davomida erisha olmay kelayotgan ulug` imkoniyat, mislsiz tarixiy yutuq bo`ldi.

O`bekiston davlati olib borgan va olib borayotgan til siyosatining tashabbuskori, ilhomchisi va nazoratchisi, shubhasiz, yurtboshimiz I.A.Karimovdir. U o`zining deyarli barcha nutqlari va asarlarida madaniyat, ma`naviyat va mafkura haqida fikr yuritar ekan, tilga, tilning milliy qadriyat, ulug` madaniy me`ros ekanligiga, tilning millat ravnaqidagi roliga to`xtalgan va bunday e`tiborning sabablarini ilmiy izohlagan. O`zbekiston davlati til siyosatining asosiy maqsadi va negizini shunchaki nazariy e`tiroflar, ta`rifu tavsiflar emas, balki o`zbek milliy tilini chinakam ma`nodagi davlat tiliga ko`tarishga qaratilgan konkret va ulkan amaliy ishlar tashkil qiladi. Bunga asosiy dalil sifatida mustaqillik davrida o`zbek tilini yangi imlo qoidalari tuzilgani va shu asosida bir qator imlo lug`atlari yuzaga kelgani, o`zbek tili ilmiy terminalogiyasi, umuman, lug`aviy me`yorlarini takomillashtirish maqsadida ko`pgina terminalogik lug`atlar qayta tuzilgani va yaratilganligi, ko`p jildli “O`zbek tilining izohli lug`ati”ning dunyoga kelgani, ish yuritish, pochta telegraf va boshqa xil komunikatsiya sohalari, ilmiy tadqiqot va nashr ishlari, rasmiy va ommaviy yig`inlar, anjumanlarning asosiy tili o`zbek tili bo`lib qolganini dalil sifatida keltirish mumkin. Ulkan shodiyona sifatida “Til bayrami” nishonlanayotgani ham shular jumlasidandir.

Milliy tilimiz, milliy nutqimiz, milliy ma`naviyatimiz va mafkuramizning tarkibiy qismi sifatida yuksalib bormoqda.

Har qaysi millat mavjudligining, rivojlanayotganligining asosiy belgisi bo`lib faqatgina bir til xizmat qiladi, bu ham bo`lsa so`zlovchining o`z ona tilisidir. Xalqlarning o`z madaniyatini bir tilda rivojlantirishga intilish tabiiy hol bo`lib, har bir madaniyatni faqat milliy til asosida erkin, mustaqil va tez suratlar bilan gullab-yashnatish mumkin, natijada o`ziga xos xususiyatga ega bo`lgan mustaqil haqiqiy milliy madaniyatli xalq jahon miqyosida juda katta obro`ga ega bo`ladi. Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining “Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchidir” asarida jamiyatning iqtisodiy asosi, uning yuksak ma`naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanishi, vatan tuyg`usini tarbiyalash ona tiliga muhabbat masalalari, milliy qadriyatlarimizning ham milliy mafkuraviy tarbiyamizning bir qismi bo`lishi lozimligi kabi masalalar ilmiy nazariy va amaliy jihatdan yoritib berilgan. Milliy mafkura konsepsiyasini yaratishda bu masalalarga ham alohida e`tibor qaratish lozimligi, bunga uning falsafiy mohiyati muhim o`rin tutishi alohida uqtirilgan.

Hozirgi o’zbek tilshunosligi mazkur vazifa ijrosini ta’minlash yo’lida. Olimlarimiz ko’zlayotgan asosiy maqsad ma’naviyat, madaniyat ko’zgusi bo’lgan tilimizni asrash va boyitish hamda uning qadr-qimmatini xalqaro miqyosda namoyon qilishdir. Bunday ezgu maqsadga erishish uchun tilshunos olimlar, filolog-tadqiqotchilarimiz g’oyat mas’uliyat bilan mehnat qilishlari lozim bo’ladi. Yaqinda Erkin Vohidov ona tilimizning bebaho xazinaligini uning “tirikligida” ko’rishni ta’kidladilar: “Agar tilni xazina desak, u ko’mib qo’yiladigan, yo sandiqda saqlanadigan xazina emas, balki ipak qurti kabi tirik xazina ekan”. Qahramon shoirimizning bu tashbehi bejiz bo’lmasa kerak, zero, “tiriklik” sifati bo’lmaganida, tilni asrashga ham, o’rganishga ham hojat qolmas edi. Agar biz tilni ifoda vositalari yoki ramziy belgilar xazinasi sifatida tasavvur qiladigan bo’lsak, unda “sandiq yopiq”ligicha qolaveradi, tilning mohiyati esa – uning ijtimoiy hayotda tutgan o’rni bilan belgilanadi. Til “xazoinul maoniy” bo’lishi uchun harakatda bo’lishi, inson, jamiyat uchun xizmat qilishi lozim. Til birliklarining ko’plab ma’no qirralari ularning muloqot faoliyati vositasi bo’lishida namoyon bo’ladi. Muloqot faoliyatining inson ijtimoiy faoliyatining muhim bo’lagi ekanligi ma’lum. Shunday ekan, harakatdagi til tizimini, uning ijtimoiy muloqot jarayonidagi ishtirokini tadqiq etish vazifasi muhim vazifalardan biriga aylanadi.

Yurtboshimiz Islom Karimov insoniyatning eng yuksak boyligi bo’lgan ma’naviyatning ma’no-mazmuni, uning jamiyatdagi taraqqiyot o’rni batafsil yoritilgan “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ma’naviyatni shakllantiruvchi omillardan biri ona tilimizga ehtirom va uning xalqaro maydondagi obro’-e’tiborini hamda nufuzini ko’tarish, yuksaltirish ekanligini alohida qayd etdilar. Darhaqiqat, muhtaram Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “o’zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o’tasidagi rihiy-ma’naviy bog’liqlik til orqali namoyon bo’ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”. Prezidentimiz ushbu asarlarida millat ma’naviyatini yanada yuksaltirish uchun “biz ajdodlardan avlodlarga o’tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarurligini” ta’kidlab, bu borada mamlakatimiz filologlari bajarishlari lozim bo’lgan vazifalarni ham belgilab berdilar. Shu jumladan, ma’naviyatimizning, milliy boyligimizning ajralmas qismi bo’lgan “o’zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish” maqsadini ko’zlaydigan tadqiqotlar olib borish va amaliy ishlarni bajarish vazifasi qo’yildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Milliy til va milliy ma`naviyat deganda nimani tushunasiz?
2. Tilda inqilobiy o`zgarish yuz beradimi?
3. Davlat siyosatining tilga aloqasi qay darajada kechadi?
4. Sho`ro davrida o`zbek tilida qanday o`zgarishlar sodir bo`ldi?
5. Koyne deganda nimani tushunasiz?
6. Professor N.M.Mallayevning Yusuf Xos Hojib asari tog`risidagi fikrini izohlang?
7. Nima sababdan sho`rolar davrida o`zbek alifbosi tez-tez o`zgartirildi?

8. O`zbek tilining xo`jalik tiliga aylanishiga sabab nimada?
9. O`zbek nutqida ruscha so`zlarning ko`p qo`llanishiga sabab nimada?
10. Til nima uchun millatlarning ruhi deb qaraladi?
11. K.K.Yudakin nima sababdan mayda burjua millatchisiga aylandi?
12. Nima uchun o`zbek tilini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi?
13. Istiqlolning o`zbek tili taraqqiyotiga ta`siri.
14. “Til bayrami”ning ahamiyati nimada?
15. Milliy tilning milliy nutqqa ta`siri deganda nimani tushunasiz?
16. Milliy til milliy mafkurani belgilay oladimi?

Jamiyatning til sathlari rivojiga ta'siri.
Til va nutqning rivojlanish omillari.

1. Til sathlari haqida.
2. Jamiyatning sathlar taraqqiyotiga ta'siri.
3. Tilning rivojlanish omillari.
4. Nutqning rivojlanish omillari.
5. Til taraqqiyotida ichki va tashqi omillar.
6. Leksika-ijtimoiy o`zgarishlarga eng sezgir sath.

**Tayanch so`z va iboralar:** *tilning rivojlanish omillari, nutqning rivojlanish omillari, nutqiy shtamp, so`zlashish odobi, semantika, lug'at tarkibi, uslubiyat, til sistemasidagi taraqqiyot.*

Ma'lumotlarga qaraganda, jahonda besh yarim mingdan ortiq turli-tuman tillar bor. Har bir til o`ziga xos yangi bir dunyo, har bir til lug'at boyligidan tashqari grammatik, fonetik va boshqa qoidalardan va shu qoidalardan chekinishlardan iboratdir. Bu qoidalar va ulardan chekinishlar o`zaro mantiqan bog'liq bo`lgan muayyan til tuzilmasini tashkil qiladi. Jahonda nechta til bo`lsa, shuncha o`ziga xos tuzilma mavjud. Har bir millatning milliy ongi davr, muhit, hukmron tuzum ta'sirida shakllanadi, ya'ni millatning o`z hayotiy tajribasi asosida atrof olamni, jamiyatni, tarixni, kishining ichki kechinmalarini talqin etish yo`llari va o`ziga xos uslublari tashkil topadi. Milliy ong, o`z navbatida, o`zining maxsus ko`rinishi milliy o`z-o`zini anglashga yo`l ochadi. Milliy o`z-o`zini anglash millatning yetukligini ko`rsatuvchi eng muhim omillardan biridir.

Millat uchun moddiy boylikni, jamiyat hayotini tushuntirib bera olish yetarli emas. Shu narsalar bilan bir qatorda milliy o`z-o`zini anglash, ya'ni o`z-o`zini hurmatlash, o`zining qadriga yeta bilish, o`z mohiyatini tushuna olish va boshqa millatlarga tushuntira bilish kerak.

Millatlarning tillari ko`p asrlik tarixni, xalq hayotini, uning yaratuvchanlik dahosini, bularni ifoda etish uchun foydalanilgan so`zlarni o`zida saqlab qolgan. Til millatning butun ichki va tashqi, moddiy va ma'naviy hayotini o`zida aks ettiradi. Tilning so`z boyligini o`rganib, shu tilda so`zlashuvchi xalqning bugungi hayoti, turmush tarzi, ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darajasi, uning o`tmishini juda aniq bilish mumkin.

Milliy til millatning eng katta boyligi va iftixoridir. U millatning eng ezgu niyatlarini, uning dilini namoyon etish vositasidir. Milliy tilning moddiy boylikdan tub farqi shundaki, uni moddiy boylik bilan qiyoslab bo`lmaydi. Chunki, milliy til millatning har bir vakilining ongidan o`rin olgan narsadir. Demak, til - ma'naviy boylikni tashkil etadi. Ammo, ma'naviy boylik bo`laturib, ayni vaqtda u ma'naviy boylikdan baland, chunki ma'naviy boyliklarning o`zi til yordamida namoyon bo`ladi, ya'ni til millatning barcha ma'naviy boyliklari uchun yagona vositadir. Shu omillarni ko`zda tutib, biz aytamizki, til insonni, uning moddiy mahorati va boyligini, ma'naviy dunyosini yuzaga keltiradi. Inson til yordamida barcha bilim va ma'lumotlardan foydalanib, juda ko`p narsalarni o`rganib oladi.

Milliy tilning hayotdagi o`rnini baholash va aniqlash juda og'ir masalalardan biridir. Millatning o`ziga bo`lgan munosabati va o`zga millatlarning shu millatga hurmati milliy tilning jamiyatdagi o`rni bilan belgilanadi. Millat o`z tiliga qanchalik befarqlik bilan qarasa, uning ko`p millatli jamiyatdagi obro`si, o`rni ham shunchalik darajada past bo`ladi.

Umuman olganda, har qanday adabiy til o`zining paydo bo`lish, shakllanish va rivojlanish tarixida turli ijobiy va salbiy jarayonlarni boshidan kechiradi. Ijobiy jarayonlar tilning yanada takomillashuvi va taraqqiyoti uchun xizmat qilsa, salbiy jarayonlar unga to`siq bo`ladi, adabiy tilning rivojini sekinlashtiradi, orqaga suradi, uning qonuniy imkoniyat va huquqlarini cheklaydi. Bunday holatlarni o`zbek

adabiy tili ham ko`p bor boshidan kechirgan. Bunga tilimizning o`tmishidan ham, yaqin davrlaridagi holatidan ham istagancha dalillar topiladi.

Adabiy tilning holati va rivojiga, odatta, ikki omil ta'sir ko`rsatadi: ichki omillar, tashqi omillar. Ichki omillar sifatida adabiy til me'yorlarining qay darajada belgilanganligi, ongli ravishda ishlanganligi, muayyan qoidalarga bo`ysundirilganligi, lug'aviy, grammatik normalarni qanchalik tan olishi va unga amal qilish darajasi, davlatning hamda til jamoasining tilga munosabati va boshqalarni keltirish mumkin.

Til rivojiga ta'sir etuvchi tashqi omillarga adabiy tilning unga qardosh va yondosh bo`lgan tillar bilan aloqasi va ulardan ta'sirlanishi, bosqinchilar, istilochilarning mag'lub xalq tiliga munosabati va ular tilining mahalliy xalq tiliga o`tkazuvchi ta'siri va tazyiqi, shu orqali mahalliy tilning ijtimoiy hayotning ba'zi sohalaridan siqib chiqarilishi, bunga oid cheklashlar va boshqalar kiradi. Til qurilish sathlari deganda, til yaruslari fonetika, fonologiya, leksika, morfologiya, sintaksis va semantika (shuningdek, ayrim mutaxassislar tomonidan frazeologiya, terminologiya va stilistika ham alohida sathlar sifatida ajratiladi) tushuniladi. Bu sathlar davrlar o`tishi bilan takomillashib, o`zgarib boradi. Lekin til sistemasidagi taraqqiyot, o`zgarish ularning barchasida bir xilda kechmaydi. Tilimizda ijtimoiy o`zgarishlarga eng sezgir sath leksikadir.

Jahondagi ko`pgina milliy adabiy tillarning rivojlanish tarixi yuzasidan tilshunoslar olib borgan kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, xalq ijtimoiy hayotida yuz beradigan ba'zi tarixiy o`zgarishlar: ijtimoiy-siyosiy tuzumning almashinishi va u bilan bog'liq holda yuzaga keladigan yangicha til siyosati, adabiy tilning ijtimoiy vazifalarini yangi tuzum, davr talabiga moslashga intilish va boshqa bir qator omillar adabiy til me'yorlarida ma'lum qarama-qarshi, turg'un bo`lmagan holatlarni yuzaga keltiradi.

Tabiiyki, jamiyatda bo`ladigan turli-tuman o`zgarishlar natijasida yuz beradigan, paydo bo`ladigan narsa-hodisalar ular uchun tilda maxsus atamalar bo`lishni taqozo etadi. Ana shunday obyektiv sabablar asosida tilda yangi-yangi leksemalar paydo bo`ladi, lug'at tarkibi boyib boradi. Mustaqillik davriga kelib o`zbek tili leksikasi keskin ijobiy o`zgarishlarni boshidan kechirdi. O`zbek tilining o`z ichki imkoniyatlari va lisoniy zahiralardan kengroq foydalanishga intilish harakati yuzaga keldi. Bu quyidagi holatlarda yaqqol ko`rinadi.

1. O`zbek tili lug'aviy tarkibida avvaldan mavjud bo`lgan, rus tilidan o`zlashgan so`zlar tomonidan noo`rin siqib chiqarilgan leksemalarni adabiy norma sifatida tiklashda: *muharrir, sug'urta, guruh, risola, mavhum, to`garak, fuqaro, islohot, amaliyot, sinf, usul, ta'til, mumtoz, foiz, inqilob* va b.

2. Parallel ravishda qo`llanib kelgan muqobil so`zlarning milliy muqobiliga ustunlik berish: *iqtisodiyot-ekonomika, alifbo-alfavit, badal-vznos, tahlil-analiz, axborot-informatsiya, manzil-adres, mavhum-abstrakt, dalil-argument, risola-broshyura, ko`rgazma-vistavka, hujjat-dokument, nogiron-invalid* va b.

3. Yangi so`zlar yasash: *so`rovnoma-anketa, buyurtmanoma-zakaz, narxnoma-preyskurant, tavsifnoma-xarakteristika, jo`natma-posilka, vazirlik-ministerstvo, yo`riqchi-instruktor, bojxona-tamojniya, chegirma-skidka,*

qadimshunos-arxeolog, usuliyat-metodika, jonlantirish-reanimatsiya, hisobxona-buxgalteriya, elshunos-etnograf va b.

Bundan tashqari, o`zbek tili tarixida iste'molda bo`lgan, keyinchalik qo`llanishdan chiqqan bir qator so`zlarni adabiy tilning turli uslublari ehtiyojiga ko`ra adabiy til me'yoriga kiritish faollashdi: *muxtoriyat, ma'muriyat, munajjim, muloqot, devonxona, tijorat, vazir, bo`nak, tashxis, zobit, talaba, nizom, shu'ba, boj, tuman, viloyat, muqobil, muhandis, sarmoya* va boshqalar. Ayniqsa, o`tmish ajdodlarimiz urf-odatlari, ishonch va e'tiqodlari, islom dini va uning tushuncha va tasavvurlari bilan bog'liq bo`lgan, avvallari qo`llanishi faol bo`lmagan so`z va iboralarning keng iste'mol qilinayotganini payqash mumkin: *islom, islomiyat, imon, qurbon hayiti, ramazon hayiti, qurbonlik, murshid, murshidi komil, komillik, musoviya, naqshbandiya, yassaviya, hadis, hadisshunoslik, tasavvufshunoslik, oxirat, tasavvuf, vahdat, buddaviylik, suluk, jahriya, zohid, orifona, zohidona, tariqat, futuvvat, vahdoniyat* va b.

Bundan tashqari, yangi tushuncha va denotatlarni ifodalovchi avvallari iste'molda bo`lmagan bir qator yangi so`z va iboralar tilimizga kirib keldi. Bu leksemalarning aksariyati yangi tuzum mafkurasi va ma'naviyatiga, savdo-sotiqqa, fan va texnika va transportga, kommunikatsiya tuzumiga, moddiy-maishiy narsalarga tegishlidir: *kompyuter, slayd, biznes, transter, tender, fayl, firma, birja, menejment, marketing, bakalavr, magistr, magistratura, kollej, investitsiya, xolding, test, kontrakt, super-kontrakt, monitoring, auditor, diler, lizing, isizu, gamburger, chizburger, chikenburger, biftburger, xot-dog, sanatsiya, kadastr, marker, broker* va b.

Juda ko`pdan-ko`p so`z va tushunchalar, denotatlarning yo`qolishi tufayli kechagi kunda tilimizda faol qo'llangan so`zlar bugungi kunga kelib iste'moldan chiqdi, mustaqillik sharoitida ularni ifodalaydigan tushunchalarga o`rin qolmadi. Masalan, *pioner, komsomol, obkom, partkom, raykom, rayispolkom* va b.

Tabiiyki, ish bor joyda xato bo`lganidek, bu yo`nalishda ayrim xatoliklarga ham mustaqillikning dastlabki yillarida yo`l qo`yildi. Taniqli tilshunos olimlarimizdan professor N.Mahmudov, M.Mirtojiyevlar o`zbek tilini soflashtirish to`g'risida quyidagi fikrni olg'a surdilar: "Chetdan atamalar qabul qilinishining har qanday ko`rinishi tildagi mavjud izchil qonuniyatlarning buzilishiga, foydalanish imkoniyatlarining qiyinlashuviga olib keladi …. hozirgi o`zbekcha atamalar sofligi uchun kurash tildagi mavjud izchil qonuniyatlarni buzuvchi va foydalanish imkoniyatlarini qiyinlashtiruvchi vositalardan qutilishdir. Buni dastlab tilimizdagi rus-internatsional atamalarini o`zbekchasi bilan almashtirishdan boshlayapmiz. Keyinroq arabcha, fors-tojikchalariga ham gal keladi. Juda bo`lmasa unga shevalardan, eski o`zbek tilidan, eng ilojsiz holda, boshqa turkiy tillardan nusxa izlash kerak[1].

Albatta, bu fikrga umuman qo`shilib bo`lmaydi. Rus tili orqali o`zlashgan bir qator so`zlarni iste'moldan chiqarish, ularni sun'iy yasalgan yoki biror tildan olingan so`zlar bilan almashtirishdek harakatni til tizimi va amaliyoti qabul qilmaydi. Chunki, iste'moldan chiqarishga jazm qilingan so`zlarning aksariyati,

[1] M.Mirtojiyev, N.Mahmudov. "Til va madaniyat". Toshkent, O`zbekiston. 1992. 65-b.

avvalo, umumxalqqa tushunarli, keng iste'mol qilinuvchi, o`zbek tilining lug'aviy normalariga singib ketgan, uzoq davr qo`llanib kelgan leksemalar edi. Darhaqiqat, adabiy til va uning me'yoriy tizimi doimo stabillikka ega, mo`tadillikka intiladi, o`zining me'yoriy vositalarini ehtiyojsiz, o`rinsiz o`zgartirishga intilishlarni qabul qilmaydi.

O`zbek tili lug'aviy me'yorlariga kiritishga harakat qilingan *tahsiltalab-abituriyent, hosilot-agronom, baytulhikma-akademiya, malakasinov-attestatsiya, tayyarogoh, bandargoh, qo`nalg'a-aeroport, pultopar-biznes, chetpul-valyuta, noib-deputat, jarida, oybitik, oynoma-jurnal, oliygoh, ta'limgoh, taqsilgoh-institut, minbar, minbargoh-kafedra, da'vatgoh, tadbirgoh, tomoshagoh-klub, tajribaxona-laboratoriya, unolgich-mikrafon, nusxakash-notarius, ovoznigor-radio, tayyora, uchoq-samolyot, shoshilinchnoma-telegramma, mashg'ulotboshi-trener, kulliyot-fakultet* kabi so`zlarning amaliyotga singmagani yuqorida qayd qilingan qonuniyatga zid bo`lganligi bilan izohlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, til taraqqiyotining ikki asosiy omili mavjud:

1) ichki omil
2) tashqi omil.

Albatta, bular nutqda ham o`z aksini topadi va umumiy tilning rivoji bilan birga nutqning ham rivojlanishini ta'minlaydi. Ammo nutqning ham o`ziga xos rivojlanish xususiyatlari mavjud. Bularni ham ichki va tashqi kabi ikki turga ajratish mumkin. Faqat sotsial tilshunoslikda tashqi deb baholangan ko`pgina qirralar sotsiolingvistika uchun ichki omildir. Chunki, jamiyat sotsial lingvistika uchun tashqi omil bo`lsa, sotsiolingvistika uchun ichkidir. Demak, nutq rivojlanishining ichki omillariga quyidagilar kiradi:

1. Jamiyat
2. Jamiyatdagi til siyosati.

Darhaqiqat, jamiyat, jamiyatdagi kishilarning o`zaro muloqotga kirishishi kommunikatsiyani yo`lga qo`yishi nutq rivoji uchun eng asosiy omil hisoblanadi.

Masalan, "O`zbek tilining izohli lug'atida "o`tirmoq" so`zining quyidagi ma'nolari berilgan" (qisqartirilib berildi).

O`tirmoq:

1. Tik turmay, ketni biror joyga qo`yib, biror joyni ishg'ol etib o`rinlashmoq. Chordana qurib o`tirmoq. Cho`kka tushib o`tirmoq. Oyoq uzatib o`tirmoq. Ko`rpachada o`tirmoq. Palas sotsang, qo`shningga sot, bir chekkasida o`zing o`tirasan. Kech kirib cho`l qorong'uligi boshlangan, hamma jam bo`lib, katta chodir ichida, toshfonar yorug'ida choyxo`rlik qilib, u yoq-bu yoqdan gaplashib o`tirardi (S.Ahmad. "Ufq").

2. O`tirib qilinadigan ish-harakatni bajarishga boshlamoq, kirishmoq. *Ovqatga o`tirmoq. Darsga o`tirmoq.*

3. Biror yoqqa borish uchun transport vositasiga tushmoq, minmoq. *Samolyotga o`tirmoq. Tramvayga o`tirmoq.*

4. So`zlashuv nutqida. Biror lavozimni egallamoq, … bo`lib ishlamoq, tayinlanmoq. U dekan bo`lib o`tiribdi. U raislik lavozimiga o`tirdi.

5. So`zlashuv nutqida. Biror joyda ma'lum vaqt bo`lmoq, turmoq, qolmoq. *Uyda o`tirmoq, jamoat ishiga qatnashmasdan, uy ishi bilan shug'ullanmoq. Biror*

joyda uzoq yoki doimiy yashamoq, turmoq. Bu kvartirada kim o`tiribdi? O`n yil ularga qo`shni bo`lib o`tirdik.

6. Ozodlikdan yoki erkin harakat qilish huquqidan mahrum bo`lmoq, qamalmoq. *Turmada o`tirmoq. Zindonda o`tirmoq. Sho`xligi boshiga yetib, bir-ikki yil o`tirib ham chiqibdi.*

7. Inmoq, yopishmoq, o`rnamoq. *Kitoblarga chang o`tiribdi. Yigitning uzoqqina yo`ldan kelganligi uning kiprik va qoshlariga ham endigina chiqa boshlagan saqol-murtlariga o`tirgan to`zonlardan belgili edi* (A.Qodiriy).

8. So`zlashuv nutqida. Mos bo`lib tushmoq: yarashmoq. Bu kostyum sizga juda o`tirdi. Oyog'idagi qizil saxtiyon etigi o`ziga juda o`tirgan (SH.Toshmatov).

9. Xush kelmoq, yoqmoq. *Inspektor Orif Saidov uning didiga o`tirmay qolgan* (A.Muhiddin).

10. Ma'noni ta'kidlash, diqqatni jalb qilish. Kap-katta bola choynakni sindirib o`tiribdi-ya. Arzimagan gapga arazlab o`tiribsanmi? - Be! Biz nimani tushunamiz? Tushunsak sizdan so`rab o`tirarmidik. - Bu kishi hidlab o`tirmaydi, to`g'ri yeydi - qo`yadi, - dedi (A.Qahhor. O`TIL. Moskva.1981. 518-519-betlar). **Yana qiyoslang:** - *Sengayam sochini tarab o`tirgan bir qiz chiqar axir? - Yo`-o`q, bu menga o`tirmaydi, Bodom. Suvning kechuviga yetib, xarsang toshga o`tirdi va allaqanday alanglagan ko`z bilan atrofni tomosha qila boshladi* (SH.Xolmirzayev).

Yuqorida "o`tirmoq" fe'lining yozuvda bir xil ko`rinishda bo`lsa-da, uning matndagi anglashilgan ma'nolari turlicha bo`lib, bu faqat nutq jaroyonidagina reallashadi. Taniqli yozuvchi Shukur Xolmirzayevning 1966 yilda yozilgan "Sirli militsioner" hikoyasidagi oddiy bir mehnatkashning quyidagi nutqiga e'tibor bering.

- *Biz ... iskaladga qorovul, - javob berdi mezbon ... .*

- *E, uni aytasizmi? Lekin, milisa bobo, tipovoydan bizgayam birovini beramiz deyishgandi. Kampir ko`nmadi, yurtga boramiz, deb. O`zlarining lekin uchastka sog'anini bilmayman. Tepamda xudo bor, Yolg'on gapiralmayman! ...*

... magazinga keldi. Qorovulxonada odam ko`rinardi. Militsioner budkaga yaqinlashdi.

- *Ha, men o`rtoq To`rayevman! Katta bo`p qopsiz-da, ah zamnachalnik bo`psizda? Tuzuk, tuzuk. Sen zamnachalnik bo`lsang, men direktorman… Nima deysan? - Deya burildi director.*

(SH.Xolmirzayev).

Darhaqiqat, sobiq sho`rolar hukmron bo`lgan davrda til siyosati milliy tillarda nutqning chegaralanib qolishi, hatto uning turli uslublarining yo`qola borishi ko`zga tashlangan edi. Ushbu holatlarni o`z vaqtida payqagan buyuk adib A.Qahhor, jumladan, quyidagilarni yozgan edi:

"Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo`lmaydigan fikr, tuyg'u, holat yo`q!.."

Afsuski, radiomiz ko`pincha xalq bilan mana shu boy, chiroyli, purqudrat tilda gaplashmaydi: Odamlar borki, bisotidagi bir hovuch so`zni aylantirib, oyligini olaveradi… Mana shunaqa odamlarning dangasaligi yoki farosatsizligi, chalamulla olimlarning "ilmiy faoliyati" oqibatida shunday bir til vujudga kelganki, na

muomalada, na oilada, na suhbatda hech kim bu tilda gapirmaydi, na oshiq-ma'shuqasiga, na ota bolasiga, na bola onasiga bu tilda xat yozadi. Radio xodimlarining o`zlari ham bu tilda o`zaro gaplashmaydi. Bu tilni faqat marofon ko`taradi. Bunga faqat mikrofon toqat qiladi.

Bizning matbuot va radio tili nima uchun kundan-kun xalq tilidan uzoqlashib borayotibdi? Nima uchun tilimizning qonun-qoidalari buzilayotibdi? Nima uchun ko`cha harakati qoidalarini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi… Ba'zan raislar, brigadirlar mikrofonga chiqariladi. Ularning qo`liga no`noq jurnalist yozgan matnni berib, shuni o`qishga majbur qilishadi: Rais: - "KPSSning fevral pleniumidan ilhomlangan kolxozimizning kolxozchilari chigit ekish planini sharaf bilan bajardilar va o`zlarining imkoniyatlarini hisobga olib qo`shimcha majburiyat olmoqdalar". Brigadir: - "KPSSning mart plenumidan ilhomlangan brigada a'zolari 90 gektar yerning har gektaridan 50 sentnerdan paxta hosili olib, planni sharaf bilan bajardilar va o`zlarining imkoniyatlarini hisobga olib…" Bunda rais yo brigadirning tovushi bor xolos, gapi yo`q (A.Qahhor. t.v. 211-212-betlar).

Vaholanki, Navoiyning o`z asarlarida o`zbek tilining leksik boyliklaridan, sinonim va omonimlaridan, xalq ta'biri, maqol va matallaridan, frazeologik, ideomatik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalanganligi, bularni ma'lum qolipda, sistemaga solganligi barchaga ayon. Navoiy tilni qotib qolgan, o`zgarmas bir narsa deb hisoblamagan. Tilning muntazam ravishda o`sishini, rivojlanishini va har doim jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashib borishini hamda tillarning o`zaro aloqada bo`lib, bir-biri bilan chatishishini e'tirof etadi (N.M.Mallayev 561-b).

Tabiiyki, til, asosan, o`z imkoniyatlari orqali rivojlanadi. Shu bilan birga, o`zaro iqtisodiy, madaniy aloqalar tufayli chetdan so`z olish va o`zlashtirish dunyodagi barcha tillarga xos xususiyatdir. Bu jarayon o`zbek tili uchun ham begona emas. Mustaqillik, istiqlol tufayli mamlakatimiz dunyo hamjamiyatiga qo`shildi, natijada iqtisodiy va siyosiy aloqalar beqiyos darajada o`sib bormoqda.

Bunday aloqalar tufayli tilimizga turli tushunchalar va uning ifodasi sifatida terminlar kirib kelishi natijasida o`zbek tilining ham boyib borishi tabiiy holdir. Odatda, yangi predmet va u haqidagi tushuncha hamda uni ifoda etuvchi so`z biror mamlakatda paydo bo`ladi. Ana shu tushuncha va uni anglatuvchi so`zni boshqa mamlakat fani va amaliyotida qo`llash zaruriyati kelib chiqadi. Masalan, 1999-yil may oyi boshida o`zbekcha kurash bo`yicha jahon chempionati bo`lib o`tdi. Natijada milliy kurashimizga oid *kurash, yonbosh, chala, halol, g'irrom* kabi tushunchalar va ularning nomi jahon sport terminologiyasiga kirdi.

Xullas, jamiyat, jamiyatdagi til siyosati, so`zlovchi va tinglovchi saviyasining rivoji nutqqa o`z ta'sirini o`tkazib, uning rivoji uchun xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Til qurilish shakllari deganda nimani tushunasiz?
2. Til sathlarining o`zgarib borishiga sabab nima?
3. Nima uchun leksika eng sezgir sath hisoblanadi?
4. Til rivojlanish omillari deganda nimani tushunasiz?

5. Tilning ichki rivojlanish omillariga nimalar kiradi?
6. Tashqi rivojlanish omillari deganda nimani tushunasiz?
7. Jamiyatdagi til siyosati masalasi.
8. Til siyosatining nutqqa ta'siri.
9. Sho`rolar davrida o`zbek nutqi to`g'risida.
10. Til rivojiga ta'sir etuvchi omillar.
11. Mustaqillik davrida o`zbek tili tizimidagi o`zgarishlar.
12. Lug'aviy me'yor deganda nimani tushunasiz?
13. Jamiyat, jamiyatdagi til siyosati.
14. Alisher Navoiyning o`zbek tili taraqqiyotiga qo`shgan hissasi nimada?
15. A.Qahhorning o`zbek tili boyligi to`g'risidagi fikrlari.

Nutqning ixtisoslashuvi. Muloqotning tarkibiy qismlari.

1. Adresant, kommunikator, adresat, kommunikant.
2. Til birliklarining shakllanishi.
3. Muloqot olami.
4. So`zlovchi va tinglovchining madaniy saviyasiga, ijtimoiy mavqeiga, jinsiga, yoshiga, kasb-koriga, aloqaning kontakt, distantligiga ko`ra turlari.

**Tayanch so`z va iboralar:** *til, lison, ijtimoiy guruh, me'yor, uslub, nutq, nutqiy ifoda, paralingvistika, ekstralingvistika, adabiy til, sheva, so`zlovchi, tinglovchi, jins, yosh, nutq mavzusi, tilning farqlanishi, nutq shakli, dialog, monolog, kommunikant.*

Sotsiolingvistikada nutqning ixtisoslashishida nutq tushunchasi lingvistikada tushuniladigan til (lison)ning bevosita voqealanishi, uning moddiy shaklda yuzaga chiqishi tushunchasidan farq qiladi. Ya'ni sotsiolingvistikada nutqning ixtisoslashishi deganda, umumijtimoiy imkoniyatlarning muayyan shaklda voqealanishi emas, balki qandaydir alohida bir guruh uchun me'yor vazifasini o`taydigan umumiylik bilan xususiylik oralig'i tushuniladi. Tilshunoslikda adabiy tilga, shevalarga nisbatan bu ma'noda me'yor tushunchasi qo`llanadi. Bundan tashqari, bu tushuncha lingvistikaning argo va jargonlariga ham yaqin turadi, chunki ular ham ma'lum bir ijtimoiy tabaqa uchun me'yor sanaladi.

Nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi uslubiyat bilan bevosita aloqadordir, chunki badiiy, ilmiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik kabi uslublar sohaviy me'yorlardir. Shuning uchun nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi uslubiyat doirasida tahlil va tadqiq

etilishi mumkin. Lekin bunda ham o`ziga xos farq mavjud: uslubiyat, asosan, lisoniy vositalrni o`rganadi, nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvida esa nutqiy ifoda vositalari paralingvistik, ekstralingvistik vositalar bilan birgalikda tadqiq qilinadi va bu nuqtada sotsiolingvistika etnografiya, odat, axloq fanlari bilan kesishadi. Nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi rang-barang bo`lib, ularning ichida quyidagi turlarini ajratish mumkin.

1. Nutqning so`zlovchi va tinglovchining madaniy saviyasiga ko`ra ixtisoslashuvi.

Yoshi 70-80larga borgan, omi qariya nutqi. *Negadir qariyaning qulog'i og'ir bo`lsa kerak, degan xayolda ovozimni balandlatib ahvol so`radim:*

- Bardammisiz otaxon?

- Xudayg'a shukur, tetikman - dedi chol bamaylixotir. - Nasibamizni jeb juribbiz, bolam. Leninniyam ko`rdik. Kal leninniyam ko`rdik... Ustixonibchi bo`ldik.

- Siz Leninni ko`rganmisiz? - deb so`radi mezbonlar orasidagi yosh muxbir hovliqib.

- O`zini ko`rmagan chiqarman-ov, - dedi chol. - Ammo Lenin degan kolxozda ishladik. Kal Lenin degan kolxozda ishladik. So`g'in yana birovi bor edi. Temirniyozip.

- Temiryazov, - dedi muxbir aniqlik bilan. - Bo`lsa - bordir, - dedi chol. - O`sha Temirniyozipda ham ishladik.

Muxbir bola maxmadanagina ekan. Cholni gapga soldi. - Buva, siz mu'tabar odamsiz. Ko`p joylarda bo`lgandirsiz? – Menma? Chol qaddini rostladi. - Bo`g'anda qandoq! Chiyoli bozordi ko`rdim. Chiroqchini ko`rdim. Ulim motosiklda Kosongadavur obborib keldi. E, bolam, bu dunyoda men ko`rmagan jurt qolmadi!

Muxbir bola "Meditsina ensiklopediyasi"ni xo`p xijjalagan shekilli, cholni tag'in so`roqqa tutdi: - Uzoq umr ko`rishingizning siri nimada, deb o`ylaysiz? Zelinni ko`p iste'mol qilgandirsiz? Sut-qatiq ichgandirsiz? - Zelin-peliningni bilmadim-ku, qatiqni ko`p ichgan chig'arman. Chakkini ko`p jegan chig'arman...

- Go`shtdan parhez qilganmisiz?

- Ettamma! Chol astoydil hayron bo`ldi: - Et jemagan jigit jigitba? Do`svoyi qo`ydi quyrug'ini jeganman!

- Kechirasiz-ku, ichkilik masalasi...

- Bo`g'an! - dedi chol quvlik bilan bosh irg'ab. - Ammo bu ukkag'ardan naf ko`rgan odam juq. Og'zimga olmay qo`yg'animga ush jil bo`ldi.

(O`.Hoshimov)

Aroqqa mukkasidan ketgan odam xotinining nutqiga e'tibor bersak:

- Azlar emas, ajdar bu, ajdar! Yoshi qirqqa chiqib qilcha aql kirmagan noinsof umrimni xazon qildi! Uchta bola nima yeb, nima ichayapti, demasa, ro`zg'or nochorligidan uyda sichqonlar hassa suyanib yursa.... Xudoning bergan kuni bukib ichsa! Ichaverib-ichaverib, kompyuteri sinib qolgan buning! Bir yil yuvilmagan paytavadek g'ijimlanib ketgan tusingni yel yesin! Tullagan itning

dumiga o`xshagan mo`yloving uzilib tushsin! Benzavoz hidi anqib turgan og'zingga qo`rg'oshin quyilsin!

Er nutqi: *Xoh ishoning, xoh ishonmang hovlimiz yoz bo`yi ari bozorga aylanib ketadi! Har qovoq arilarki, uchsa, bombardimonchi samolyot kelib qoldimi deysiz! Ammo ular birovni chaqmaydi. Aksincha, xotin xo`janing tilidan "zapravka" qilish uchun navbat kutib turadi! Xohlagan odamingiz bilan bir emas, ikki yashik aroqdan garov bog'lashib aytamanki, agar qarg'ish bo`yicha musobaqa o`tkazilsa, bizning xotin Toshkentda emas, butun boshli O`zbekistonda ham emas, dunyoda birinchi o`rinni oladi!*

Xotin nutqiga e'tibor bering:

- *Xumga qamalib qolgan aridek g'ung'illagan ovozing o`chsin! Laylakning inidek paxmaygan sochingga o`t tushsin! "Vosmerka" g'ildirakka o`xshab qing'ir-qiyshiq qadam tashlaydigan oyog'ing "kamaz"ning tagida qolsin! Choyga tuz solib, "nega shakaring shirinmas", deb piyolani otib sindirgan qo`llaring akashak bo`lsin! Tappiga tushgan munchoqdek yaltirab turgan ko`zlaringga snayperning o`qi tegsin! Makaron sho`rva ichib, "nega lag'moningni xamiri uqlovdek", deb enamni so`kkan tillaring elektricheskiy myasorubkada qiyma-qiyma bo`lsin! Oftobda qolgan baqlajondek burishgan burning irib tushsin! Qosim qatiqchining obkashidek qomating lahatda chirisin! Koshkiydi, chirisa! Chirimaydi. Birov go`ringni ostiga qamish suqib gugurt chaqib yuborsa, "vechniy alanga" bo`lib qirq yil yonadi! A'zoi-badaning spirtga aylanib ketgan!*

(O`.Hoshimov).

Nutqning so`zlovchi va tinglovchi ijtimoiy mavqeiga ko`ra ixtisoslashuvi. Er-xotin o`rtasidagi arazdan keyingi holatning ifodasi. Haqiqiy musurmonchilik ruhida tarbiyalangan, erning piri borligini butun vujudi bilan his etadigan uning o`zigagina emas, soyasiga ham ko`rpacha to`shashga rozi, har bir so`zini o`ylab gapiradigan iffatli, hayoli, tom ma'noda o`zbek ayoli: Yusuf savdosida beqaror Zulayxo ismidan, Majnun ishqida yig'lagan Layli hajrida-sizga boshimdagi sochlarimning tuklaricha behad salom. - Mendan-haddu-hisobsiz gunoh, sizdan-kechirish. O`tgan ishga salovat. Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kunlarni esga olish manim uchun o`sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari, ul kunlarni siz unuting, unutmang, ammo men unutdim. Shuning uchun so`zimni o`zimni oxirgi, ham chin baxt islari hidlagan tarixdan boshlayman.

Siz qochqoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozgandek bo`lib, qochgansiz, ikki yil bo`ldi, Marg'ilon kelib yurishlaringizni men o`zimcha yechdim, lekin topib yechdim: Sizning barcha mashaqqatlaringiz-dushmanlaringizdan o`ch olish uchun bo`lganini angladim. Yo`qsa, meni ko`rar edingiz, ko`rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko`rar edilar, tuyar edilar… Men kabi baxtsiz, men kabi g'ovg'asi ko`p sizni zeriktirib jondan to`ydirgan bo`lsa ajab emaski, qocha boshlagansiz… qochsangiz qochib ko`ringiz, ammo men bu kundan boshlab birovlarni quvishga bel bog'ladim: Otam bilan onam raqobatlarida xizmatingizga-cho`riligingizga erta-indin yuraman, suyganingiz-kundoshim oldida qadru-qiymatimning nima bo`lishini ham bilaman… Siz oliyjanobsiz: eski qadrdonlik hurmatiga ko`ngil uchun kulib boqasiz … Loaqal shugina bilan ham

baxtsizni ma'suda qilasiz. Ammo… suyganingiz - kenjangizning jerkishlaridan, qarg'anishlaridan behad qo`rqaman. O`zimda yo`q qo`rqaman. Shu yaqin oradagi uning bilan bo`ladirg'on ma'sud daqiqalaringizda xudo yo'liga va'da olingiz-meni og'ritmasin, raqibam keldi, deb o`ylamasin. Nihoyati maqsadim … shu munosabat bilan birovlarni ko`rib yurish… Xatim oxirinda shuni ham aytib qo`yay: O`ch qaytib, men ham ko`chadan haydalmasam edi, degan xavf hamisha ko`nglimda. Agar xudo yorlaqab eshigingizda o`rinlashib olsam, uyog'ini o`zim bilar edim…

Erta-indin ko`zimga yo`l ko`rinur,
Yo`l bosishlig' ko`ngilga bir umr ko`rinur,
3 chi hamal, Marg'ilon, Kumushingiz yozdi"

(A.Qodiriy, O'tkan kunlar)

Har kun ertalab gazeta olib keladigan pochtachi - tatar xotin eshikdan qayta qolmaydi. Albatta oyimning oldiga kiradi.

- Esanmisiz - deb so`rashadi-yu, hasratini to`kib soladi. -Kitti, suvolish! Yana o`ynashig'a kitti, parazit.

Oyim har galgidek, uni yupatadi:

- Qo`ying, jon bolam, sabr qiling. Eringiz yomon bolamas.

- Razvodga beram! Alimentg'a dabetsa etam!

- Unaqa demang, o`rgilay, bolangizni tirik yetim qilmang.

- Ayni bo`lsa-bo`lur! Sudga beram.

(O`.Hoshimov, "Nurli dunyo").

Nutqning so`zlovchi va tinglovchining jinsiga ko`ra ixtisoslashuvi. Sotsiolingvistikada nutq kommunikantlarning millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilariga qarab ixtisoslashadi. Bulardan tashqari, so`zlovchi va tinglovchi orasidagi aloqaning kontakt-distantligiga ko`ra ham ixtisoslashdi.

Ma'lumki, har qanday muloqotda so`zlovchi va tinglovchi zaruriy uzv, ya'ni tarkibiy qismlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bunda so`zlovchi adresant, kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs-tinglovchi adresat deb, kommunikant deb muloqotda bevosita ishtirok etuvchilar ko`zda tutiladilar. Nutq so`zlovchi va tinglovchilar o`rtasida bevosita, ya'ni yuzma-yuz yoki bavosita: xat, telegramma, telefon singarilar orqali amalga oshishi mumkin. Shunga ko`ra ham nutq ixtisoslashadi. O`z navbatida bevosita aloqada undovlardan, odatda, ko`proq foydalaniladi.

Metroga tushaverishda davangirdek yigit qo`l chuzdi:

- 5-10 so`m xayr qiling!

- Pul yo`q edi-ya! - desam, menga tanbeh berdi.

- Ishlash kerak og'ayni! - ishlash kerak dedi!

(O`.Hoshimov)

- Aljimay o`ling! - dedi kampir ming'illab.

- Omadi gapni aytdim-da! -dedi chol…

- Voy, sharmanda-a-a! -dedi qoqshol qo`llari bilan yuzini yumdalab. - Voy bevafo!!!

(O`.Hoshimov)

Muloqotga bavosita ta'sir etuvchi omillar ham xilma-xil bo`lib, ular, taxminan quyidagilar: muloqot vaqti, vaziyat, holat, ijtimoiy holat, bavosita muloqot.

O`z navbatida til birliklarining shakllanishiga ko`ra: og’zaki-yozma muloqot.

So`zlovchi va tinglovchi pozitsiyasiga ko`ra: - dialogik; monologik.

Muloqot ishtirokchilari miqdoriga ko`ra: shaxslararo-ommaviy muloqot. Muloqot shart-sharoiti va kommunikantlarining o`zaro munosabatlariga ko`ra: xususiy, norasmiy rasmiy.

Nutqning yana boshqa turdagi ijtimoiy ixtisoslashuv shakllari va turlarini ham sanash mumkin. Lekin shu yuqoridagilar ham ularning turi ko`p ekanligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bundan tashqari, bu turlar o`zaro birikuvlarda, ya'ni kombinatsiyalarda cheksiz ko`rinishlarda namoyon bo`ladi.

Nosir sekin o`rnidan turdi.

- Qayerga?

- Qayerga?... Uyga, uy bormi, uy?

- Uy… bor.

- Ana o`sha uyga-da - u Nosirjonni chetga surib, stulga cho’kdi. - qalaysiz shoir?

Men o`rtadagi vaziyatni yumshatish uchun:

- Haliyam meni shoir deysiz-a? - dedim.

- Bari bir. Mana… yana bitta yozgan edim. Bu Polinaga bag’ishlanadi.

- O`, zo`r-ku! - Uning qo`lidan o`shandoq katak daftar varag’iga bitilgan she'rni oldim.

- Polinani, a?

- Sevamiz-da, - dedi Qobil doktor.

Men varaqqa ko`z yugirtirdim:

Yaxshi qol Oq dengiz, yaxshi qol shimol,

To`lqinlar, qo`ynimga qizdek kirdingiz…

(SH.Xolmirzayev).

Umuman, sotsiolingvistik tadqiqotlarda nutqning bunday ijtimoiy ixtisoslashuvi natijasida ikkilamchi ijtimoiylashgan munosabatlar yuzaga keladi deb hisoblaydilar. Albatta, bunday fikrga qo`shilish qiyin. Haqiqatan ham so`zlovchi va tinglovchi ma'lum bir jamiyatni tashkil etadi, lekin bu jamiyat barqaror va doimiy emas. U muvaqqat, davriy va vaqtinchalikdir. Nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvini bunday tushunish bilan sotsiolingvistika stilistikadan farq qiladi. Chunki stilistika, asosan, axborotni yetkazish shakli va vositalariga ko`proq e'tiborini qaratadi. O`z navbatida sotsiolingvistika lison va nutq o`rtasidagi munosabatlar turlicha talqin etib kelinayotgani hammaga ma'lum.

Mashhur tilshunos olim F.de. Sossyurning ta'limoti bilan bog’liq bo`lgan strukturalizmning turli-funksional lingvistika (Praga-tilshunosligi), glossematika (Kopengagen tilshunosligi) va boshqa oqimlarning umumiyligi shundaki, ularning barchasi nutq faoliyatini ikki bir-biriga qarama-qarshi tomonga-lison (til) va nutqqa ajratadi. Bunday farqlanish, jumladan, Sossyurning lison va nutq haqidagi quyidagi fikriga tayanadi: "Til va nutqni farqlar ekanmiz, ijtimoiy umumiylikni

shaxsiy xususiylikdan, mohiyatni tasodifiy hodisalardan farqlaymiz". Bevosita nutq haqida gapirar ekan, F.de Sossyur: "Nutqda hech qanday umumiylik yo`q" yoki "Nutq alohida bir shaxsning ixtiyori va ongining mahsulidir", deb alohida ta'kidlaydi.

Strukturalizm tilni mustaqil bir sistema sifatida o`rganar ekan, lisoniy tizimni, lisoniy imkoniyatlarni o`rganishga ko`p e'tibor qaratdi va shu bois lisonshunoslik keng rivojlandi. Nutq lingvistikasi esa, lisonshunoslik soyasida qoldi va tilshunoslikning asosiy e'tibori tildagi sistemaviy paradigmatik munosabatlarning o`rganilishiga qaratilib, nutq lingvistikasiga kam e'tibor berildi.
Strukturalizmning xilma-xil oqim va maktablari keng rivojlanib, lisonshunoslik "XX asr tilshunosligi", "Zamonaviy tilshunoslik" sifatida keng ommalashgach, yangilik tarafdorlari Sossyur diqqatidan chetda qolgan sohaga - nutq lingvistikasiga ham e'tibor bera boshladilar. Natijada Sossyurning "nutq sof xususiy, individual nutqda hech qanday umumiylik yo`q" degan fikrlariga qarshi chiqdilar va hatto lison-nutqning o’zaro farqlanish, asossiz ekanini isbotlashga intildilar, ya'ni Sossyur o’z qarashlarida eng muhim deb bilgan lison va nutq farqlanishini inkor etishga intildilar. Bu inkorning ham o`ziga xos asosi mavjud edi. Bu asos shundan iborat ediki, alohida bir shaxs muloqot jarayoniga kirishar ekan (fikrini, his-tuyg’usini, munosabatini yozma yoki og’zaki shaklda bayon etar ekan, uning oldida ma’lum maqsad turadi. Bu maqsad so`zlovchining boshqalar uni tushunishi, anglashidan iboratdir. So`zlovchi va tinglovchining bir-birini tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiy asos mavjud bo`lgandagina amalga oshishi mumkin. Shuning uchun lison qanchalik ijtimoiy, so`zlovchi va tinglovchi uchun umumiy, majburiy bo`lsa, nutq ham ular uchun shunday umumiy, majburiy va ijtimoiydir. Ammo lisoniy tizimdayam bir xil mazmun va munosabatni ifodalashning yuzlab omillari mavjud. So`zlovchi esa mana shu imkoniyatlar xazinasidan birini tanlash va qo`llash erkinligiga ega.

Masalan, "Ayol psixologiyasi"

Eridan mamnun bo`lib turganida:

- Avaz! Avazchik! Turaqolsinlar endi! Voy o`zimning asal bolamdan! Voy o`zimning polvon bolamdan! "Adajonim qani?" deysizmi? Adajoningiz ishga ketdilar. Avazjon ham "ishga" boradilar. Adajonisi-chi, Avazjonga-chi, ka-a-attakon shokolad olib keladilar. Avazjon-chi, adajonisiga o`xshagan pahlavon yigit bo`ladilar…. Voy, ishtoncha yana ho`l bo`pqopti-ku! Mayli, hozir almashtiramiz-da. Vo o`zimning toychog’im!

Eridan xafa bo`lib turganida:

-Avaz! Hoy, Avaz. Tur o`rningdan yalpayib yotmay! Sening bog’changga men borishim kerakmi? "Adalama! Adang ishga ketdi-da, go`rga borarmidi?! Ie ishtoning yana ho`lmi? Siyaman, desang, o`lasanmi, ho`kizdek bola! Arillama! Otangdan nima rohat ko`rdim-u, sen nima karomat ko`rsatarding!"

(O`.Hoshimov).

Sotsiolingvistika kursi bizga nutqning ixtisoslashuvi turlarining barchasini masalan, bolaga (o`quvchiga, talabaga, kichik yoshdagilarga, notanish bolaga, qarindoshning bolasiga, mehmonning bolasiga, qo`shnining o`ziga, o`g’liga, qiziga, va h. qanday gapirish kerakligini, bu jarayonda tilimizning qaysi bir

fonetik, leksik, grammatik, uslubiy vositalaridan foydalanish zarurligini o`rgatmaydi va o`rgata olmaydi, chunki bular behad ko`p va rang-barangdir. Bu imkoniyatlarni o`zlashtirish uchun insonga, uquv, saviya, farosat, madaniyat, bilim, dunyoqarash kerak bo`ladi. Bu esa o`z navbatida insonda millat xususiyatlarini, xulq-atvorni, madaniyatini, qadriyatlarini chuqur bilish asosida shakllanadi. Sotsiolingvistika fani bizga yuqorida sanab o`tilganlarning barchasiga so`zlovchi bir xilda gapira olmasligini, ularning har biriga o`ziga xos va mos ravishda munosabatda bo`lishi lozimligini o`rgatadi. Mana shularga amal qilgan kishigina el-yurt orasida obro` topadi, uning hurmatiga sazovor bo`ladi.

Bilimi va farosat uquv, fahm haqida har xil rivoyatlar juda ko`p.

Bir podshohning aqlsiz, fahm-farosatsiz o`g'li bor ekan. Xotinining tazyiqi bilan podshoh o`g'lini munajjim olimlarga o`qishga beribdi. Ta'lim muddati tugagach, podshoh o`g'lini olim va fozillar huzurida sinov qilibdi. Mushtida nima borligini topib berishni so`rabdi. O`g'li kitoblarni ko`rib, follar ochib, hisob-kitob qilib shunday debdi:

- Mushtingizda bir yumaloq, o`rtasi teshik, bir chekkasida biroz bo`rtib turgan qismi bo`lgan narsa bor, -dedi.

- Barakalla o`g'lim. To`g'ri topding. Qani ayt-chi, u nima?

- Tegirmon toshi bo`lsa kerak-da! Podshoh o'qrayib olimlarga qarabdi. Ularning sardori- hazratim, biz ilm yo`li bilan o`g'lingizga bilim berdik. U ilmni o`rgandi va mushtingizdagi narsaning belgilarini to`g'ri topdi. Lekin tegirmon toshining mushtga sig'masligini bilish uchun bilim emas, uquv, fahm-farosat kerak. Buni biz beraolmaymiz. Bu haqdandir, deb javob bergan ekan.

Xulosa qilib aytganda, so`zlovchi va tinglovchining tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiy asos mavjud bo`lgandagina amalga oshishi mumkin. Shuning uchun lison qanchalik ijtimoiy, so`zlovchi va tinglovchi uchun umumiy, majburiy bo`lsa, nutq ham ular uchun shunday umumiy, majburiy va ijtimoiydir. Ammo lisoniy tizimda ayni bir xil mazmun va munosabatni ifodalashning yuzlab omillari mavjuddir. O`z navbatida so`zlovchi mana shu imkoniyatlar xazinasidan birini tanlash va qo`llash erkinligiga ega.

Lison va nutq mohiyatan yaxlit butunlik bo`lgan nutq faoliyatining ikki tomonidir va ularni bir-biridan ajratish aslo mumkin emas. Ularga dialektik falsafaning, bir tomondan, umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab, zaruriyat, majburiyat, ikkinchi tomondan - yakkalik, xususiylik, hodisa, voqelik, oqibat, tasodif, erkinlik kabi kategoriyalari orasidagi munosabatlar nuqtai nazaridangina yondashish mumkin. O`z navbatida nutqni jarayon sifatida faqat muloqot-so`zlovchi va tinglovchi orasida o`zaro diskurs (fikr almashish), savolga yarasha javob berish holatidagina tadqiq etish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi deganda nimani tushunasiz?
2. Adresat, adresant, kommunikator, kommunikant to`g'risida izoh bering?
3. Nutq mavzusi, shakli, sharoiti to`g'risida nimalarni bilasiz?
4. Madaniy saviyaning nutqqa aloqasi?

5. Kumushning Otabekka yozgan xatini nima uchun biz o`ziga xos xususiyatga ega deymiz?
6. Nutqning qanday shakllarini bilasiz?
7. Muloqotga bevosita ta'sir etuvchi qanday omillar mavjud?
8. Nutq xususiymi yoki umumiymi?
9. F.de Sossyur nutqni nima uchun xususiy deb hisoblaydi?
10. Til va nutqning farqi nimada?
11. So`zlovchi va tinglovchi o`rtasidagi muloqotda umumiylik mavjud bo`ladimi?
12. Nima uchun sotsiolingvistika bizga qanday gapirish kerakligini o`rgata olmaydi?
13. Bilim va farosatning nutqqa qanday aloqasi bor?
14. Nima uchun xalqimiz farosatni yuqori qadrlaydi?
15. Lison va nutqning mohiyatan yaxlit birligi nimada?
16. Diskurs deganda nimani tushunasiz?
17. Nutq odobi nima?
18. Nutq sharoitining ichki va tashqi omillari to`g’risida nimalarni bilasiz?

So`zlovchining nutqi, saviyasi, va tinglovchining tinglash san`ati.

1. Muloqotda so`zlovchining markaziy o`rni.
2. Qisqa va mazmunli so`zlash.
3. Tinglash – katta san`at.
4. Muloqot jarayonida so`zlovchi va tinglovchining saviyasi, madaniyati.
5. Salomlashish – muomala madaniyati.
6. So`zlashish odobi.

***Tayanch so`z va iboralar:*** *so`zlash odobi, tinglovchi saviyasi, nutq san`ati, nutqning tinglovchiga ta'siri, muloqot va so`zlovchi, muloqot mavzusi, so`zlovchi saviyasi, tinglovchi saviyasi, tiniqlik, axborot-xarakteri, muloqot jarayoni va b.*

Suqrotdan "Dunyoda eng qiyin va og`ir ish nima?" – deb so`raganlarida olim "So`zlash", - deb javob bergan ekan. So`zlash odobi va mas'uliyati to`g`risida juda ko`pdan-ko`p fikrlar bayon etilganligi barchaga ayon.

Tilni "Ko`ngil xazinasining qulfi" va so`zni shu "Xazinaning kaliti" deb ta`riflagan Navoiy til odobiga katta e`tibor berib, kishilarni qisqa va mazmunli, o`rinli va mantiqli so`zlashga chaqiradi, sergap, laqma va tiliga ortiqcha erk berganlarni qoralaydi. Shu bilan birga, u maqtanchoq va kibr-havoga berilgan kishilarni ham qattiq tanqid qiladi:

Tilga ixtiyorsiz, elga e`tiborsiz.
Har kimki so`zi yolg`on, yolg`oni zohir bo`lg`ach uyolg`on,
Ko`ngil maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalitini so`z bil.
Chin so`z mo`tabar, yaxshi so`z muxtasar.
Befoyda so`zni ko`p aytma, foydalik so`zni ko`p eshittardin qaytma.
Chin so`zni yolg`onga cho`lg`ama, chin ayta olur tilni yolg`onga bulg`ama.
Aytar so`zni ayt, aytmas so`zdan qayt.

(N.M.Mallayev. O`zbek adabiyoti tarixi. 529-530 betlar).

Yusuf Xos Hojib o`z vatandoshi, ulug` olim Mahmud Koshg`ariy singari, turkiy qabila va xalqlarning tilini o`rgandi, adabiy til uchun, turkiy tilning madaniy hayotda yanada kengroq o`rin olishi uchun kurashdi. U o`zining "Qutadg`u bilig" asarining "Til ardami" ("Til odobi") bo`limida tilning ahamiyati, qisqa va mazmunli so`zlash, tilga ortiqcha erk bermaslik va boshqalar haqida ibratli o`gitlar beradi:

Til arslon turur, ko`r eshikda yotur.
Aya avlug arsiq boshingni yatur.
Tilin emgamish er naku ter eshit.
Bu so`z ichka tutg`ul o`zinga ish et.
Mani emgatul til ezi o`g talim.
Boshim kasmasuni kasatin tilim.
So`zingni ko`darg`ul boshungni
Tilingni ko`dargil tishing sinmasun…

Tilingda chiqarma yaroqsuz zo`zung.
Bilib so`zlasa so`z biligka sonur.
Birligsiz so`zu o`z boshini yeyur…

(N.M.Mallayev 128-bet).

So`zlash ulkan mas'uliyat bo`lsa, tinglash katta san`atdir. Chunki tinglash kishidan sabr-toqat chidamni talab qiladi. Bir kuni qadimgi yunon faylasufi Arastuning yoniga juda ham yosh sergap yigit kelib, unga notiqlik san`atini o`rgatishni talab qilibdi. U uzundan-uzoq gapirib bo`lganidan so`ng, Arastudan o`qish uchun qancha haq olishini so`rabdi.

- Sizdan boshqalarga qaraganda 2 baravar ko`proq haq olinadi, - qovog`ini solib javob beribdi faylasuf.
- Nima uchun? – hayron bo`libdi yigit.
- Chunki siz bilan 2 baravar ishlashga to`g`ri keladi: Sizga so`zlashni o`rgatishdan avval jim turishni o`rgatish lozim.

Bir kuni Husayn Boyqaro A.Navoiyning suhbatini olish maqsadida madrasaga tashrif buyurdi. Podsho borgan paytda hazrat Navoiy shogirdlari bilan mashg`ulot o`tkazayotgan ekan. Navoiy Husayn Boyqaroning kelayotganini ko`rib, shogirdlariga mustaqil vazifa topshiribdi-da, o`zi podsho tomon yuribdi. Husayn Boyqaro xonadagi bolalarning fikrini bo`lmaslik, diqqatini chalg`itmaslik uchun o`z fikrini do`stiga imo-ishora vositasi orqali yetkazmoqchi bo`libdi. Chap qo`l ko`rsatkich barmog`ini boshiga keltirib o`ng qo`lini savol yo`sinida yuqori ko`taribdi. A.Navoiy podshoning fikrini tushunib, o`ng qo`l ko`rsatkich barmog`i bilan tilinini, chap qo`l ko`rsatkich barmog`i bilan esa boshini ko`rsatibdi. H.Boyqaro xonadan chiqib ketibdi. A.Navoiy va H.Boyqaro o`rtalarida bo`lib o`tgan bu imo-ishoralarni zimdan kuzatib turgan shogirdlardan biri bu holatni izohlab berishni Navoiydan so`rabti… va Navoiy bunga quyidagicha izoh beribdi:
- Podshoh mening mashg`ulot bilan band ekanligimni ko`rib, buning ustiga sizlarning diqqatingizni bo`lmaslik uchun imo-ishora orqali mendan: -boshga balo keltiradigan nima?, - deb so`radi. Men esa: "Boshga balo keltiradigan bu tildir", deya javob berdim.

Istiqlol sharofati bilan bugungi kunda gap qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni o`rganish, o`zligimizni anglab yetish, boshqacha qilib aytganda, ma`naviyatimizni yuksak darajaga ko`tarish ustida borar ekan, ma`naviyat tildan, til madaniyatdan, til madaniyati esa muomala madaniyatidan boshlanishiga e`tiborni qaratish kerak bo`ladi. Muomala madaniyatining debochasi esa salomlashish hisoblanadi. Salom berish kundalik hayotimizda eng ko`p qo`llaniladigan urf bo`lib, har bir so`zlovchi, avvalo, so`zini salomdan boshlaydi. Tarixga nazar soladigan bo`lsak, qadimda salomlashish usullari barcha xalqlarda hozirgiga nisbatan xilma-xil bo`lgan. Milliy xususiyatlar, jins, yosh, kasb-kor, madaniy saviyaning ham nutq jarayonida o`z o`rni bor. Masalan, "Sen" va "Siz" so`zlarining milliy muomala madaniyatida tutgan o`rni turlichadir. Jumladan, Shvetsiya, Polshada begonalar, xususan, katta yoshdagi kishilarni yoki boshliqlarni "Siz"lash odob doirasidan chetga chiqish hisoblanadi. Buning o`rniga uchinchi shaxs ishlatiladi. Masalan: "Doktor menga yordam bermoqchimi?", "Xonimni

kuzatib qo`yish mumkinmi?”. Italiyada esa “Siz” o`rnida “Ular” ishlatiladi. Ya`ni “ular yozayapdi” deyilsa, “Siz yozayapsiz” ma`nosida qabul qilinadi. Ingliz tilida esa hozir “Sen” so`zi nutqda deyarli ishlatilmaydi. Bu so`z XVII asrdayoq o`z o`rnini to`liq “Siz”ga bo`shatib bergan. Hozirgi kunda inglizlar hatto itlarini ham “Siz” deb chaqiradilar. Rus xalqi og`zaki nutqida “Siz”ga nisbatan “Sen” ko`proq ishlatiladi va bu ular uchun me`yor, hatto tabiiy hol sanaladi. Shuning uchun bu millat vakillari eng yaqin kishilariga, hatto ota-onasiga ham “Sen” deb murojaat etadilar. “Siz” esa ko`pincha uzoqlik, begonalik belgisi sifatida qabul qilinadi. Qadimda salomlashish paytida nafaqat qarindoshlik aloqalari, yoshi va jinsi, balki kunning qaysi vaqti, suhbatdoshning kasbi va suhbat paytida so`zlashayotganlar nima bilan mashg`ul ekanligi ham inobatga olingan. Jumladan, hosilni o`rib olayotganlarga: “Ikkitasi o`rilgan va uchinchisi ekilgan maydonlaring bilan”, g`alla yanchuvchilarga esa: “Kuniga yuzlab, haftasiga minglab”, ariqdan suv olayotgan qizga: “Tozalik senga”, mehmonlarga esa: “Non va tuz”, “Choy va shakar bilan”, yoki “Borimiz sizniki”, sigir sog`ayotgan ayolga “Sigiringiz suti daryodek bo`lsin”, baliq ovlovchilarga, “Baliq ovingiz omadli bo`lsin” deyilgan.

Afsuski, o`zbek tilida bu hali to`liq o`rganilmagan. Ammo o`z tariximizga nazar soladigan bo`lsak, o`zbek tili ham o`tmishda naqadar boy, salomlashish usullari esa qanchalik xilma-xil va katta e`tiborga molik ekanligini ko`rish mumkin. Masalan, ajdodlarimiz mehmonni “Xush kelibsiz, qadamlariga hasanot, kuningiz xayrli bo`lsin” deb, orziqib kutilgan mehmon bilan salomlashganda, ko`rishganda “Ko`zingiz quyoshdek oydin bo`lsin”, shoh va amaldorlar bilan ko`rishganda “Huzuringizga ta`zim bajo aylab keldik; martabangiz yanada ulug` bo`lsin” kabi iboralarni qo`llaganlar.

Tabiiyki, salomlashmoq va ko`rishmoq adresant va adresatlar o`rtasida “Assalomu alaykum”, “Vaalaykum assalom” tarzida bo`lib o`tadigan shunchaki dialogik jarayongina bo`lib qolmay, balki asrlar mobaynida tarkib topgan kishilarning o`zaro aloqalaridagi tamoyillarini, axloqiy qiyoslaridagi me`yorlarni ifodalaydigan murakkab psixologik jarayon bo`lib, u muloqotning birinchi va eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Salom berib hol-ahvol so`rash har bir kishining madaniyatliligi, xulq-atvori, insoniyligi, odamshavanda ekanligining dastlabki belgisi hisoblanadi.

Tarixning guvohlik berishicha, arablar islomgacha bo`lgan davrda nihoyatda o`jar, urushqoq xalq bo`lgan. Bir qabila ikkinchi qabila bilan bitta erkak qolmaguncha urushib, bir-birini qirg`in qilgan paytlari ham bo`lgan. Shu boisdan bo`lsa kerakki, arablarda ham tinchlik, osoyishtalik, salomatlik doimo birinchi o`rinda turgan va keyinchalik ular “Assalomu alaykum” so`zini qabul qilib, bir-birlarini ko`rganda “Sizga salomatlik, tinchlik tilayman” ma`nolarini anglatadigan mana shu jumla orqali muloqotga kirishgan Islom diniga e`tiqod qiladigan o`zbeklar ham xuddi shu tarzda salomlashadilar.

“Ko`rishish” degan so`zning ma`nosi ko`z-ko`zga tushishi, bir-biriga qarab samimiy qo`l siqishni anglatadi.

O`zbeklarda erkak va ayollarning salomlashish va ko`rishishlarida ma`lum tafovutlar bo`lib, shular qatorida jinsiy farqlanishlar ham mavjuddir.

- Suyunchi bering, bek buvi, kelinoyim keldilar! O`zbekoyim cho`nchagiga qo`lini solib, 5-10 pul olib berdi. Bola orqasidan Hasanali ko`rindi:

- Qani oyi, ko`rmanani beringchi, men sizning qochqoq kelinigizni tutib keldim! – dedi va yo`lakga qarab: - To`xtang, to`xtang, ilgari men suyunchini undirib olay….xotinlar bilan ko`rishib chetda turgan Oftoboyim qudasi yoniga keldi.

O`zbekoyim kulimsirab yo`lak tomonga:

- Hoy, poshsho kelin! dedi, - bizlar kutib qoldik-a, uyalmang bolam! Hasanalining ko`rmanasi bo`lsa tayyor! Hasanali yo`lakga qarab imladi. Qip-qizargan holda Kumush ko`rindi: paranjisi qo`lida, qora atlas ko`ynak egnida, zangor lattamursak ustida, oq shoyi ro`mol boshida edi. Shahlo ko`zlari kulimsirashga yaqin holda uyatlik edilar.

Hasanali tanitdi:

- Mana bu kishi qayinonangiz - begoyim bo`ladilar. Kumush salom berdi va qo`lidagi paranjisini yerga tashladi, yugurib kelib, o`zini O`zbekoyimning quchog`iga oldi. O`zbekoyim ham uni mahkam siqib quchoqlab olgan, yuzidan shap-shap o`pib, aylanib-o`rgilar va tikilib-tikilib nima uchundir yig`lar edi…

- Zaynab opam!- dedi Kumush. Zaynab ham kulimsiragan holda Kumushga yaqinlashib keldi… "Ikki kundosh esonmisiz, omonmisiz, eson-omon yuribsizmi" so`zlari bilan ozorsiz qilib bir-birining yelkasiga va qo`ltiq ostiga qo`l yubordilar….

- Qani, bek otasi, ko`rmanani bering-chi!- dedi o`zbek oyim Kumushni imlab.

Kumush uyalib zo`rg`agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib bo`yin egdi. Hoji qo`li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayiga teqqazib olgan qo`lini o`pdi.

- Bizning Marg`ulonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurgan ekanmizda, tevaragiga qarab kulindi va qo`lini duoga ochdi. – Bizni shunchalik siylab kelibsizlar, bu yaxshiliklaringiz bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin. Olloh taolo yoshlarga tinch va barokotlik umr bersin.

(A. Qodiriy).

Ayollarning erkaklar bilan turli qisqargan shakllar orqali salomlashish holatini hozir ham ko`plab kuzatish mumkin. Jumladan, shahar joylarda yosh yoki o`rta yoshdagi erkak adresantlar o`zlari bilan teng yoki kichik notanish ayol adresatlarga "Assalomu alaykum", - deya murojaat qiladilar, ular "Va alaykum assalom" deyish o`rniga – "alaykum assalom… alaykum" yoki "yaxshimisiz" deyishlari mumkin.

Ta`ziyaning ertasi va undan keyingi kunlarida yaqin kishisidan ayrilgan xonadon egalariga hamdardlik bildirib, fotiha o`qigani borilgan paytda erkak va ayollarning salomlashish va ko`rishishlarida, ayniqsa, katta farq seziladi. Ya`ni, ayollar hovli ichkarisida bir birlari bilan ovoz chiqarib yig`lab ko`rishsalar, erkaklar fotihaga keluvchilarni darvoza va eshik oldida keluvchilar yoshi va miqdoridan qat'i nazar, o`rinlaridan turib qo`li qovushtirib "keling", "kelinglar"

deb odob bilan kutib oladilar. Fotiha o`qib ketayotganlarida ham shu tarzda kuzatib “Rahmat”, “Xush ko`rdik” deya qisqa-qisqa minnatdorchilik izhor etadilar.

Qo`lni ko`krakka qo`yib salomlashish - salomlashishning eng ma`qul shakllaridan biri bo’lib, erkaklar o`rtasida keng tarqalgan. Odam o`ziga yaqin, sevgan, hurmat qilgan, mehribon, qadrdon bo`lgan, do`st kishisini uchratganda yuragi “jig`” etib ketadi. O`ng qo`lini chap ko`krakka, ya`ni yuragi ustiga qo`yib salomlashish ana shundan kelib chiqqan ekan. Eng muhimi noverbal holat, astoydil (az tagi dil) ya`ni chin yurakdan, qalbning tagidan degan ma`noni anglatadi.

Salomlashishning bu shakli asosan quyidagilardan iborat:

1. Ko`cha-kuyda tanish-bilishni uchratganda.
2. Hurmatli odamni ko`rganda.
3. Tanish bo`lmasa ham keksa odam yonidan o`tib ketayotganda.
4. Ko`pchilik o`tirgan izdahomga kirganda.
5. Qo`l berib ko`rishish mumkin bo`lmagan hollarda ana shu ta`zim bajo keltiriladi.

Xullas, boshqa xalqlardagi kabi o`zbeklarda ham ko`rishishning, salomlashishning turlari nihoyatda xilma-xildir: qarindosh-urug`lar ichidagi erkak va ayollar ko`rishishi, erkaklarning yosh qizchalarning yelkasiga urib-urib erkalashi, qaynota-kelinning salomlashishi, ko`rishishi erkaklarning bir-birlari bilan quchoqlashib ko`rishishlari, erkaklarning o`pishib ko`rishishlari, o`zbeklar uchun urf bo`lmagan, yangi kelinnning kelinlik libosida mehmonlarga salom berishi, bosh kiyimini yechib salomlashishi, transportda signal berib qo`l ko`tarib salomlashish va hokazo.

Psixolog Richard Bereduistonning ta’kidlashicha, er-xotin o`rtasidagi gap qanchalik ko`p cho`zilsa, ularning ajralib ketishi shuncha yaqin bo`lar ekan. Uning hisobi bo`yicha oddiy oiladagi er va xotin bir kecha-kunduzda o`rtacha 27 minut gaplashar ekan. 117 minutga cho`zilgan suhbat esa ayanchli hisoblanadi. Har kungi suhbatlar qancha uzoq davom etsa, oila shuncha tez barbod bo`lar ekan.

Kishilar bilan muloqot chog`ida so`zlovchi o`zining va suhbatdoshining yoshini hisobga olishi, ayniqsa, muhim. Chunki kattalarning o`z suhbat mavzusi bo`lgani kabi bolalarning ham to`lib-toshib gapiradigan mavzulari bo`ladi. Shuning uchun ko`pni ko`rgan kishilar bolalar bilan bola bo`lib, keksalar bilan keksa bo`lib suhbat qurishga harakat qiladilar. E`tibor bergan bo`lsangiz, odamlar o`z yoshiga nomunosib so`z aytgan kishilardan: Kap-katta odam shu gapni gapirib o`tiribdi-ya” deb xafa bo`lishadi va bunday kishilarga “bachkana bo`lmang” deya tanbeh berishadi. Bachkana so`zi tojikcha “bachagona” so`zining qisqargan ko`rinishi bo`lib, “bolalarga xos”, “bolalarga o’xshb” degan ma`noni anglatadi. O`z navbatida bolalarda ham kattalarga xos usulda gapirmaslik talab etiladi.

So`zlayotganda ovozning shirali va yoqimli bo`lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu to`g`rida hazrat Navoiy shunday deydi: “Ul adabdurki, yaxshi va yomong`a va ulug` va kichikka bajo keltirurlar. Andoqki, barcha haloyiqdan o`zlarin kichik va kamroq tutarlar va barchag`a xizmat huzurida bo`lurlar. Hattoki o`z farzandlariga xodim va mamluklarig`a, har necha alardan beqodlig` ko`rsalar, xusumat bila alarga so`z demaslar, balki nasihatni yushoq va chuchuk til bilan qilurlar”.

O`tmish donishmandlarimizdan biri Zayniddin Vosifiyning “Badoyi ul vaqoe” asarida qiziq bir hikoyat keltiriladi. Unda aytilishicha, Navoiy zamonida bo`lib o`tgan bir galgi mushoirada davra ishtirokchilaridan biri she`rni chunonan dabdabali ohangda o`qibdiki, uning bu qilmishi ko`pchilikka ma`qul tushmabdi. Shunda mashhur donishmandlardan biri u kishiga:

- Mavlono, siz she`r o`qiydirsizmi yoki odam qo`rqitadirsizmi? – deya tanbeh bergan ekan.

Shunga o`xshash yana bir holat. O`quvchilarni zir qahshatib, o`zlashtirish bo`yicha yuqori ko`rsatgichga erishadigan o`qituvchilarimiz bor. Bundaylarni maktab rahbarlari maqtaydilar. Hatto namuna deb ko`rsatishadi. Chunki ular dars beradigan sinfda davomat hamisha yaxshi, o`quvchilar hamma narsani tashlab bo`lsa-da, shu o`qituvchining topshiriqlarini bajaradi. Nafsilanbirini aytganda, o`qituvchining o`zi ham fanni yaxshi biladi. Ammo bolalar unga ro`baro` kelganda, har gal bir qalqib tushadilar. U kirsa, sinfga ilon kirganday bo`ladi. Har bir o`quvchi yurak hovuchlab kichrayib o`tiradi. Chunki bu kimsa xohlagan paytda o`quvchining boshida haqorat toshini sindiraveradi. Javobda sal adashdingmi, yo yonboshingga sal qarab qo`ydingmi (dars tayyorlamasang-ku – tugadim deyaver), tamom! Hayo, andisha tokchaga chiqadi. Senga aytilayotgan malomat toshlaridan tomiringga o`t ketadi, yer yorilsa, kirib ketsam, deysan. Muallim esa sinfdan mag`rur va masrur chiqadi. Bolalarning uni ko`rganda zir titrashlari, sarosimaga tushishlaridan zavq oladi. “Mana qattiq turuvdim, bolalar darsni to`tiday yod olayaptilar”, deb ko`kragiga uradi. Aslida esa murg`ak insonning ruhiyatiga dar solayotgani, asablarini qahshatayotgani uchun bu o`qituvchini jazolash kerak! Chunki kelajakka hurkak musichalar emas, irodasi mustahkam, asablari sog`lom kishilar kerak.

(T.Sodiqova. “Mehr qolur”)

So`zlovchi shuni nazarda tutishi lozimki, odam bir turdagi axborotni 10-15 daqiqadan ortiq qabul qila olmaydi, axborot ham, sarflangan kuch-mehnat ham zoya ketadi. Shuning uchun ma`ruzachi har 10-15 daqiqada tinglovchilarga dam berishi lozim. So`zlovchi tinglovchilarga gapirayotganligini hech qachon esidan chiqarmasligi zarur. Uning nutqi tinglovchi saviyasiga mos kelishi shart. U tinglovchilarni diqqat bilan kizatishi, agar tinglovchilar tinglamayotgan bo`lsa gapni to`xtatishi shart. Tinglovchini zeriktirish, u tushunmaydigan shakllarda gapirish, muloqot xulqida yomon odat. Nizomiy Ganjaviy: “Eng dahshatli haqorat “Ko`p gapirma”ni eshitmakdir”, - deb yozadi.

Suhbatdoshlar saviyasini, qiziqishlarini bilish so`zlovchining muloqotda yutug`i garovidir. So`zlovchining madaniylik darajasi o`z nutqini tinglovchilarga moslay olishida, natijada turli saviyadagi kishilar uni maroq va huzur bilan tinglashlarida namoyon bo`ladi. “Dono”likni ko`rsatib, avom orasida “ilmiy gapirish”ga intilish so`zlovchi obro`siga putur yetkazadi. Shuning uchun so`zlovchining saviyasi uni tinglovchi tushuna olishida va uni diqqat bilan kuzata olishida bilinadi. Yuqorida ta`kidlanganidek, so`zlash ulkan mas’uliyat bo`lsa, tinglash ham katta san`atdir. Davrada, anjumanda so`zlashga fursat yoki navbat yetmasa sukut saqlab tinglamoqlik ham katta davlatdir. Darvoqe, suhbatdoshni tinglay bilish, muhim gapni nomuhimdan ayirib o`zlashtira olish ham zarurdir.

Buning uchun sabr-toqat, fahm-farosat kerak. Hamma gapni xotiraga joylab olish shart emas, lekin eng muhim gapni uqib, doimiy hamroh halqadek quloqqa “taqib” olish muhimdir. Haqiqatdan ham tinglash orqali kishining fikri, so`z boyligi ortib nutqi ravonlashadi, yaxshi suhbatdoshga aylanadi. Shuning uchun ham Deyl Karnegi: “Agar siz yaxshi suhbatdosh bo`lishga intilsangiz, avvalo, yaxshi tinglovchi bo`lib oling. Shunday savollar beringki, gaplashayotgan kishingiz bajonidil javob qaytarsin… Esingizda bo`lsin: suhbatdoshingizni siz va sizning ishlaringizdan ko`ra o`zi to`g`risidagi fikr, o`z xohish va muammolari ko`proq qiziqtiradi.”

Shu bois xalqimiz: “So`zlaganga boqma, so`zlatganga boq” – deb bejiz aytmagan.

Tinglashning qanday ahamiyatga ega ekanligi to`g`risida o`z zamonasining mashhur kishilari juda qimmatli fikrlar bildirgani bunga misol bo`la oladi:

“Ko`p odamlar yaxshi gaplarni so`ylashi mumkin, biroq kamdan-kam odam tinglay biladi, chunki tinglash aql ishlatishni talab qiladi” .

(R.Tagor)

“Tinglashni o’rgan, ana shunda sen hatto yomon gapiradiganlardan ham naf olishing mumkin”.

(Plutarx)

“Odam qanchalik kamgap bo`lsa, shuncha yutadi: kishilar uning aqlli ekani haqida o`ylay boshlaydilar, buning ustiga, asli o`sha odam aqlli bo`lsa, hamma uning nihoyatda zukko odamligiga ishonch hosil qiladi”.

(J.Labyuyer)

“Sukut saqlashni bilmaydigan odam boplab gapira olmaydi ham”.

(Seneka).

“Tokim birorta so`z deguncha inson,
Aybi-la hunari barchadan pinhon”

(Sa`diy)

“Tinglashda birinchi, gapirishda esa oxirgi bo`l”.

(E. Kapiev)

“Tinglash san`ati gapirish san`ati bilan teppa-tengdir”.

(P.Buost)

“Nodon uchun sukun saqlashdan yaxshisi yo`q; biroq u o`zi uchun nima yaxshiligini bilganda nodon bo`lmas edi”.

(Sa`diy)

Ota-bobolarimiz qadimdan suhbatdoshlari, ayniqsa, o`zidan katta yoshdagi kishilar so`zni oxirigacha odob saqlab tinglashni o`zlariga odat qilganlar.

Tinglaganda ham u yoq-bu yoqqa alanglab yoki hardam hayollik bilan emas, alohida e`tibor bilan tinglaganlar. Kattalar tomonidan berilgan dashnom, tanbehni sukut saqlab eshitganlar.

Yaxshi tinglovchi bo`lish orqali inson o`ziga aloqador bo`lmagan so`zdan ham naf olishi mumkin. Zero, “Aqlni beaqldan o`rgan” deb bejiz aytmaganlar.

Shu o`rinda qanday gaplar tinglashga arziydi-yu, qanday gaplar tinglashga noloyiq ekanligini bilib qo`yish ham foydadan xoli emas. Zero, Nosir Xisrav Dehlaviy yozadi:

Qarashga noravo narsaga ko`r bo`l,
Tinglashga noloyiq gap-so`zga kar bo`l.
(Tinglab bo`lmaydigan gaplarning avvalida
Haqqa-Yaratganga shak keltirib aytiladigan kufrona va g`iybat gaplar turadi).

Mabodo shunday gaplar quloqqa chalinib qolguday bo`lsa, g`iybatchini inkor qilib mavzuni boshqa yoqqa burish bilangina g`iybatchininbg sherigi bo`lib qolishdek gunohdan qutilib qolish mumkin ekan.

Tinglovchi sifatida farzandlarning ota-onalari oldidagi burchlari alohida o`rin egallaydi:

1. Ularga doimo muloyim muomalada bo`lish.
2. Ularga baland ovoz bilan gapirmaslik.
3. Ularga ko`p gapirmaslik va qo`pollik qilmaslik.
4. Ularning otini aytib chaqirmaslik.
5. Ular gapirayotganlarida so`zlarini bo`lmaslik.
6. Ularning aytganlarini rad qilmaslik.
7. Ular ish buyurganda rad qilmaslik.
8. Ular qattiq gapirganda jim turish.
9. Ularning gaplariga oh-uf deb munosabat bildirmaslik.
10. Ularning suhbat paytidagi gaplari xato bo`lsa ham, to`g`ri bo`lsa ham e`tiroz bildirmaslik va h.

Buni Otabekning ota-onasi bilan bo`lgan quyidagi suhbatidan ham bilish mumkin.

- O`g`lim, hali san eshitdingmi, yo`qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo`ydik…

Otabek ma`lumki, ularning "qilib qo`ygan yoki qilmoqchi bo`lgan ishlarini" albatta bilar edi. Shundoq bo`lsa ham bilmaganga soldi:

- Aqilli kishilarning o`g`illari ustidan qilgan ishlari albatta nomaqul bo`lmas, - dedi.

Hoji o`g`lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb javob qilishni bilmadi. Istehzo aralash xotiniga qarab oldi. Yana oraga jimjitlik kirdi. Bu so`zsizlik ma`nosiga O`zbek oyim tushuna olmagan edi. Bir oz qarab o`tirgach, yuragi qaynab ketgandek bo`ldi:

- Biz saning uchun Olim ponsod boshining qiziga unashib qo`ydik… endi san bilan to`y maslahatini qilmoqchi edik.

Otabek onasiga bir og`iz so`z demay, otasiga ma`nolik qarab oldi. Hoji uyatliksimon "shundoq" deb qo`ydi.

(A.Qodiriy, O'tkan kunlar)

Yuqoridagi matnni izohlashga hojat yo`q.

Umuman olganda, tinglovchining saviyasi va uning kimligi juda ko`p holatlarda nutq shakli va uslubini belgilaydi. Ayni bir axborotni turli xil tinglovchilarga turlicha yetkazish mumkin.

Muloqotning mazmundorligi, uning, albatta, so`zlovchi va u tanlagan mavzuga bog`liq. Lekin suhbat jarayonida so`zlovchi va tinglovchi tez-tez o`rin

almashtiradilar. So`zlovchi tinglovchini so`zlatadi. Bu muloqot jarayonida eng qulay usuldir.

Muloqot jarayonida tinglovchining madaniyati, fikriy tiniqligi, saviyasini belgilaydigan omillardan biri so`zlovchiga beriladigan savollardir. Savol qisqa shaklda bo`lsa izohga hojat yo`q. Savolning tabiati tinglovchi saviyasini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, tinglash ham so`zlashdan kam baholanmaydigan mehnat bo`lib, uning qonun-qoidalariga amal qilinsa, yaxshi suhbatdosh bo`lishning birinchi va eng muhim sharti hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Nima uchun so`zlash dunyoda eng og`ir ishdir.
2. So`zlovchi nimalarga e`tibor qaratishi lozim?
3. Ko`p gapirish donolik belgisimi?
4. So`zlovchi saviyasini belgilovchi omillarga nimalar kiradi?
5. Tinglovchining saviyasi so`zlovchiga aloqadormi?
6. Tinglovchi kim?
7. Kitob ham tinglovchi bo`la oladimi?
8. So`zlovchi tinglovchining qaysi jihatlarini inobatga olishi kerak?
9. Tinglash ham san`atmi?
10. Tinglovchi madaniyati nimada?
11. Kimni madaniyatli kishi desa bo`ladi?
12. Salomlashish to`g`risida qanday fikrdasiz?
13. “SEN”va “SIZ”ning salomlashishda o`rni?
14. Muomala madaniyatida salomlashishning o`rni.
15. Salomlashishning turlari.
16. Muloqotda kim markaziy o`rinni egallaydi?
17. Tinglovchi sifatida farzandning ota-onasi oldidagi burchi.

Muloqot jarayonida paralingvistik va ekstralingvistik vositalar.

1. Nutqda paralingvistik vositalar.
2. Nutqda ekstralingvistik vositalar.
3. Muloqotda paralingvistik va ekstralingvistik vositalarning o`rni.
4. Nutqda me'yor.
5. Noverbal vositalarning xoslanishi.

Tayanch so`z va iboralar: *kontekst, nutq jarayoni, lisoniy vositalar, nutq maqsadi, paralingvistik vositalarda me'yor, motiv, nutq sharoiti, nutq maqsadi, lisoniy birlik, xatti-harakat.*

Ekstralingvistik vositalar deganda, bevosita lisoniy birliklarga aloqador bo`lmagan barcha vositalar tushuniladi. Jumladan, matn, nutq sharoiti, tinglovchi va so`zlovchi saviyasi, nutq jarayonida ularning xatti-harakatlari, qolaversa, nutq maqsadi - barchasi ekstralingvistik, lisoniy birliklardan tashqari vositalardir.

O`z yonida g’umay yulayotgan Adolatning qo`li qiyilib qonaganini ko`rgan Begimxon xo-xolab kulib yubordi… U-u harakat qildim, tirnadim bo`lmadi, -dedi Xoji xola… Azimjonning ko`kragini mina parchasi yulib ketgandi… Yulg’ich yulib to`ymaydi (Maqol). Nontepkilik qilma! Shu soqolim bilan yolg’on gapiramanmi? Yulsam senday gadodan yulamanmi?.. -Umumiy majlisda ariza yoz. Arizangda bog’ni, uchastkani, mashinani, hokazoni - eldan yulgan narsalaringni qaytarganingni ayt, -dedi chol bobo raisga… Agar sizlar mana shu yo`l bilan butun bir mavsumda o`n mehnat kunini pilladan yulib paxtaga bergani yordam qilsalaring ham harna (O`TIL 467-b.).

Yuqoridagilarda **yulmoq** so`zining ma'nosi matnda va nutqda turli ma'nolarda berilganini ko`rish mumkin: 1. Tortib, sug’urib olmoq; 2. Tirnamoq, jarohatlanmoq; 3. O`g’irlamoq; 4. Chegirib qolmoq.

Bularda lisoniy birlik va lisoniy birliklardan tashqarida o`z ifodasini topgan.

-Bir soatda yetib kellaring, osh damlab qo`yaman, yeb ketasanlar, - dedi.

Borsak, chindan ham osh damlangan ekan.

-Behi ham soldim,- dedi ustoz maqtanib, yesang og’zingda erib ketadi! Jonivor o`ziyam boshini yeb meva soldi-da, bu yil!...

*- To`g’ri-ku, -dedim "ma’yus tortib", - uydagilar sizning bog’ hovlingizda o`tirganimga ishonadi. Osh bo`layotganigayam ishonadi. Ammo ustoz oshga behi solibdilar, dachadagi behi "boshini yeb" meva qipti desam baribir ishonmaydi-da!* (O`.Hoshimov. 268-269-betlar)

Paralingvistika grekcha so`zdan olingan bo`lib "para"-yonida, lingvistika-tilshunoslik demakdir. Paralingvistika fanda ikki xil ma'noda ifodalanadi.

1. Lisoniy (verbal) vositalar bilan hamrohlikda ishlatiluvchi nolisoniy (noverbal) vositalarni o`rganuvchi tilshunoslikning bir bo`limi.

2. Nutqda, o`zaro muloqot jarayonida ishlatiluvchi nolisoniy vositalar umumlashmasi.

Paralingvistik vositalar ekstralingvistik hodisalarning bir turi bo`lib, nutq jarayonida lisoniy birliklarga hamroh bo`ladigan xatti-harakatlar hisoblanadi. Masalan: *Mehmon o`tirgan xonaga madaniyatli kishining kirib, salom berish holatini kuzatadigan bo`lsak, eshikdan qaddini sal eggan, qadamlarini mayda tashlagan holda, o`ng qo`lini chap ko`kragi ustiga qo`yib, boshini sal egib, yengilgina ta'zim bilan "Assalomu alaykum" deydi.* Bu yerda tasvirlangan har bir holat muloqot uchun ahamiyatli, qo`lni qorin ustiga qo`yish, baland ko`tarish yoki chap ko`krak usti va o`ng ko`krak usti (osti) yoki ikki qo`lini ko`ksiga qo`yishning har biri muloqot jarayoni bilan bog`liq. Ularning barchasida, albatta, "Assalomu alaykum!" uning o`ziga xos talaffuz ohangi lisoniy, lingvistik vosita, qolgan barcha xatti-harakatlar, tana, qo`l harakatlari paralingvistik vositalardir.

Masalan: - Salomalaykum, xola. - A-lekum, bolam! - Opa qo`lini yengi ichiga tortib, yigit bilan ko`rishdi va uyga qarab: - Rasul – deb qo`ydi-da, Eshquvvatdan gina qildi (SH.Xolmirzayev).

- Assalomu alaykum, xonim, - dedi odob bilan. - Ziyoratlar qabul! Yaxshi keldingizmi? (O`. Hoshimov).

- Assalomu alaykum, domla! - dedi Tursunboy yangicha shiddat bilan o`zini g’oz tutib. - Nima yana burga tepdimi?! (O`.Hoshimov).

Imo-ishora, mimika, badan harakatlari, ovozdagi turli holatlar kommunikatsiyada ishtirok etuvchi qo`shimcha vositalar sanaladi va ular uzatish, mazmunan to`ldirish, aniqlik kiritish vazifalarni bajaradi. Kishi jonli so`zlashuv nutqida ma'lumotni qisqa va lo`nda ifodalashga, fikrning emotsionalligi va ta'sirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo`lgan noverbal vositalardan foydalanadi. O`zbekona aloqa – aralashuvda, ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida qo`l, bosh, yelka, gavda, yuz harakatlari, ovozning baland-pastligi, cho`ziq, to`xtatib talaffuz qilish orqali ham ma'lum ma'no ifoda etiladi.

Masalan: - *Shu… erkak zoti qiziq-da, - dedi ijirg'anibroq. - Ayni ishing ko`p paytida mushukka o`xshab oyog'ingga suykaladi!... U jahl bilan yuzini o`girdi… - Nima, meni "lox" deb o`ylayapsizmi? - Mo`mintoy piqqillab yig'lab yubordi…. - Otangizning ko`zi uchib turibdi! – Malikaxon qo`l siltadi… Mo`mintoy mung'ayib qoldi… - Mengayam oson tutmang, begim, - dedi qandaydir siniq oqangda… O`zimning Mo`minchigim! – dedi erkalab. - Men sizni hech kimga alishmayman jonim! Er-xotin… kechirasiz xotin-er endi bir buroviga quchoq ochishgan edi, bolalar xonasidan Umidjonning g'ingshigani eshitildi. Zum o`tmay baralla ovozda yig'lab yubordi. - Adajo-o-o-n, garsho-o-o-k! Mo`mintoy zippillab jo`nab qoldi.*

(O`.Hoshimov)

- *So`raganning aybi yo`q, hoji aka. Maboda o`zlariyam …*

- *Yo, yo! - hoji aka keskin bosh chayqadi. Biz ham nush aylaganmiz… aylaganmiz.*

- *Ko`p emas, jijjagina, - dedi kosagul iljayib… Og'zingga qarab gapir, u bratan! - dedi qo`lini paxsa qilib. - Men suvni ichdim bildingmi? Makruh tagida qoldi, bilmadingmi?! Avval o`rganib olgin-da, keyin vistupas qil, bildingmi?! - dedi baqrayib.*

(O`.Hoshimov).

Shuni ta'kidlash joizki, noverbal vositalarni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari turlichadir. Ular qo`l, yelka, lab, ko`z, qosh, gavda, bosh harakatlari orqali ifodalanadi.

So`zlovchi ham, tinglovchi ham o`z nutqini va tinglash jarayonini paralingvistik vositalar-turli xil harakatlar, imo-ishoralar bilan birga olib boradi. Hatto kitob o`qiyotganda ham tinglovchi, ya'ni kitobxon goh qoshlarini chimiradi, goh jilmayib qo`yadi, gohida yuzida ajablanganlik belgilari sezilib turadi, gohi yig'laydi. Bularning barchasi paralingvistik vositalaridir.

Masalan, *Qumrixon opa o`rnidan kalovlanib turib ketdi. Xuddi shoh huzuriga kirib qolgan kanizakday qo`llarini ko`ksiga qo`yib:*

- *Rahmat, bolam, rahmat, - dedi va qo`llari birdan qaltiradi, ko`zlari yiltiradi. - Bolam!*

- *U titrab-qaqshab rejissorning yelkasini siladi. Rejissor engashdi. Opa uning peshonasidan o`pdi.*

(SH.Xolmirzayev).

Noverbal vositalarni qo`llashning turlari xilma-xildir. Masalan, Yevropa ayollari qishda erkaklar bilan qo`lqoplarini yechmasdan, bosh kiyimlarini olmasdan so`rashishadi. Erkaklar esa, albatta, qo`lqoplarini yechib, bosh kiyimlarini olib so`rashadilar. Qadimdan, ayniqsa, islom dini ta'sirida iffat va hayo ruhida tarbiya topgan musulmon ayollari qator noverbal xatti-harakatlari, jumladan, so`zlashayotgan paytda kommunikantlar, ayniqsa, nomahramlar yuziga boqib gapirmaslik va tinglamasliklari bilan alohida ajralib turadilar.

Masalan, - Yo`q, - deb yana kulimsiradi Kumush, - bir-ikki kundan beri siz aytadirgan…

- Nima men aytadirgan?

- Azur… deb qizarindi Kumush, - ko`nglim aynar edi, deb aytar edingiz-u… Oftob oyimning ham yuzida bir kulimsirash kurishdi.

- To`g'rimi?

- Bilmadim…- dedi, yerga qarab qizardi, - o`tgan kundan beri ko`nglim aynagandek bo`ladi… Ayniqsa, palov isidan ko`nglim ketadi… Achchiq narsalar yegim keladi…

- Muborak bo`lsin, - dedi Oftob oyim, kuldi. Kumush ijirg'anib o`zicha alla-narsa so`zlandi. Oftob oyim engashib Kumushning qulog'iga shivirlandi: bu sirni boshqa hech kimga bildirma, qaynonang ham yengil xotin, ayniqsa, kundoshing seza ko`rmasin. Kumush ma'qul ishorasini berdi;

Xoji o`z qo`li bilan sochlarini tuzatib Kumushning ko`kimtir tovlangan yuzini kurdi va manglayini bosdi…

- Oyim… oyim…!- dedi Xoji. Kumush ko`zini ochib besaronjom unga nazar tashladi va tanib… qo`zg'almoqchi bo`ldi…

- Qo`zg'almang, oyim qo`zg'almang! Kumushning ko`z yoshi chakkasidan oqib tushdi… Xoji ham o`zini to`xtatolmay, Kumushning yoshini artib, boshini siladi.

- Xudo shifo berar, bolam!

Kumush jomga qo`zg'aldi, Otabek kelib qo`ltiqladi, Xoji ham uning boshini tutdi… Bu gal qusuq qonqa aylangan edi, burnidan ham bir-necha tomchi qon oqdi… Qusib yotgach, ko`zi yarqillab ochilib ketdi va tevaragiga betoqat qarandi…

- Oyi… dada… - so`ngra, - begim, - deb ingrandi… Erining yuzini yuziga qo`yib, uyalgansimon ko`zini yumdi…

(A.Qodiriy).

Ushbu paytda Yusufbek Xoji, O`zbek oyim ham shu yerda edi. Sharm-hayoli, sharqona odob egasi bo`lgan Kumush kuchli zahar ta'siridan o`zini yo`qotayozgan, ichi o`t bo`lib yonayotgan paytda ham qaynota, qaynona huzurida erining yuzini - yuziga qo`ygani uchun "uyalgansimon" bo`lib ko`zini yumdi.

Boshqa millat vakillarida bo`lgani kabi o`zbek erkak va ayol kommunikantlari uchun xos bo`lmagan noverbal vositalar mavjuddir.

O`zbek erkak kommunikantlari uchun xos bo`lmagan noverbal xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qosh uchirib, chimirib gapirish;
- noz qilishni ifodalovchi ko`z suzish;

- sababsiz og’izni to`sib gapirish;
- hayronlik, bexabarlik, mensimaslik ma'nosida lab burish;
- achinish ma'nosida tilni tishlab, boshni qimirlatish;
- o`pishib (ayniqsa, erkaklar bilan) ko`rishish;
- jimjiloqni labga tekizib, uyalib yerga qarash;
- ko`rsatkich barmoqni iyakka qo`yib o`y surish, so`rashish;
- suhbat jarayonida o`ng yoki chap tomonga bir siltanib qayrilib boshni xiyol pastga egib suhbatdoshidan arazlash, salbiy munosabat bildirish;
- kommunikant bilan o`ta yaqin, 50-60 santimetrdan yaqin masofada turib so`zlashish;
- tez-tez mayda qadam bilan kelib ko`rishish;
- suhbat jarayonida ikki oyoqni bir tomonga juftlab bukib o`tirish.

O`zbek ayollari uchun ham kommunikantlarga xos bo`lmagan noverbal vositalar mavjud bo’lib, quyidagilarni ko`rsatish mumkin:
- kommunikantning yuziga bir boqib turib tinglash;
- qo`lni arra (paxsa) qilib gapirish;
- ikkala qo`lni ham belga qo`yib gapirish;
- qo`lni "chars" etkazib, urib, siltab mahkam qisib, tortib … so`rashish;
- ichkilik ichishga ishora ma'nosida tomoqqa chertish;
- bosh barmoqni orqaga qayirib "men" ma'nosida qo`lni ko`kragiga tomon ishora qilish;
- muhabbat izhori ma'nosida "do`st" deb ko`kragiga urish;
- suhbat davomida oyoqni chalkashtirib yoki chordona qurib o`tirish;
- katta-katta qadamlar tashlab peshvoz chiqish.

Juda qadimdan o`zini adresatdan yuqori tutishga harakat qilgan adresantlar undan balandroq yoki o`zlarini viqorli ko`rsatib gapirishi (masalan, mitinglarda notiqlar biron narsaning ustiga chiqib so`zlasa), aksincha, quyi tabaqadagilar pastroq pozitsiyani (holatni) egallashga harakat qilganlar. O`zlarini podsholardan har jihatdan quyi ekanligini ko`rsatish maqsadida egilib, hatto bir cho`kib salomlashganlar.

Bu sohada, ayniqsa, musulmon olamida ayollar o`zlarini erkaklar oldida mushtipar, ojiza qilib ko`rsatishga odatlanganlar. Din ham shunga da'vat etgan. Bu holatning namoz o`qishdagi holatda o`z aksini topganligini kuzatish mumkin, ya'ni nomoz o`qish jarayonidagi harakat va holatlardan qo`l, oyoq, gavdalari erkaklarnikiga nisbatan quyi holatda tutilishi ma'lum. Ya'ni erkaklar takbir paytida qo`llarini bosh barmoqlar quloq yumshog’iga yetgunga qadar ko`tarsalar, ayollar barmoq uchlarini yelkalariga baravar holatda ko’taradilar, ayollar barmoq uchlarini yelkalariga baravar holatda ko’taradilar, ruknda erkaklar tizza va tirsaklarini tik tutsalar, ayollar erkaklarga nisbatan ozroq egilib, tizzalarini bir oz bo`kib turadilar, sajda orasidagi o`tirishlarda erkaklar oyoqlar ustiga o`tirsalar, ayollar yerga utiradilar.

Olib borilgan tadqiqotlarning ko`rsatishicha erkaklar tomonidan eshittirilgan farmonlar ancha ta'sirchan hisoblanadi. Shunga qaramasdan, Angliyadagi avia-transport sistemalaridagi komputer tovushlari faqat ayol ovozi bilan berilar ekan. Buning sababi erkaklar tang holatlarda ayollar ovoziga tez reaksiya qilar emish.

Germaniya va Buyuk Britaniyaning bir guruh olimlari ayollar miyasidagi nutq markazining hajmi erkaklardagiga nisbatan kattaroq, tovush bosqichlari esa ularda kuchliroq va mayinroq ekanligini isbotlashdi. Olimlar ayollardagi bu sirning kalitini uzoq tarixiy o’tmishdan qidirmoq lozim deb hisoblashmoqdalar. Gap shundaki, o`sha qadim zamonlarda erkaklar ko`p vaqt uy-joylaridan olisda bo`lishgan, ayollar esa farzandlari qurshovida aksari yolg’iz qolishgan. Bu sharoitda ayollar uchun qattiq ovoz nihoyatda zarur edi: zamon o`zgardi, sharoit o`zgardi ammo ayol ovozi hamon o`z kuchini yo`qotgani yo`q. Shunga qaramasdan, bugungi kunda ham o`zbek oilalarida onalarnikiga ko`ra otalarning ovozi ko`proq ta'sir etishi kuzatilmoqda. Mustaqillik davriga kelib, bozor iqtisodiyotining ta'siri bo`lsa kerak, ba'zi hollarda ayolning ovozi balandroq, ta'sirchan ekanligi sezilmoqda. Masalan, - *Necha marta aytaman, Umid qiz bolalar bilan o`ynamasin, deb! Bu-o`g’il bo`lsa… - Malikaxon tahdid bilan Toshpo`latga qaradi. - Hoy, mo`ylov! Bolaga qarasang o`lasanmi? Uch yuz dollarni bekorga olayapsanmi, to`nka!*

- Uzr, bekam! - dedi Toshpo`lat yerga qarab. - Ikkinchi takrorlanmaydi!

- Agar shu bolaning bir joyi tirnalsa, mo`ylovingni uzib qo`lingga tutqazaman, tushundingmi? Toshpo`lat "xo`p bo`ladi, bekam, xo`p bo`ladi", deganicha orqasiga tisarilib, zinadan tushib ketdi. … Malikaxon baland keldi:

- Erkak kishiga balo bormi ayollarning ishiga aralashib, a? …Malikaxon qo`l siltadi. - Ikki xonali "xrushyovka"siga to`rtta tovuq kirsa, nafasi qaytib uchtasi o`lib qolar-u, naqdlab qo`yibdimi sizga?! Pensiyasi bir kun kechiksa pochtaxonaning eshigiga borib poylab o`tiradigan otangiz so`lag’mondek qilib boqsinmi, sizni?! Keng uyning kuyovchasi bo`lib o`tirganingizga shukr qilsangiz-chi, boyvachcha!

(O`.Hoshimov)

To`g’ri, onalarning ovozi ko`proq ta'sir etishiga boshqa sabablarning ham borligini unutmasligimiz lozim. Zero, hayot tajribalarining ko`rsatishicha, ovoz ohanglarining farqiga, ayniqsa, bolalar ko`proq yetadilar. Ular erta tongda "turaqoling, o`g’lim (qizim)” degan jumlaning buyruq, taklif, iltimos, yolvorish, yalinish yoki boshqa ohangda aytilishiga qarab munosabat bildiradilar.

Ko`ngilchan va muloyimligi bilan ajralib turadigan o`zbek ayollari ko`pincha yuqoridagi jumlalarni bolalarini uyqudan uyg’otish uchun uch-to`rt marta, ba'zan bundan ham ko`proq takrorlashga majbur bo`ladilar. Shunga ham farzandlarini o`rnidan qo`zg’ata olmagan onalar oila boshlig’iga murojaat qilishga majbur bo`ladilar. Chunki aksariyat o`zbek oilalarida otaning so`zi onanikidan ko`proq ta'sir etadi. Shu sababdan bo`lsa kerakki, aksariyat hollarda onalar "otangga aytaman", deb bolalarini qo`rqitadilar. O`zbek nutqida "otaning so`zi o`q" deb bejiz aytilmagan. Zero, onasining "turaqoling, o`g’lon" deb erkalashlariga quloq solmagan bolalar otalarining sharpalarini sezishi bilanoq o`rinlaridan turib ketadilar. Buni otaning qattiqqo`lligidan tashqari, ovozidagi o`ktamlik, qat'iylikning, keskirlikning natijasi deb bilmoq kerak.

Musulmonchilik udumiga ko`ra ayollar nomahramga yuzini ko`rsatish tugul hatto ovozlarini ham eshittirishlari mumkin bo`lmagan. Shu sababdan ayollar

namozni ham ancha mayin, muloyim, ingichka va past ovozda o’qisalar, erkaklar esa dag’alroq, baland, yug’on ovozda bemalol tortinmasdan gapiradilar.

Masalan, *Oxiri mening oilamni "elchi" qilib yuborishdi, shekilli, ayolim uch-to`rt qadam narida to`xtab, ehtiyotkorona domlaga emas, menga murojaat qildi:*

-Mehmonlar ketamiz deyishyapti adasi, nima qilaylik? Xuddi shu payt raqibi ot surib "shoh" - dedi. Ozod aka shaxt bilan boshini ko`tarib, menga chaqchaydi:

-Xotiningiz muncha ko`p gapiradi-a, boshqa xotin olsangiz bo`lmaydimi?!

(O`.Hoshimov).

Ba'zan, erkaklar orasida ingichka, muloyim ovozda gapiradigani yoki ayollarning qo`pol, yo`g’on ovozda gapiradiganlari ham uchrab turadi. Bunday kishilarning biri ayollarga, ikkinchisi esa, aksincha, erkaklarga o`xshatiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, musulmon olamida muqaddas kitob sanalmish "Qur'oni karim"da, Payg’ambarimiz hadisi -shariflariyu, jahonda mashhur allomalarning asarlarida ham ayollarning o`rni, onalarning qadr-qimmati nihoyatda yuksak baholangan.

Insonning doimiy ravishdagi mashg’uloti uning jismiga, ruhiyatiga, demakki, muloqot xulqiga ham, albatta, ta'sir etadi. Shuning uchun ham har bir kasb egasining o`z lug’at boyligi, o`ziga xos so`zlash uslubi bo`ladi.

Bundan tashqari, muloqot xulqi bevosita yosh bilan bog’liq jihatlari bilan ham xoslanadi. O`smirlarning gapirishi, tahsin aytishi, tanbeh berishi, uydirma to`qishi, gap ohanggi aql-hushini yig’ib olgan odamlarga yoqmaydi. Chunki ular baland ovozda, boz ustiga, bo`g’iq va noaniq ohangda, xuddi minoraning ichida turgan odamga o`xshab, bo`shliqqa qarab gapiradilar. Qolaversa, o`smirlarning aksariyat o`y-fikrlari o`zlarining hayotiy tajribalaridan kelib chiqmaydi, balki yon-atrofidagi o`y-fikrlari gap-so`zlarning, tahsinu-tanbehlarning aks-sadolari yoki nusxasi bo`ladi, xolos.

Ammo dalilga qaraganda his-tuyg’ularni ifodalamoqchi bo`lgan paytda asoslanmagan ming’ir-ming’ir tovushlar eshitiladi. Bu hol jiddiy asos yo`qligini yoki o`sha asosning nisbiyligini bildiradi. Aql-hushini yig’ib olgan odam esa qat'iy ohangda, chertib-chertib, bir maromda, tiniq talaffuzda gapiradi, tovushi esa aniq va ravshan bo`ladi. Masalan, - *E, attang, -dedi keyin yelkasini qimirlatib. – Kuchdan qopsiz-da, otam! -cholga tikildi u. -Biz sizga ishongan edik. Axir, kasal ekanini kunduz kuni payqagan ekansiz, shartta so`ymaysizmi? Unda buncha gap-so`z yo`q edi.*

-Kechasi o`lgan, kechasi! -dedi zootexnik. - O`zim jigarini yorib ko`rdim-ku. Sovigan ekan. Boboy uxlab qolgan!

Ostonaqul chol jim, gapirgan kishining og’ziga qarar, so`ng bosh irqab "to`g’ri" deganday bo`lar edi. Bo`lim boshlig’i o`rnidan turdi:

- *Ota, gap tamom. Ho`kizning pulini to`laysiz! - U atrofdagi kishilarga ham bir-bir qarab oldi. - Qasddan o`ldirgan hisoblanadi… Kelishdikmi, ota!*

(SH.Xolmirzayev)

Keksalik, qarilik chog’ida tovushda halimlik, yumshoq, ayrim hollarda esa dag’allik, nordonlik, kinoya paydo bo`ladi. Qanday bo`lishidan qat'i nazar, umuman, o`zbeklar tabiatida kamtarlik va kamsuqumlik, andisha va

mulohazakorlik, qolaversa, inson ko`nglini har narsadan ustun qo`yishlik mavjuddir.

Nutqda noverbal vositalarning qo`llanishi shaharlik ziyolilarga nisbatan qishloqda yashovchi kishilar nutqida o`z aksini yaqqolroq topadi. Bu, ayniqsa, qarg'ish, so`kish va olqishlarda namoyon bo`ladi. Masalan, *Farmonbibi. - Voy bo`ylaringga bo`ytumor! Voy o`zimning "striptiz" kelinimdan aylanay! Voy sosiska sendan aylaniblar ketsin! Hoy, Sotti!*

Bir vaqt o`zing ham kapchonniy kolbasaga boshqorong'i bo`luvding shekilli? Bugundan boshlab ikki oy "shpion"likdan otpuskaga chiqasan! Sening vazifang shu: har kuni uch marta "Gamburger" restoraniga borasan. O`zing tepasida turib, svejiy sosiskadan "xot-dog" pishirtirasan. O`zing obkelib Nigoraga yedirasan! Uqdingmi?

(O`.Hoshimov).

So`zlovchi tinglovchining holatini, nutq jarayoniga munosabatini uning ayrim xatti-harakatlaridan, yuzidan biladi. Adresantning jonli xatti-harakatlari, paralingvistik vositalari: ovoz tempi, qosh chimirishi, qo`l harakati, yuz ifodasi va hokazolar tinglovchi diqqatini o`ziga tortishi, adresantni zerikishdan saqlashga xizmat qiladi. Haqiqiy notiq eng yomon voqeani tasvirlashda ham tinglovchini yarim soat ichida jilmayishga majbur qilishi shart. Aks holda tinglovchi charchaydi. Nutq, muloqot o`z maqsadiga erishmaydi. Biroq paralingvistik vositalarning me'yordan ortiqchaligi ham zararli, chunki me'yordan ko`p xatti-harakatlar, imo-ishoralar tinglovchi diqqatini chalg'itadi, uni tinglovchiga emas, balki tomoshabinga aylantirib qo`yadi. Nutq o`z maqsadiga erishmaydi. Shuning uchun adresant (xususan, so`zlovchi, ya'ni ma'ruzachi) o`z nutqi mavzusi, uning tayanch tushunchalari, algoritm haqida o`ylaganda "ijro payti"dagi paralingvistik vositalarini ham o`ylab ko`rishi lozim. Suxandonlarning nutqida, san'atkorlarning nutqida … boshqa shu kabilarning chiqishlarida ovoz tempi, o`quv tezligi, qo`l yoki bosh harakatlari, tana holati kabi paralingvistik vositalar nutq mazmuni, maqsadi, tinglovchi saviyasi va holati bilan muvofiqlashtiriladi.

Shuning uchun paralingvistik vositalar nutqni jonlantiruvchi, uning samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida inobatga olinishi, o`rganilishi zarur. Tabiiyki, inson muloqot jarayonida o`zini qurshab turgan olam haqida axborot beribgina qolmay, balki predmetning tinglovchiga yoki o`zining xabar qilinayotgan predmetga bo`lgan munosabatini ifodalashga moyillik ham bildiradi.

Munosabat ifodalashning verbal, noverbal va aralash vositalari ham mavjuddir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Ekstralingvistik vositalar deganda nima tushuniladi?
2. Paralingvistik vositalar deganda nimani tushunasiz?
3. Ekstralingvistik va paralingvistika hodisasiga munosabatingiz?
4. Nutqda paralingvistika vositalarining me'yordan ko`p qo`llanishi maqsadga muvofiqmi?

5. Nutqda me'yor tushunchasini qanday tushunasiz?
6. Noverbal vositalarning xoslanishini izohlang?
7. So`z ma'nolari matnda qanday xususiyatlarga ega bo`ladi?
8. Lisoniy va nolisoniy vositalar deganda nimani tushunasiz?
9. Ayol va erkak nutqining o`ziga xos xususiyatlari nimada?
10. Salomlashish odobi to`qrisida nimalar deya olasiz?
11. O`zbek erkak kommunikantlari uchun xos bo`lmagan noverbal xususiyatlarga nimalar kiradi?
12. O`zbek xotin-qiz kommunikantlari uchun xos bo`lmagan noverbal xususiyatlarga nimalar kiradi?
13. Nima uchun musulmon olamida xotin-qizlar nutqi o`zgacha xususiyatga ega?
14. Keyingi davrlarda o`zbek xotin-qizlari nutqida qanday o`zgarishlar sodir bo`lmoqda?
15. Nima sababdan inson nutqi doimo jamiyatning diqqat markazida bo`lib kelgan?
16. Keksalar va yoshlar nutqida qanday farqlar mavjud?

Sotsiolingvistika va dialektologiya.

1. Nutqning mantiqiv xoslanishi.
2. Sotsiolekt va nutq.
3. Muloqotning insonlar tili, shevasi, urf-odati, rasm-rusumlar bilan bog`liqligi.
4. Mintaqaviy paralingvistik vositalar.
5. Paralingvistik vositalar ma`naviyatimizning muhim tarkibi sifatida.
6. Sotsiolingvistikaning dialektologiyaga munosabati.

**Tayanch so`z va iboralar:** *hududiy xoslanish, ijtimoiy guruh, Diaxronik aspekt, sheva, sinxron yondashuv, etiket, mintaqaviy me`yor, me`yorlarning ustuvorlashuvi, tabaqa, soha, jargon, argo, variant, invariant*.

Til va jamiyat o`rtasidagi uzviy bog`liqlik muammolarni o`rgasnish borasida sotsiolingvistik tahlillar uzoq yillardan buyon o`tkazib kelinayotgan bo`lsa-da, faqatgina XX asrning 20-yillaridan Yevropa va rus tilshunoslari tomonidan bu muammoga qiziqish jiddiy tus ola boshladi. Ayniqsa sotsiumning nutqini ijtimoiy lingvistika nuqtai nazaridan tasnif qilish, shahar va qishloq aholisi nutqiniung farqli parametrlari, hunarmandlar, ishchilar, jinoiy guruhlar nutqining o`ziga xos xususiyatlari bo`yicha qator ishlar yuzaga kela boshladi. Yirik sotsiolingvistlar jamiyat va til o`rtasidagi mutanosiblik, so`zlovchi va til orasidagi bog`liqliik muammolari ustida jiddiy izlanishlar olib bordilar. Ular tilning ichki struktural qonuniyatlaridan tashqari, so`zlovchining ana shu tildan qay tarzda foydalanishiga, tilning hududiy xoslanishi bilan birga sotsial jihatdan ham farqlanishga ega ekanligini e`tirof eta boshladilar.

Chunonchi, mashhur tilshunos olim V.M.Jirmunskiy jamiyatdagi mavjud tilning hududiy dialektlarga bo`linishidan tashqari o`z navbatida, sotsial dialektlarga ham bo’linishini ta`kidlab, shunday yozadi: “Har qanday tilda hududiy dialektologiya mavjud ekan, unda sotsial dialektologiya ham bo`lishi kerak” (Вопросы социальной лингвистики. Л. 1969. стр. 23). Ba`zi bir olimlar mahalliy dehqonlar nutqini “shartli til” deb ataydilar. U tilning mavjud shaklidan (shu qatorda adabiy tilning kitobiy shakli ham) tortib to tilning ma`lum ijtimoiy xoslanishiga ega bo`lgan konspirativ argo (shartli til) va mexanik shifrofkaga ega

yosh bolalar tiligacha o`z ichiga oladi. Umumlashtirib aytganda, tilning barcha ijtimoiy asos bilan chegaralangan xosila ko`rinishglarini sotsial dialekt tarkibiga kiritish mumkin.

Agar hududiy dialektlar bir turda so`zlashuvchi xalqning geografik jihatdan ajralib qolishidan yuzaga kelsa, sotsial dialektlar bir tilda so`zlashuvchilarniung jamiyatdagi ijtimoiy tabaqa va soha, mutaxassislik, yosh, jins jihatdan ajralib qolishdan paydo bo`ladi. Boduen de Kurtene ta`kidlaganidek, so`zlashuvchining geografik va sotsial jihatdan farqlanishi tilning gorizontal va vertikal bo`linishini hosil qiladi. (Бодуэн дэ Куртене И.А. Языкознание. Избранные труды по общему языкознанию. Б.II.М. 1963. с. 91). Boshqacha aytganda, hududiy jihatdan har xillik tilning gorizontal bo`linishini ijtimoiy jihatdan har xillik esa tilning vertikal bo`linishini ko`rsatadi. Shunday ekan, sotsial dialektni belgilashda so`zlashuvchi sotsiumning muayyan ijtimoiy yoki kasbiy guruh tarkibiga kirishi, bir korporatsiya a`zolari sifatida birlashishi, ijtimoiy tabaqasi, yoshi, jinsi, estetik, ma`daniy ko`rinishi e`tiborga olinishi lozim.

Ayrim olimlar sotsial dialektning ma`lum jamoa yoki ijtimoiy guruh a`zolari tomonidan foydalanuvchi tilning variantlari sifatida baholaydilar. Bu miuammoga sotsiolingvist V.D.Bondaletov asosli dalillar bilan aniqlik kiritadi. U sotsial dialekt kategoriyasiga kiruvchi tilning barcha ko`rinishlari aniq ijtimoiy asoslangan chegaraga egaligi va muloqot vositasi sifatida alohida ijtimoiy tabaqa, kasb-hunar va yosh jihatdan birlashuvchi jamoalar tomonidan amalga oshishini ta`kidlab quyidagi guruhlarga ajratadi.

1. Kasbning “xususiy” tili. (Aniqrog`i, kasbning leksik tizimi, masalan, ovchilar, kulollar, duradgorlar, kunchi-kosiblar, cho`ponlar, savdogarlar, shuningdek, boshqa hunar va mashg`ulotlar).
2. Guruhlar yoki korparativ (ma`lum doiraga ega) guruhlar tili (Masalan, talabalar, sportchilar, soldatlar kabi yoshga oid jamoalardagi jargonlar).
3. Hunarmandlar, savdogarlar va shunga yaqin ijtimoiy guruhlarning shakliy tillari (Argo).
4. Ijtimoiy hayotdan tamoman uzilgan, sinfsizlashgan tuban kishilar jargoni (Argo).

Tilshunoslikda muayyan ijtimoiy guruh kishilari foydalanadigan tilga dialekt deb ta`rif beriladi, zero, har qanday ijtimoiy soha (kasb) sotsial xoslanishga ega ekan, ana shu ijtimoiy soha kishilarining nutqi ham, albatta, sotsial xoslanishga ega bo`ladi. Muammoga ana shu nuqtai nazar bilan qaraganda ma`lum ijtimoiy soha kishilari foydalanadigan tilni to`laqonli ravishda sotsial dialekt deb atash mumkin.

O`zbek tilshunosligida dialektlarga, asosan, diaxronik aspektda yondashilib, bu dialektda adabiy tilning nisbatan eski shakllari saqlanib qolgan deb gapirib keldilar.

Sotsialingvistika gapiruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan munosabatlarni ifodalashga urinib, ekstralingvistik mezonlar bilan sinxron yondashuvdan foydalanishga harakat qiladi.

Ekologiya va ijtimoiy muhitning inson muomala xulqiga bevosita ta`sir etishi yoki, boshqacha qilib aytganda, muomala xulqi ekologiya va ijtimoiy muhit ta`sirida shakllanishi haqida gap ketganda kishilarning yashash, o`qish, ishlash

joylarini o`zgarib turishini turli dialekt vakillari o`rtasida bo`ladigan nikohlarni, ularning ota-onalari qaysi sheva vakili ekanliklarini inobatga olishiga to`g`ri keladi. Chunki bunday o`zgarishlar kishilar nutqi, muomala xulqiga, albatta, ta`sir etadi. Bularni hisobga olmaslik esa turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Dialektologik farqlar, ayniqsa, murojaat shakllarida yaqqol ko`zga tashlanadi. Notanish kishilarga nisbatan qo`llaniladigan dialektlar bo`yicha farqlanadigan murojaat shakllarini quyidagi guruhlarga bo`1ib o`rganish mumkin:

1. Qarindosh-urug` nomlari orqali murojaat etish.
2. Lavozim, kasb-kor, vazifa nomlari orqali murojaat etish.
3. Hayvonlarning nomlari bilan murojaat etish.

O`zbeklar tabiatan mehmondo`st, ochiqko`ngil bo`lganliklari uchun bo`lsa kerak, ko`pincha notanish kishilarga ham qarindosh urug` nomlarini aytib murojaat etadilar, ya`ni, “tog`a”, “amaki”, “bobo”, “xola” kabilar.

Umuman, murojaat etiketning eng muhim ko`rinishlaridan biri bo`lib, u turli dialektlarda o`ziga xos ko`rinishlarga egadir. Buni bilmaslik esa kommunikantlar o`rtasida turli tushunmovchiliklar va noroziliklarga sabab bo`lishi mumkin.

Tilshunos olim E.Begmatovning “Nomlar va odamlar” kitobida ta`kidlanishicha, qadimdan turkiy xalqlarga kishining ismiga hurmat bilan munosabatda bo`lish mazkur shaxsning o`ziga nisbatan hurmat va ehtirom belgisi sifatida qabul qilingan. Bunday hurmat izhor etishning asosiy yo`li esa kishi ismini aytib chaqirmaslikdir.

Shunga ko`ra turkiy xalqlarning ko`pchiligida yoshlar o`zidan kattalarning, xotin esa erning, shuningdek, er xotinning ismini atashi mumkin emasligi xususidagi rasm-rusumlar shakillangan. Bunday intizomga ayniqsa ayollar odob yuzasidan qattiq rioya qilganlar. O`tmishda shakllangan va hozir ham qaysidir regionlarda amalda bo`lgan bunday rasm-rusumlarni bilmaslik yoki amal qilmaslik esa yuqoridagi singari noqulayliklarga sabab bo’ladi.

Nutqda murojaat shakllarining bir ko`rinishi - “sen” va “siz” so`zlarining qo`llanishida ham hududiy farqlanishlar kuzatiladi va buni tilshunos bobokalonimiz M.Koshg`ariy ham o`z vaqtida qayd etib o`tgan edi. “Sen turklar bu so`zni kichiklarga, xizmatchilarga hamda so`zlovchidan daraja, martaba, yoshda quyi bo`lgan kishilarga nisbatan aytadilar. O`zlaridan yuqori hurmatli kishilarga “siz” deydilar, o`g`izlarda aksincha qo`llaydilar, ya`ni kattalarga “san”, kichiklarga “siz” deb qo`llaydilar” (DLT.I.326-bet).

Nutq, muloqot muomala odamlar orasida sodir bo`ladi, ularning tili, she`vasi, urf-odat, rasm-rusumlari bilan bog`liq bo`ladi. Shuning uchun nutqda muomala xulqida har bir mintaqaning o`z shevasi, etnografik xususiyatlari o`z aksini topadi.

Men tirjayib, cho`nqaydim. Shunda rais meni chaqirib qoshini chimirdi. Men garangsib turib salom berdim.

- Berman ke, ulim, berman ke! - dedi otam. Bunday vaqtda borishim kerak.

Enam ham yelkamga qoqdi. Otam yoniga o`tqazib:

- Sher ulim! - dedi. – uxladingmi?... Endi go`shtdan yeysiz-u kirib uxlaysiz. Xavotir olma bolam! Mard odamning sadag’asi ketsang arziydi.

(Shukur Xolmirzaev)

- Opajon, "Oh" beying ... - Yo`q, dedi ayasi.
- Dado-o-o-ov...
Indamay yotaverdim. Yelkamga turtdi.
- Dadajo-o-o-on, "oh"! (O`. Hoshimov)

Ijtimoiy lisoniy tadqiqotlar shuni taqozo etadiki, nafaqat turli millat kishilarining, balki turli hududlarda yashovchi bir millatga mansub kishilarning muloqot xulqi ham o`zaro farqlanib turadi.

"Dialekt" termini dialektologik adabiyotlarda lahja ma`nosida, ba`zan sheva ma`nosida ham qo`llaniladi. Uning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar ko`rsatiladi:

1. Ayrim sheva va dialektlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini har tomonlama tafsif qilish.
2. Milliy tilning paydo bo`lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o`rni va shu tilga asos bo`lgan shevalarni aniqlash.
3. Shevalarning o`zaro munosabatlari, shuningdek, ularning adabiy til va qardosh tillarga bo`lgan munosabatlarini belgilash.
4. O`xshash xususiyatlariga ko`ra shevalarning tarqalish chegarasini aniqlash.
5. Umumiy o`xshash lisoniy xususiyatlarni tuzush va shevalarni tasnif qilish (Sh.Abdurahmonov. O`zbek dialektologiyasi. - Toshkent, 1978. 6-bet.)

Mashhur tilshunos olim E.D.Polivanov sotsial lingvistikaning navbatdagi vazifalari sifatida quyidagilarni ko`rsatadi:

1. Tilni sotsial-tarixiy fakt sifatida aniqlash.
2. Tillar va dialektlarni sotsiologik nuqtai nazardan tasvirlash.
3. Tilni muloqot quroli sifatida tahlil etish.
4. Sotsial-iqtisodiy va til hodisalari o`rtasidagi sababli bog`lanishlarni o`rganish.
5. Til va uning ayrim jihatlarini yashash uchun kurash vositasi sifatida tahlil etish.
6. Tilning ma`daniyat tarixi bilan bog`liq umumiy tipologik sxemasi evolyutsiyasini belgilash.
7. Sotsiologik lingvistikaning amaliy masalalarini yoritib berish. (Поливанов Э.Д. Стате по общему языкознанию. М. 1968. с.186).

Dialektni o'rganish jamiyatning boshqa a'zolaridan o`z xususiyatlari bilan ajralib turuvchi ijtimoiiy guruhlar nutqiy odatlarini o`rganishga qaratilgani uchun ko`pchilik sotsialingvistlar o`z sohalarini dialektologiya bilan chambarchas bog`liq holda tasavvur etadilar. Biroq o`zinig asosiy qiziqishi nuqtai nazaridan dialektologiya zamonaviy sotsiolingvistikadan keskin farq qiladi. U masalaga asosan diaxronik aspektda yondashib "maskur dialekt tarixan boshqa dialektlar bilan qanday aloqadorlikka ega?" Bu dialektda adabiy tilga nisbatan qanday eski shakllari saqlanib qolgan kabi savollarga javob topish bilan qiziqib keldi. Bunda diqqat-e`tiborni gapiruvchilarning verbal odatlarida emas, balki bilvosita shakllar va ularga mos keluvchi ko`rinishlarini o`zida jamlash an`anasi ko`zga tashlanadi.

Sotsiolingvistika dialektologiyadan farqli ravishda asosiy diqqat-e`tiborni ijtimoiy guruhlar va ular tomonidan foydalaniladigan tilning o`zgaruvchan birliklariga qaratishga, bu o`zgaruvchan birliklarni ijtimoiy fanlarning: yosh, jins, ma`lum bir ijtimoiy-iqtisodiy sinfga tegishlili, hududiy katta guruh va shu kabi an`anaviy demografik birliklar bilan bog`lashga urinadi. Shuningdek, keyingi paytlarda til shakllari va ijtimoiy funksiya o`rtasidagi munosabatlarni mikro darajada, ya`ni guruh ichidagi interaksiyada, til va ijtimoiy kattaroq masshtabdagi funksiyalarni kattaroq makro darajada, ya`ni guruhlar o`rtasidagi imperaksiyada belgilashga urinishlar kuzatilmoqda.

Hozirga qadar o`zbek tilshunosligida leksikologik aspekt “kasb-hunar leksikasi”, “professional leksika”, “professionalizm” kabi terminlar ostida lug`aviy birlik, passiv yoki dialektal qatlam sifatida baholanib kelindi.

Sotsial dialekt mavjudligi jihatidan keng diapazonga ega va uning har bir ijtimoiy guruh ichidagi shakllarida kasb-hunar leksikasi, muayyan sohaga oid atamalar yoki professionalizmlar uchraydi. Faqat bunday lisoniy vositalarga til birligi sifatida emas, balki nutq birligi sifatida qaramoq lozim. Ya'ni kasb-hunar leksikasi, muayyan sohaga oid atamalar yoki professionalizmlar yakka holda olib qaralganda, atama bo`lib qoladi, ammo ular sotsium nutqining ichida bevosita joriylanganda, ana shu nutqni o`z-o`zidan sotsiolektga aylantiradi. Boshqacha aytganda, atamalar sotsiolektning qaysi sohaga tegishli ekanligini yo`naltiruvchi yadro bo`lib xizmat qiladi. Tabiiyki, dehqon nutqi, kimyogar nutqi, cho`pon nutqi, o`z sohalari bo`yicha bir-birlaridan farq qiladi.

Bundan tashqari, turli kasb egalari nutqida jargon, argo kabi til variantlari ham doimi yoki fakultativ tarzda uchrab turadi. Jargon ma`lum ijtimoiy guruh vakillarining axborotni berkitish va o`zicha ifoda etish o`yini bo`lib, faqat o`z doirasigilar uchun tushunarli bo`lgan nutq varianti, chunonchi, sotsiumning o`z nutqi bilan boshqalardan ajralib turish maqsadida o`zicha mazmun berib ishlatiladigan so`z va iboralar sanalib, professionalizmlarni ham o`zida mujassamlashtiradi. Chunki professionalizm, biror kasb-hunar egalari nutqiga xos so`z yoki ibora sifatida, sotsiolekt tarkibida bevosita jargon yoki, aksincha, jargon proffessionalizm bo`lib kelishi mumkin: avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatuvchi usta nutqida kaltak yegan-urilgan (avtomashina), motor pishgan-yaroqsiz, xodovoy u ketgan (harakatlantiruvchi qismlari yaroqsiz holatga kelgan); sotuvchilar nutqida *bozor* o`ldi, bozor kasod, tushub berish; o`qituvchilar nutrqida *doskaga chiqing, qo`l ko`tarib gapiring* (ruxsat berilgach).

“Argo” atamasiga tilshunoslar orasida ikki xil qarash mavjud. Bu o`rinda argoning ma`nosiga aniqlik kiritib olish lozim. Yaqin yillargacha tilning bu variantlari (jargon, argo)ga salbiy (jinoiy) guruhlarga xos nutq ko`rinishi va asosan, vulgarizm (ba`zan varvarizm)lardan iborat nutq ko`rinishi deb qarab kelingan. Vaholanki, ular tilning bunday variantlardan deyarli barcha ijtimoiy soha vakillari o`z kasblariga xos tarzda foydalanib kelganlar. Chunonchi, otarchilarda, *galmaba qilmoq* (pul qistirishga sha`ma), *qog’oz to`plash* (doirada pul yig`ishtirish), *qisimlash* (daromadni teng bo`lish), *oti bor* (beshyuz so`mlik), *yakan* (pul), *begim kunlari* (dam olish kunlaridan boshqa kunlar).

Shu bilan birga, bitta so`z turli sotsiolektlarda turlicha ma`noda tushuniladi: *mijoz* - jinoiy qidiruv bo`limi xodimlari nutqida qidirilayotgan shaxs; tibbiyot xodimlari (tabiblar) nutqida odam organizmining xususiyati; sotuvchilar nutqida - xaridor va hokazo. Masalan*: u (qizga har kuni ertalab qaymoq olib keladigan mijoz edi)…. Doimiy xo`randa, zakazchi, qatnovchi. Bu kim deb hamshiradan so`rasam, "E, bu odam bizning tez-tez kelib turadigan mujozimiz" deb qo`l siltadi… G`ozi choyxonaga qarab achindi: shinavandalar, mijozlar orttirgan edim…. Kenja bu antiqa mijoz odamni o`ziga yaqin ko`rib qoldi*

(O`.T.I.L. 463-bet)

Shunisi xarakterliki, sotsiolikt tarkibida uchraydigan bu kabi til variantlari ko`pincha bilingvizmlardan iborat bo`ladi: *Radarga tushdim* (haydovchilar nutqida), *defoliatsiya* bo`lgan (dehqonlar nutqida), *ingolyatsiya qilish*, proba qo`yish, sterillash (tibbiyot hodimlari nutqida) kabi.

Sotsium nutqiga sotsiolekt obyekti sifatida yondashish va nutqni sotsialingvistik aspektda tadqiq etish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Turli kasb egalari nutqida uchraydigan jargon, argolarni sotsiolektning tarkibiy ko`rinishlari sifatida baholash mumkin. Chunki, tilning bu variantlari ham turli ijtimoiy sohada ma`lum darajada joriylanib o`ziga xos emotsional- ekspressiv semantik-stilistik ma`no kasb etadi.

Ammo shuni ham alohida ta`kidlash lozimki, hozirgi kunda o`zbek xalqining savodxonlik darajasi yuqori darajada bo`lgan bir paytda dialektlarga ehtiyoj kamayib borayotganligini ta`kidlash joizdir.

Shuning uchun nutqda, xususan, rasmiy muomalada, ko`pchilik oldida shevadan foydalanish kundan-kunga kamayib bormoqda. Xususan, badiiy asarlarda qahramon nutqini badiiylashtirish, individuallashtirish maqsadida qo`llaniladigan dialektizmlar soni tobora kamaymoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, bir vaqtlar (bundan 40-50 yillar oldin) me`yoriy odat bo`lgan nutqning shevaviy ixtisoslashuvi o`z o`rnini adabiy nutqqa bo`shatib bermoqda. Ammo har bir mintaqaning muloqot jarayoni uchun o`ziga xos etnografik, rasm-rusum va sotsiolingvistikada faktik muloqot, faktik kommunikatsiya deb ataladigan tomonlari borki, ular hozir ham mintaqalar bo`yicha o`z ta`sir kuchuni yo`qotgani yo`q, chunonchi, mehmonlar dasturxon atrofida yoki suhbatlashib o`tirganda uy egasi har safar xonaga kirganda: "Assalomu alaykum! Assalom! *Xush kelibsizlar*! Yaxshi o`tiribsizlarmi?" deb mulozamat qilishi yoki farzandlarning o`z onalariga "opa", "ona", "ena", "nana", "aya", "ayajon", "onajon", "oyijon" deb murojaat qilishi. Ayrim hududlarda mehmonlarga: "*Dasturxonga qarab o`tiring*", "Olingizlar", "Olib o`tiringizlar", "Og`zingizni shirin qiling", "Olib turing", "Mana bundan tatib ko`ring", "Yengizlar" kabi murojaatlar me`yor hisoblansa, ayrim regionlar uchun bu xil odatlar me`yor hisoblanmay, balki mehmonni ranjitishi mumkin.

O`zbek millati yagona til, iqtisodiyot, hudud va ma`naviy jihatlari bilan yaxlit, adabiy til me`yorlarining ustuvorlashishi, muloqotning lisoniy jihati bilan umumlashayotgan bo`lsa-da, mintaqaviy paralingvistik va ekstralingvistik omillar hali o`z kuchini yo`qotmaganligini ko`rish mumkin.

Muloqot jarayonida biror so`z adabiy normaga aylanishi uchun u alohida juz'iy qo`llanishlardan ommaviy qo`llanishlarga, ya`ni yakka (individual) me`yordan ommaviy me`yorga o`tishi lozim bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik sharoit, turmush tarzi, eng avvalo, shahar va qishloq o`rtasida farqlanadi. Qishloq tabiati, shahardagi shiddatli hayot tarzida u yerda yashovchi kishilar muloqot xulqida o`ziga xos tafovutlar borligini bildiradi.

Muloqot xulqining ekologiya va ijtimoiy muhit ta`sirida shakllanishi haqida fikr yuritilganda, kishilarning yashash, o`qish, ishlash joylarining o`zgarib turishini, turli dialekt vakillari o`rtasida bo`ladigan nikohlarni, ularning ota-onalari qaysi she`va vakillari ekanliklarini inobatga olish lozim. Murojaat etiketning muhim ko`rinishlaridan biri bo`lib, u turli dialektlarda o`ziga xos shakllarga ega bo`lishi mumkin. Buni bilmaslik kommunikantlar o`rtasida yuqorida ko`rsatilganidek, turli tushunmovchilik va noroziliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Sotsiolingvistikaning dialektologiyaga qanday aloqasi bor?
2. Nutqning mintaqaviy xoslanishi deganda nimani tushunasiz?
3. Murojaat shakllarida shevaning ta`siri qanday kechadi?
4. “Sen” va “siz”ning qo`llanishini izohlang.
5. Faktik muloqot nima?
6. Nima sababdan muloqot jarayonida mintaqaviy xususiyatlar mavjud bo`ladi?
7. Sotsiolekt va nutq deganda nimani tushunasiz?
8. Mintaqaviy paralingvistika to`g`risida fikr bildiring.
9. Tilda hududiy dialektikaning mavjudligiga sabab nima?
10. Qanday olimlar dialektlar to`g`risida o`z fikrlarini bayon etganlar?
11. Variant va invariant deganda nimani tushunasiz?
12. Professional leksikani nima uchun adabiy til uchun norma bo`la olmaydi deymiz?
13. Turmush tarzi ekologiyasining nutqqa qanday aloqasi bor?
14. O`zbekona nutqning o`ziga xos xususiyatlari nimada?
15. Jargon va argoning nutqdagi o`rni nimada?
16. Muloqot jarayonida paralingvistik vositalar bir xil amalga oshiriladimi?

Sotsiolingvistik til tipologiyasi.
Sotsiolingvistik tadqiqotlar.

1. Nutqiy muloqotning tarkibiy qismlari.
2. Ingerent o`zgarishlar.
3. Sotsiolingvistika - o`zbekona urf-odat, rasm-rusumni o`rgatuvchi fan.
4. Standartlashtirish, hayotiylik, tarixiylik, avtonomlik.
5. Ijtimoiy tilshunoslik tipologiyasi.
6. Tilning ijtimoiy yashashi va taraqqiyoti.

**Tayanch so`z va iboralar:** *ijtimoiy guruh, ijtimoiy tilshunoslik, an'anaviy tilshunoslik, tipologiya, sheva, adabiy til, nutq madaniyati, rasm-rusum, muloqot xulqi, ruh, o`zbek milliy ma'naviyati mafkurasi.*

Nutq muloqotini faoliyat va o`ziga xos bir sistema sifatida tushunish uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat ekanligini sharhlashni talab qiladi. Muloqotning umumiy modelida tarkibiy qismlar o`z aksini topadi. Shunga ko`ra ularni ikki guruhga, ya'ni tashqi va ichki guruhlarga ajratish mumkin. Muloqotning tashqi omillari (tarkibiy qismlari) va muloqotning maqsadi, undagi tinglovchi va so`zlovchining maqsadi, muloqot voqelanayotgan shart-sharoit, vaziyat kabilarni kiritish mumkin.

Chunonchi, muloqot maqsadi muloqot mazmunini belgilaydi. Vaziyat uning shaklini va ko`p hollarda muloqotning ichki tarkibiy qismi bo`lgan lisoniy va nolisoniy omillar tabiati va turlarini belgilaydi. Shu til o`zgarishining tashqi omillarda tilning ishlatilishidagi ijtimoiy shart-sharoitlar nazarda tutiladi.

Ma'lumki, tilning lug’ati mazkur tilda so`zlashuvchilarning barchasi uchun umumiy, tushunarli bo`lgan umummillat toifasidagi so`zlardan tashqari, millatning ijtimoiy guruhlanishi bilan bog’langan bo`lishi ham tabiiy. Bunday o’zgarishlar so`zlovchilarning yoshiga, jinsiga, ma'lumotiga, nutq sodir bo`layotgan muhitiga ham bevosita aloqadordir.

Ichki qonuniyatlar asosida bo`ladigan o`zgarishlarni oldindan hisobga olish mumkin, bu o`zgarishlar so`zlovchining xohish va istagiga bog’liq emas. Ular ob`yektiv o`zgarishlardir. Tashqi omillar asosida paydo bo`ladigan o`zgarishlar sub`yektiv xususiyatga ega. Bunday o`zgarishlarning hammasini oldindan aytib berish imkoniyatiga doimo ega bo`linmaydi. Tashqi ta'sir manbalarini sotsial guruhlarning xususiyatlari - buni shaxslararo o`zgarishlar deb ham yuritishadi, shaxslar ichidagi o`zgarishlar va ingerent o`zgarishlar ta'sirida 3ga ajratish mumkin.

Birinchi manba qaysi ijtimoiy guruhni tashkil etishiga ko`ra tilshunoslar bu guruhni tilning qaysi variantlari o`z nutqida qo`llashini aytib berish mumkin. Masalan, til sohasi bo`yicha shug’ullanadiganlar nutqiga *ega, kesim, morfema, o’zak, qo`shimcha, kelishik* kabi so`zlar uchraydi. Suvoqchilarda esa: *andova, loy, ketmon, gazcho’p* kabi so`zlar uchraydi.

Ikkinchi manbaga ayrim shaxslarning nutqi bilan bog’liq bo`lgan o`zgarishlar kiradi. Ayrim shaxslarning nutqida uchrashi mumkin bo`lgan o`zgarishlarni oldindan bilish mumkin emas. Chunki bunday o`zgarishlar mazkur

shaxsning kim bilan, qanday sharoitda suhbatlashishi va bu nutqning rasmiy yoki norasmiyligi va boshqa shunga o`xshash sabablarga bog’liq bo`ladi.

Uchinchi manba ingeren o`zgarish deb yuritiladi. Bu manba aslida tilning ichki tuzilishi zaminida yotadi. Odatda tildagi birorta tovush yoki boshqa til birliklari ikki yoki undan ortiq ko`rinishga ega bo`ladi. Bulardan qaysi biri so`zlovchi tomonidan ishlatilishini bilish qiyin. Tilning tuzilishida ana shunday hodisalarning bo`lishi so`zlovchilarga til vositalaridan foydalanayotganda erkin tanlash imkonini yaratadi.

Ijtimoiy tilshunoslik an'anaviy tilshunoslik yaratgan tipologiyalardan farqlovchi til tipologiyasini yaratishga intilmoqda. Bunday tipologiya tilning ichki tuzilishini nazarda tutmay, balki uning tashqi sotsial vazifasini aks ettiruvchi, sotsiolingvistik tipologiyadir. Bunday tipologiyaga asos qilib standartlashtirish, hayotiylik, tarixiylik va avtonomlik deb nomlanuvchi o’lchovlar qabul qilingan.

Standartlashtirish deganda, mazkur tilda gaplashuvchilar tomonidan qabul qilingan adabiy til tushuniladi. Standartlashtirishning muhim omillaridan biri tilning grammatikasini va lug’atini tuzishdir. Demak, standartlashtirilgan til deganda, jamiyat tomonidan kundalik hayotga o’zaro fikr almashish quroli sifatida foydalanadigan milliy adabiy til nazarda tutiladi. Hayotiylik deganda, mazkur tilda gapiruvchi jamiyatning bor-yo`qligi tushuniladi. Til hayotiy bo`lsa, bu tilni ona tilim deb biladigan jamiyat bo`ladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ba'zan o’lgan tillar qaytadan hayot kasb etishi mumkin. Bunday tillarga klassik evrit tili misol bo`lishi mumkin. Evrit milodgacha birinchi ming yillikda qadimgi falastin aholisining tili bo`lgan. "Tavrot"ning birinchi qismi o`sha davrdagi evritning asosiy yodgorligidir. 1948 yilda Isroil davlati ba'zi o`zgartirishlar kiritib, uni davlat tili sifatida qabul qildi.

Tarixiylik deganda, tilning mazkur jamiyat tomonidan ishlatilishi natijasida uning mu'tadil rivojlanib turishi tushuniladi. Avtonomlik deganda, mazkur ijtimoiy guruh uchun ona tili sifatida xizmat qilayotgan til boshqa tillardan tuzilishi jihatidan tubdan farq qilishi yoki bir tilning varianti sifatida namoyon bo`lishi tushuniladi. Agar o`zbek va qozoq tillari bir-biri bilan qiyoslansa, ular orasidagi fonetik, leksik va grammatik farqlar ko`zga yaqqol tashlanadi, ularning antonomligiga hech qanday shubha yo`q. Ammo o`zbek tili bilan Xorazmda yoki Farg’onada gapiriladigan o`zbek tilining shakllari to`g’risida gapirilsa, unda ularni avtonom deyishga hech qanday asos yo`q. Chunki, sheva bilan milliy adabiy til o`rtasida tuzilish jihatidan o`zgarishlar bo`lmasligi aniq. Tilning ijtimoiy lingvistik tipologiyasida standart, klassik, mahalliy, kreol, pejim, sun'iy va original tillar deb atalmish yettita turi mavjuddir.

Standart tillar adabiy til normasiga ega bo`lgan tillardir. Bunga hozirgi o`zbek adabiy tili misol bo`la oladi. Klassik tillar deganda, klassisizm davrida mukammal takomilga yetgan, o`z yozuviga ega bo`lgan buyuk asarlar yaratilgan tillar kiradi, ammo davr o`tishi bilan bu tillarda gaplashuvchi jamiyat bo`lmagani uchun ular o’lik tillar hisoblanadi.

Mahalliy tillarga esa o`z yozuviga ega bo`lmagan kichik millatlarga xizmat qiluvchi tillar kiradi. Masalan, Amerika qit’asidagi mahalliy hindularning tili

bunga misol bo`la oladi. Kreol tillarga bir qancha tillar aralashmasi natijasida hosil bo`lgan tillar kiradi. (masalan, portugal, fransuz, ingliz tillar).

Pejin tillarda Yevropa tillari bilan mahalliy tillarning chatishuvidan hosil bo`lgan tillar kiradi. Uning kreol tillarida farqi shundaki, kreol tili ona tili hisoblanadi, pejin tili esa ikkinchi ona tili deb yuritiladi.

Sun'iy tillar maxsus yaratilgan xalqaro tildir. Bunga peranto tili misol bo`la oladi. Bu tilning asoschisi L.Zamengof bo`lib, 1887 yili polyak olimi tomonidan yaratilgandir. Har bir tilning taraqqiyotini kelajak ko`rsatadi.

Insoniyat XXI asrga qadam qo`ydi. Bizni, hozirgi O`zbekistonda istiqomat qilayotganlarning ko`pchiligini turmush muammolari-bozor iqtisodiyoti sharoiti qiziq turadi: Bu yorug’ olamda biz kimmiz va ne bir sir-sinoatmiz, qayoqqa qarab ketayapmiz. Kelajakda bizning o`rnimiz qayerda, qanday bo`ladi,- degan savollar qiziqtirishi tabiiy. Tabiiyki, insonning kimligi uning hayotda tutgan o`rni, xatti-harakati va odamlar bilan bo`lgan muloqotida bilinadi. Shuning uchun ham odamlar inson ruhiyati bilan bevosita bog’liq bo`lgan bu masala xususida juda qadimdan jiddiy shug’ullanib kelganlar. Ammo nutq va nutq madaniyati muammolari e'tibordan chetda qolib kelgan va nihoyat 1929 yilda Pragada bo`lib o`tgan slavyan olimlarining I seyezdida bunga alohida e'tibor qaratildi. Keyinchalik bu masalaga qiziqish g’arb mamlakatlarida, xususan, Angliya, Germaniya, Fransiya va Amerika, Yaponiya kabi mamlakatlarda jiddiy tus ola boshladi. G’arb mamlakatlarida nutqiy muloqot, uning sotsialingvistik, psixolingvistik va pragmatik jihatlarini o`rganishga bag’ishlangan maxsus jurnallar nashr etila boshlandi. Buning bayroqdori Amerika olimlari bo`lib, ular nutqiy muloqot va ritorika sohasida ulkan yutuqlarga erishdilar. 1927 yilda Moskvada nashr etilgan "Natsionalno-kulturnaya spetsifika rechevogo povedeniya", keyinroq "Natsionalno
kulturnaya spetsifika rechevogo obsheniya Narodov SSSR" kabi asarlarning paydo bo`lishi, shuningdek, A.A.Leontyev, Yu.A.Sorokin, A.I.Yefimov, Ye.M.Vereshchagen, V.G.Kostroumov, Ye.F.Tarasov va boshqalarning bu muammoga oid qator monografik tadqiqotlari kelganligi nutqiy faoliyat muammosining tobora dolzarb masalaga aylanib borayotganligidan dalolat beradi.

Bu sohada turkologiyada, shu jumladan, O`zbek tilshunosligida ham ma'lum izlanishlar olib borilganligi barchaga ma'lum. 1969 yil Toshkentda nutqimiz rivoji masalalari bo`yicha o`tkazilgan I respublika konferensiyasida professor E.A.Begmatov shunday degan edi: "Masalaning bunday qo`yilishidan O`zbek tilshunosligida nutq madaniyati muammosi umuman o`rtaga qo`yilmagan ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Nutq odobi deb yuritib kelingan qoidalarning o`ziyoq bu masalaning qadim tarixga ega ekanligini ko`rsatadi. Qolaversa, 20-30-yillarda til qurilishi, til siyosati degan nomlar bilan yuritilgan barcha millat va xalq tillari rivojiga bevosita tatbiq etilgan ekan, tadbir va choralarning o`sha vaqtda til madaniyati, endilikda nutq madaniyati deb yuritilayotgan muammoga qanchalik aloqador ekanligini belgilash g’oyat muhimdir".

O`zbek tilshunosligida nutq madaniyati va uning nazariy masalalari bo`yicha anchagina tadqiqotlar o`tkazilsa-da, bu izlanishlarning aksariyati nutq

madaniyatining ayrim tomonlarini uslubiy yoki pedagogik maqsadda yoritib berishga qaratilgan bo`lib, masalaga ijtimoiy-lisoniy aspektda yondashilmagan. Bugungi kunga kelib nutq madaniyati sohasi ilmiy muammo sifatida tan olindi va uni chuqur tadqiq qilish lozimligi qator olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. 60-yillarning boshlaridayoq sotsiolingvist olim V.V.Veselevskiy "Hozirgi nutq madaniyati bo`yicha tadqiqot olib borishning zarurligini isbotlab o`tirish ortiqchadir", - degan edi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sho`rolar davrida o`zbek tilining qo`llanishi keskin chegaralangan edi. Deyarli barcha katta-kichik anjumanlar rus tilida olib borilar edi. Ish yuritish esa, asosan, rus tiliga ko’chgan edi. "Davlat tili haqida"gi qonunning qabul qilinishi, ayniqsa, 1991-yil 31-avgust kuni e'lon qilingan mustaqilligimiz ona tilimizning mavqeini tiklash, uning jamiyatimiz hayotida davlat tili sifatida amal qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. O`tgan davr mobaynida o`zbek tilining nufuzi oshdi, uning ijtimoiy vazifasi va amaliyot doirasi kengaydi, ona tilimiz mustaqil davlatimiz tili sifatida ravnaq topdi va topmoqda.

Istiqlolimiz sharofati tufayli bugungi kunda rahbar idoralarda, vazirliklarda, hokimliklarda, korxona va tashkilotlarda majlislar
o`zbek tilida o`tmoqda. Tilimiz to`laqonli til sifatida o`z kamolini ko`rsatmoqda, uning cheksiz boyliklarga ega ekanligi namoyon bo`lmoqda. Zero, til nafaqat odamlar orasida muloqot vositasi, balki butun jamiyatimizda ro`y berayotgan voqea-hodisalarni ommaga tarqatishga xizmat qiladigan asosiy qurol hamdir. Shu bilan birga adabiy til me'yorlarida va umuman til tizimida amal qiluvchi muhim qonuniyatlardan biri mo’tadillik va turg’unlikdir. Adabiy til har doim o`z me'yorlarining turg’un, mo’tadil bo`lishiga intiladi. Bunga sabab adabiy til umumxalq, umummilliy muloqot quroli bo`lib, undagi lug’aviy, imloviy, talaffuz me'yorlari umumxalq tomonidan o`zlashtirilgan, barchaga birdek tushunarli bo`lishi zarur. Bunday me'yorlar ko`pchilik tomonidan namunali vosita sifatida ma'qullangan bo`ladi. O`z navbatida, adabiy tildan foydalanuvchilar ushbu me'yorlarga amal qiladi. Barcha uchun umummajburiy me'yor va lisoniy malakaga aylangan so`zlarni ehtiyojsiz ravishda boshqasi bilan almashtirish til egasining o`zaro muloqotiga xalaqit beradi, unda qiyinchilik, chalkashliklar tug’diradi. Demak, til me'yorlariga munosabatda ushbu muhim qonuniyatni hisobga olish lozim bo`ladi. O`zbekiston dunyoga, dunyo esa O`zbekistonga nazar tashlayotgan bir paytda, dunyo xalqlari biz bilan muloqotning istalgan tur va usulida muloqotda bo`lishni istovchi davlatlar va millatlardan o`zbeklarning o`ziga xos muloqot xulqini ham sir tutmaymiz, aksincha, o`zbeklar bilan muloqot chog’ida nimalarga e'tibor berish lozimligini o`zimizga va boshqalarga o`rgatib, kerak bo`lsa, ko`z-ko`z qilishimiz zarur. Shuni ta'kidlash kerakki, mustaqillik davrida o`zbek tili oldingi davrlarga xos bo`lmagan o`zgarishlarga duch keldi. O`zbek tili o`zining funksional
doirasini kengaytirib borib, jahon maydoniga chiqdi. Biz buni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlarda, madaniy-ma'naviy aloqalarda ko`rayapmiz. So`zsiz, til siyosatidagi o`zgarishlar uning ijtimoiy hayotda tutgan o`rni, funksiyaviy xususiyatlariga o`z ta'sirini o`tkazmasdan qolmaydi. Ushbu hodisalarning barchasi sotsiolingvistik tadqiqotlar mohiyatini yanada oshiradi, ularga yangicha

yondashish, yangi tahlil uslublari qo`llanishini talab qiladi. Holbuki, hanuzga qadar o`zbek tilshunosligida sotsiolingvistikaning metodologiyasi va metodlari to`lig'icha shakllangani yo`q. Bu boradagi izlanishlar davom etayotgan bir paytda turli tadqiqotchilar turli fikrlarni ilgari surishlari tabiiydir.

Ma'lumki, til tizimining sotsiolingvistik tahlili uning u yoki bu ijtimoiy va etnomadaniy muhitda qanday faoliyat ko`rsatishi, qaysi vazifalarni bajarishini o`rganishni maqsad qilib qo`yadi. Ana shu tahlil asosida tillarning sotsiofunksiyaviy tasnifini yaratish mumkin. Ayrim hollarda tillarning ijtimoiy farqi o`ta darajada sezilarlidir. Ular o`zaro so`zlovchilar miqdori, qo`llanish chegarasi, bajarayotgan ijtimoiy vazifalari, hayotiyligi, ma'lumligi va boshqa xususiyatlari jihatidan keskin farq qiladilar. Bu xususiyatlar har bir tilning sotsial va kommunikativ mohiyatini belgilab beradi.

Tillarni jamiyatdagi kommunikativ mohiyatiga nisbatan tahlil qilish nafaqat qiyosiy tipologiyaning yangi yo`nalishlaridan bo`lmish sotsiolingvistik tipologiya uchun muhim bo`lib, balki til ta'limi sohalari uchun ham ahamiyatlidir. Tilshunoslikda tilning ijtimoiy yashash va ijtimoiy taraqqiyot sharoitini o`rganuvchi soha sifatida yuzaga kelgan, sotsiologlar va tilshunoslarni tobora bir-biriga yaqinlashtirayotgan zamonaviy sotsiolingvistika shu fan sohasidagi o`ta nazariylik, noaniqlik va shuning oqibatida yuzaga kelayotgan ayrim nuqsonlarni ko`rsatib bermoqda.

Millatimizning, milliy ma'naviyatimizning, qadriyatlarimizning, mafkuramizning muhim tarkibiy qismi tildir. Lekin tilimiz bir necha ming so`zdan iborat bo`lgan lug'at, ularni gaplarga birlashtirish qoidalaridangina iborat emas. To`g'ri, til grammatik, fonetik qonuniyatlar, qoidalar fikrni ifodalashning, aloqa, aralashuv, kommunikatsiyani ta'minlashning eng muhim vazifasi. Lekin yagona vosita emas. Fikrni ifodalash, xususan, jonli muloqot juda ko`p nolisoniy deb ataladigan omillar: rasm-rusumlar, urf-odatlar, xatti-harakatlar, ishoralar, odob va axloq me'yorlari bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Ular o`zbek so`zlariga, gaplariga o`zbekona zeb, noziklik va libos beradi, bezaydi. Bir tasavvur qiling xonaga bir yigit kirib, boshidan qalpog'ini olib, uni qo`li bilan oldi-da, siltab-siltab, qaddini g'oz ko`tarsa va boshini orqa olib "Assalomu alaykum"! deb baland ovozda o`shqirsa yoki, "Salom", yoki "Hello", yoki "Privet", desa, tabiiyki, unga nafratingiz qo`zg'aladi. Bu tinglovchini mensimaslik, masxaralash (tinglovchi kim bo`lishidan qat'i nazar: u rusmi, o`zbekmi, xorijdan kelgan mehmonmi)dir.

O`zbek tili o`z odobi, o`z xulqi bilan o`zbekniki. O`zbek tili bizga o`zbek lug'at tarkibi va o`zbek tilining qonun-qoidalari majmuasini o`rgatsa, sotsiolingvistika fani uning boshqa juda ko`p xususiyatlarini, zeb-ziynatini, nolisoniy, ekstralingvistik omillar sifatini o`rgatadi. U, o`z navbatida, eng avvalo, nutq jarayonini lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligida o`rganadi va o`rgatadi.

Masalan: *Valyuta kerak! - shunday dedi-da, tugmachani bosgan edi, sertabassum xonim pildirab yetib keldi. - Janobga ... - Hamrohim menga imo qildi.*

- Moment ser ... Xonim ta'zim bajo aylab zirillab ketdi.

- Nega ... ikki shisha? - dedim talmovsirab.

- Men ham chanqabroq turibman. - Sashavoy qornini silab qo`ydi. ...

- O-key! Seven dollar! - kapitalist iljaydi.

- No! - No! - No!

- Siks dollar!

- No, kerakmas, menda olti dollar yo`q, ay xev onli fo dollar, faqat to`rt dollar! - dedim to`rtta barmog'imni dikkaytirib!

- O key! - kapitalist tag'in qo`limni qisdi. - Mayli, hozir fo dollar, qolganini ertaga tashlab ketasiz.

Qo`rqib ketdim.

- N-o-o! - dedim tajang bo`lib.- Biz ertaga uchib ketamiz. Ay vontin houm. Uyga! Tyu-tyu-tyu!!! Sovetyunion! Moskav!

- O-o-o! Sovetyunion! Suvenir, ser, suvenir! Qarasam, ko`ylakni qo`ltig'imga qistiryapti. Sadaqa qilyapti, shekilli?!

- No! - dedim yer tepinib. - No! Xohlasang fo dollar. Xohlamasang, katta ko`cha! Bunaqa ko`ylaklar bizda tventi sent - yigirma tiyin turadi, tushundingmi?

- O-key, ser! Fo dollar ... - kapitalist do`stona iljaydi. - Kofe, viski...

(O`.Hoshimov. 70-b).

Yuqoridagi matnni sotsiolingvistik nuqtai nazardan lisoniy va nolisoniy omillar yordamida tahlil qilish jarayonida o`quvchi muloqotda ishtirok etuvchilarni ko`z oldiga yaqqol keltiradi. Zero, til millat ko`zgusidir. O`zbek tilimiz o`z odobi, o`zbekona xulqi, rasm-rusumi bilan go`zaldir. Darhaqiqat, vatan, aslida, tildan boshlanadi. Istiqlol tufayli o`zbek millati, madaniyati dunyo yuzini ko`rmoqda, dunyoga yuz tutmoqda. Bugungi o`zbek mutaxassisi jahonning ilg'or mamlakatlari mutaxassislari bilan teng ravishda muloqot olib bormoqdalar. Davr millatlararo, mamlakatlararo muloqot ehtiyojini taqozo etmoqda.

Shunday qilib, sotsiolingvistika davr talabidan kelib chiqib hozirgi kunda katta odimlar bilan taraqqiy etmoqda. O`z mustaqilligiga erishgan davlatlarning o`z milliy adabiy tillarini yaratish, yozuvni asoslash, uni mukammallashtirish ishlari jadal olib borilmoqda. Fan va texnika taraqqiyoti, xalqaro savdo-sotiqning kengayib borishi, bir tomondan, tillarda baynalminal so`zlar sonining oshib borishiga sabab bo`lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy tillar bilan xalqaro til vazifasini o`tayotgan tillar o`rtasidagi to`qnashuvlarga, til chatishuvlariga (kreollashtirish, pijinlashtirish) sabab bo`lmoqda. Bu masalalar bilan ijtimoiy tilshunoslik shug'ullanishi, mazkur hodisalarning qonuniyatlarini ilmiy ravishda ochib berishi zarur.

Demak, F.de Sossyur aytganidek til "O`zi uchun va o`z ichida" voqe bo`lmasdan, u bir tomondan, o`z ichki qonuniyatlari asosida evolyutsion yo`l bilan rivojlansa, ikkinchi tomondan, tashqi tazyiqlar, ta'sirlar asosida ham rivojlanishi mumkin. Jamiyatda til qanchalik zarur bo`lsa, tilga jamiyatning bo`lishi ham shunchalik zarurdir.

Tilning mavqei, rivojlanishi uning muomalada bo`lishiga bog'liq. Til o`zining muloqot, bilish, ifoda vazifalarini bajarishi uchun uning o`z hududi, bu hududda yashovchi jamiyat, jamiyatning iqtisodiy bazasi bo`lmog'i darkor, zero, bu hudud, sodir bo`layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar, ma'naviy va mafkuraviy siljishlar tilga o`z ta'sirini o`tkazmay qolmaydi. Til kishilar o`rtasida asosiy muloqot vazifasi bo`lishi bilan bir qatorda, xalqning hayotiy tajribasini, an'anasi, milliy xarakterini va hatto bilim darajasini aks ettiruvchi ko`zgusidir. Har

bir jamiyat a'zosi sotsiolingvistik qoidalarni o`zlashtirib olishi kerak. So`zlovchining til malakasi har bir muayyan vaziyatda til vositalaridan mazkur shart-sharoitga to`g’ri keladiganlarini tanlay bilishiga qarab belgilanadi. Bunday masalalar bevosita ijtimoiy tilshunoslikning diqqat markazida bo`lishi tabiiydir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qachondan boshlab nutq va nutq madaniyatiga e'tibor kuchaydi?
2. Inson xarakter va xususiyatini qanday bilish mumkin?
3. Kimlar sotsiolingvistika bo`yicha izlanishlar olib brogan?
4. Sotsiolingvistik tadqiqotlarga ehtiyoj bormi?
5. Til taraqqiyotida ichki va tashqi omillar deganda nimani tushunasiz?
6. Ingerent o`zgarish nima?
7. Ijtimoiy tilshunoslik bilan an'anaviy tilshunoslikning farqi nimada?
8. Til tipologiyasi deganda nimani tushunasiz?
9. Standartlashtirish nima?
10. Hayotiylik nima?
11. Tarixiylik nima?
12. Avtonomlik nima?
13. O`zbek tili standart tillarga kiradimi?
14. Klassik, mahalliy, kreol, pijin, sun'iy tillarning farqi nimada?
15. Nima sababdan sotsiolingvistika jadal rivojlanmoqda?
16. Sotsiolingvistik tipologiya qanday o`lchovlar asosida tillarni turlarga ajratadi?
17. Pijin va kreol tillarning farqi nimada?

Amaliy mashg`ulotlarda tahlil uchun
MATNLAR

Yozuvchi

Shu payt yiroqdan - yo`lkadan yoshlikdagi do`stim Nurillaning sho`xchan ovozi yangradi:

-Salomalaykum, Polvon bobo! Qassoblikni yana boshlayapsiz-ku?... E, unday jotqizmaydi-e! Menga bering…

-O`ting-o`ting,- deydi otam. – Biz mol so`yib jurganda, siz otangizdi qulog`ida edingiz… Shukur keldi. Meymanam keldi. Odil aka degich. Tepada.

-Xa, esa, xarom tomiri esidan chiqib qolmasin…

-E boring-e, tajikti o`zbakka ish o`rgatganini qarang. Qondan qo`rqadi-yu bu.

-Men qo`rqar ekanmanmi? He, bosmachi… Yo`q, polvon bobo, nimaga meni tojik deysiz? Qatag`an qachondan beri tojik bo`lib qoldi? – astoydil kuyinib deydi Nurilla va ovozini ko`taradi. –Hozir yozuvchidan so`raymiz!

-Uyingizdayam jikkillab tajikchalab jotasiz-u, tag`in o`zbekman, deysiz.

-He, endi…

Onamning ovozi eshitiladi:

-Nurillajon, qo`ying u kishini. U kishi uchun qo`ng`irotdan boshqasi bekor.

-Shu-shu, sahroyi-da.

-Kecha gullarimni o`rib, molga berdi. Tavba… Yuqoriga chiqing…

-E, anavi kaptarbozmi? Kechirasan, kaklikboz, qalaysan? Burgutga o`xsha-ab qarab turibsan, a? Men kaklikka o`xshaymanmi? Sirayam o`xshamayman-da.

-Chiqing-e, ko`p gapirmay!-dag`dag`a qiladi Xayrulla. – Kapitan bo`ldim, deb, he, tilingiz uzun bo`p qopti. Bizga yazna bo`lzangizam qo`rqmayman…

-Qo`rqmaysan-a, qo`rqmaysan… Akangni hurmat qilaman-da! Yo`g`asam seni joying…

Shunda otam baqirib yuboradi:

-Hey, Nurilla, chiqsang- chiq to`baga! Bo`lmasa, mana bu arriq ekan, o`zingdi jotqizaman!

-Eshitdingmi, Nuri? –deb kuladi onam.

-O`lay agar, xolajon, faqat shu kishidan qo`rqaman,--deydi Nurilla va zum o`tmay, zinapoya tap-tup etadi-da, yozgi --oppoq militsiya kapitani formasida Nurilla kiradi. –Assalomu alaykum! Turmanglar! Odil aka, o`tiring-e… Xa-a, raxmat. Xush kepsiz endi? Qiynalmay keldingizmi? Uzoq yo`l, kun issiq… --Odil aka past dovushda nimalardir deydi. Anglaymanki, o`zining javobi emas, boshqalarning gap-so`ziyu savoli qiziqtiradi. –Ha, siz-chi Shukur? –deb men bilan so`rashadi do`stim. –Kelin –kepchik, bolalar, a? Hammasi joyida? Yaxshi…

Men Nurillaga choy uzataman. Odil aka esa unga manglayi ostidan boqib so`raydi:

-Siz qatag`an urug`idanmi?

-Chisti qatag`on, - javob beradi Nurilla jiddiy tortib. -Nimaydi, Odil aka?

-Yo`, o`zim, masalan… Kechirasiz, bu yerda qatag`onlar ham tojikcha so`zlashadimi?

(Sh. Xolmirzaev)

Bulut to`sgan oy

Husanjon shoshib kelib, stol chetiga kaftlarini tiragancha:

-Ketibtilar, -dedi. -Xizmat qilgan ofitsiantka takzi zakaz qilgan ekan. Kecha bizda yotmagan, administrator bilan ham gaplashdim.

-Him, o`tiring…Qayerga ketishganini aytmagan bo`lsa kerak? Taksi—shaxarda qatnaydimi faqat yo mejdugarodniylari ham bormi hozir?

-Hozir farqi yo`q, okajon, --dedi Husan. –Ommo-lekin bitta qarz gapni aytib qo`yishim kerak… Xonim, sizni ikki marta so`radilar. Ilgari kelishlaridayam so`rovdilar. Man sizni bir bor ko`rganimmi, siz ham u kishini so`raganizni aytuvdim. Hu, biron oylar muqaddam…

Gulsara miyig`ida jilmayib, sekin-sekin bosh irg`adi. Keyin menga qarab kuldi.

-Bir marta so`rovdim… Shu ko`rgim keluvdi-de ablah okeizni.

-Attang-attang, -dedim men. Ammo Gulsara ham uni ko`rishga, darhaqiqat, umidvor ekaniga shubham qolmadi. Bu esa, mening: "Gulsara ham uni sevib qolgan" deb hukm chiqarishimga asos bo`ldiki, ularni uchrashtirishni –do`stona burchim, deb hisobladim, (Biroq "burch"ning ijrosiyana cho`zilib ketdi…)

-Men tepaga chiqishim kerak, --dedi Husanjon. –Okamizzi endi qo`ldan chiqarmayman!

-Omon bo`ling.

-Ichkarigayam kirib turinglar… Mahalliy klientlar ja sanalib qolishdi. Hozir ham turislar o`tirishibdi.

-Bizgayam navbat kelar, --dedim.

-Kelmasayam o`ksimiymiz, --dedi Gulsara.

Kulishdik. Xusanjon ketdi. Men fujerlarga yana shampandan quydim.

(Sh. Xolmirzaev)

Natijalar

1.Xat. "Salom, Shukurjon!

"To`lqinlar"ni o`qidim. Asar menda yaxshi taassurot qoldirdi. Ma`murjonni tabassum bilan tasvir etasiz. Butun asar davomida qisqalikka intilasiz. Tasvir usulingiz ham menga ma`qul. Yozuvchilik ko`zingiz ochilib kelayotgani ko`rinib turibdi. Lekin asarning nomi, menimcha, to`g`ri emas. Ijodingiz baroridan kelsin.
Sizning Abdulla Qahhor"

2.Matyoqub aka Til va adabiyot institutiga direktor bo`lib tayinlanar ekan.

3.Saida - Ofeliya bilan gaplashdim.

Unga ota-onam va singillarimning yo`qlovini yetkazgach, to`yga ham tayyor ekanliklarini bildirdim. So`ngra uzrnamo jilmayib, ularning bo`lajak kelinlari haqida ko`proq narsa bilishni istashlarini bayon qilib, bu to`g`rida kursdoshim Naziradan so`raganimda, u sizni juda maqtagani, qarindosh-urug`laringiz juda obro`li kishilar ekan. Yo`g`ontepa tarafda urug`doshlaringiz ko`pligi va hokazolarni aytganini aytgach:

-Farg`onada bitta og`angiz bor ekan, --deb davom etdim. –Savdoning boshlig`i ekanlar…

-A-a, --dedi u qandaydir istab-istamay.

-Juda-a olijanob, saxiy odam ekanlar-u, sal dimog`dor ekanlarmi? Kechirasiz…

-Ichganda ayniydi, --dedi u keskin. –Amalga mingandan keyin, ayniqsa, ko`p ichadigan bo`p qoldi. Shuning uchun opam bir-ikki marta urishib beruvdilar, oyog`ini tortib ketdi.

-Tushunarli, --dedim.

Saida istehzoli kuldi.

-Bu narsa… biron narsani o`zgartiradimi?

-Qo`ysangiz-chi.

-Aytmoqchi, o`sha… yuborgan edi o`sha sovchilarni. O`tgan yili. Saida farg`onalikka teksin, der ekan… --U yana kuldi. Bitta o`zingiz yashavossizmi haliyam?

-Ha. Kvartiramni ko`rasizmi?

-Xmm, vaqt bo`lganda… Lekin opamlar bizni hovlida yashashimizni istaydilar, joy bor: alohida uy. Opam, buvim, mandan bo`lak hech kim yo`q.Buvim qarib qoldilar…

-Hmm, buni o`ylab ko`ramiz.

Bu fikr-taklif menga g`olibo ma`qul tushdi: demak, ijaraga uy izlab yurishlarim barham topar ekan. Va eng muhimi, domla aytganlaridek uylanish… ijod qilishga foyda bersa, nur ustiga nur: axir, pishirish-kuydirish, supurish-sidirish ko`p vaqtni oladi. Yozuvdan chalg`iysan. Yoningda sevimli xoniming bo`lsa…

Shunda o`zimni ta`magirlik yo`liga tushgandek tuyib qoldim-u, miyamga qaysi go`rdan "ichkuyov" degan so`z kirib keldi: tabiiy, men bu ish sharoit taqozosida bo`lajagi va albatta, vaqtinchalik ekani (axir, men ham uyli bo`lamanku?!), qolaversa, "ichkuyov" degan tushunchalar "eskilik sarqiti"dir, deb hisoblasam-da tag`in nimadir pinhona azob berayotganini his qildim: uyat hissimi, ormi…

Nihoyat, bu masala haqidagi xulosani orqaga surib qo`yishni ma`qul ko`rdim: onamlar kelishsin-chi…

Onamlar (ehtimol otam ham) sovchilikka kelishini "yozga", deb aytdim. Yana-da aniqrog`i, "Gamlet"dan qutulganimizdan keyin ularni chaqirajagim va bularning uylarigacha oborib qo`yajagimni aytdim.

Saida indamay bosh irg`ar edi.

4. "O`n sakkizga kirmagan kim bor…"ni yozayapman. Bu uychagayam o`rganib bo`ldim.

(Sh. Xolmirzaev)

Tog`larga qor tushdi

-- Sapxoz rahbarlari menga kun bermayapti. – U telpak qo`ndirilgan boshini egib, ammo do`laygan ko`zlarini mendan uzmay davom etdi : --Siz yozuvchi ekansiz , tushunasiz, deb keldim.

--Xo`sh ?

--Men darada turaman. Qishloqdan he chetda . O`zim kambag`alman . Bitta otim , bitta baytalim bor. Uch-to`rt bosh sigir, o`ttiz- qirq ta mayda mol.

--Kambag`al ekansiz.

--Ular otamdan qolgan, bobomdan qolgan.

--Xo`p.

--Mana, sapxoz. Yaxshi… Lekin Xidir Chorshanbiev eringni tortib olaman, deydi. Hali Boysundan milisa chaqiradi, hali zemlamer keladi . Hali sho`rodan odam boradi. Uyim-oyoqosti . Eringni uch hissasidan kech, deydi …Aka, arz qilib bormagan joyim qolmadi. Boysunniyam ko`rdim. Termizigayam bordim.

Toshkentgayam-a! O`lay agar, Moskvagayam murojaat qildim, bo`lmadi. Chorshanbiyev barini og`zini bog`lab tashlagan .

--O`zi qancha yeringiz bor?

--Ikki gektargina.

--Ko`p emasmi ?

--Otamdan qolgan , bobomdan qolgan .

--Unda …mendan nima talab qilasiz?

--Yordam bering .

--Yordam berolmayman .

--Axir, siz yozuvchuku ? Xalqning dardini tushunadigan …

--Sizning dardingizni tushunolmadim .

--Nahotki…

--Xo`p deng. Sizga Moskva yordam berolmagandan keyin men yordam berolmayman.

O`sha kuni Xidir kelganda , olako`z odam bilan oramizda o`tgan gaplarni aytdim. Xidir bosh chayqab :

--Shunday, --dedi . –Bular –yetmish yillar orqada yashab yurganlar. Lekin aka, bundaylar oz. Xalqimiz yaxshi.

Keyin Sa`dulla akagayam ush kishi haqida gap ochgandim : “E, sizniyam boshingizni qotirdimi u nodon?” –dedi. Keyin sovxozda ishlab qolayotgan yoshlarga yer berish kerakligi haqida gapirib ketdi-da, so`zini qiziq jumla bilan tugatdi: “ Direktorning joniga to`zim bersin”.

Bunda ko`p ma`no bor edi.

Uzi gap nimada edi?

…Qor .

Xullas, qalin tuman ichida oroldek bo`lib turgan tepalikka – mehmonxonaga kelib tushdik. Hamrohim Sobir Yodikov –rayon radiosining redaktori, jurnalist , hamkorlikda maqolalar yozganmiz. Ilgari ham meni bu yerga bir-ikki marta olib kelgan, mexmonxonada yashab turganimda ko`p marta xabar olgan edi.

Mehmonxona eshigi ochiq ekan. Losh – lushni ko`tarib kurdim . Tug`ri qadrdon xujraga bordim . O`sha-o`sha: hamma narsa joyida.

Sobirjon Sa`dulla akani chaqirgani ketgandi. Kelishdi. Ko`rishdik. Direktor kechga tomon qaytar ekan .

--Qor tushadimi, qor? Shundan gapiring ! Bu yil Toshkentga qor yog`mas emish! – dedi Sobirjon .

--Qormi? Qor bor . Katta tovlarda bor . Bu tovlargayam ertalablari tushadi, --dedi Sa`dulla aka.

Choponlamizni kiyib, tashqarida –enish yoqasida o`sgan yolg`iz gujum tagiga bordik.

(Sh. Xolmirzaev)

Ikki jahon ovorasi (Dialog-hikoya)

4. Xovli, uy, xona.

ERKAK (tizzasida o`tirgan bolaga tikilib). Qaysi birimizga ko`proq o`xshiysan? Mangami, oyinggami?
BOLA. Buvamga o`xshiyman.
ERKAK (ayolga). O`rgatibsan-de?
AYOL. O`zi o`xshiydi-de! (Quvnab). Qaysi kuni Albommi varaqlab o`tirib, dodangizni yoshlikda tushgan suratlarini ko`rib qoldi. “Bu kim? Bu kim?” deb so`rayverdi. “Buvang”, dedim… Oziga o`xshatgan-de! Haqiqatan ham o`xshiydilar.
ERKAK (xayolchan). Raxmatli nevara ko`rishni orzu qilardi… (Bolaga). Xo`sh, mani yaxshi ko`rasanmi, oyingni?
AYOL. Tavba, shunaqa bema`ni savollarni bermang. Nima qilasiz uning ko`nglini bo`lib?
ERKAK. San jim tur.
AYOL. Kayfingiz bor. Bolani bering… Ke-ke, jonim. Boqqa chiqovuz. Kachelada uchasan.
ERKAK (bolani tizzasidan tushirib). Bor. Kachelada uch… Arg`imchoq deydilar o`zbekchasiga. O`zbek tili –Davlat tili bo`pti-yu, oying haliyam o`rischa gapiradi.
AYOL. Ichkariga kiring. Uxlang… Nega obedda ichib oldingiz? Ish ham qop ketti deng…
ERKAK. Shuncha ishlab, nima topdim, xotin? Puldan boshqa hech narsa…
AYOL. Tavba, bir so`mga zorlar bor…(Birdan). Mana muni topdingiz? Shu yetmiydimi?
ERKAK (Ishshayib). Yetmayroq turibti-de.
AYOL. Bo`ldi, ko`p gapirmang. O`g`limiz beshga kirdi. Hamma narsani tushunadi.
BOLA. Man buvamga o`xshiyman.
XOTIN. Mangayam o`xshiysan, dadanggayam o`xshiysan… Yur, dadang ichib kelganda, gaplashma, xo`pmi? (To`ng`illab). Bunaqa odati yo`q edi. Hayronman.
ERKAK. (Ayolning orqasidan). Ha, san hayronsan. (Biroz tin olib) O`zim ham hayronman… (Kresloga yastanib). Bir yoqlarga ketsang, hech kim bilan gaplashmasang… (Televizorni qo`ygich uskunani olib, tugmalariga tez-tez bosadi. Qarshisidagi televizor ekranida o`ynab-chopqillab yurgan bolalar ko`rinadi. Keyin ikkita farzandining ikki qo`lidan ushlab kelayotgan kishi ko`rinadi. Kishi mamnun. Erkak to`ng`illab). Bilamiz, o`g`illariz bor ekan. Maqtanmang… Kim biladi hali bulardan shipana chiqadimi… Uf, balki ministr chiqar, hokim chiqar. Hamma narsa bo`lishiu mumkin. Gap bug`doyda…

(Sh. Xolmirzaev)

O`zbek bobo

… A-a, uning otasi ham kambag`alparvar rais edi. Rahmatli, -dedi Amirqul polvon va yigitning gapini bo`lgandek unga uzrli termuldi. –Gapir, darding ko`pga

o`xshaydi… Ey, kechirasan meni, bolam. Bu yerda tik turib lo`liga o`xshab gaplashib yotishimiz bo`lmas ekan. Jur, Anavu ayvonga borayik.

--Yuring, yuring, bobojon, -Qismatillo qo`li bilan yo`lkani ko`rsatdi.

--E, tortabermaysanma, -deya yigitning yelkasidan itardi chol. –U yaq- bu yaqqa qara. Bog` qalay bo`pdi? He, jonivor daraxtlar… Ajab bir mo`jiza bo`lar ekan-da bular… Ha gaping ovzingda qoldi!

Yo`lkaga tushib ikki odim otgan Qismatillo endi oshkor yig`lamsirab cholga burildi.

--Men, men… Qornimga emas, qadrimga yig`layman, bobojon. Shu Mustaqillikni bir umr orzu qilib, maktab bolalariga tashviqot qilib, vigovorlar olib, ma`naviyatdan saboq bergan ahmoq ham men bo`laman. Men!-deya ko`ksiga bir musht urdi. –Endi bo`lsa uning huzurini boshqalar ko`ryapti. Qandaydir dorning ostidan qochganlar…. kimsan tijoratchi bo`lib ketdi. O`zi-olib sotar… Hayronman! –Endi bog`dan hayron qolgandek atroflarga qaradi. –Qayoqqa qarashadi tepadagilar? Qiziq. Bilganingni qil, deb qo`yibdi. Ular bo`lsa zanjirini uzgan quturma itdek hamma yoqqa tashlanib… --Shunda birdan qo`l siltadi. –Ay-y, o`lib ketmaysanlarmi! Qolaversa, o`zim kimmanu, gapim qayerga yetadi? Siyosatiniyam tushunmay qoldim. –Keyin birdan kulib, negadir qariyaning qo`ltig`idan olmoqchi bo`ldi. Qo`li yetgan joyiga yetdi-da cholning beqasam to`ni tirsagidan ushlab: –Xayriyat, menga Ma`naviyat va madaniyat qo`mitasini tavsiya qildi. Ana shu urug`doshingiz tashkil qilarkan. Bilmadim, siylaganimi bu oxiri sharmanda bo`lsin deganimi. Ishqilib hiyla jiddiylashib kipriklari pirpiradi,- ishli bo`ldik. –Endi ishni boshlash qoldi, xolos. Bu sohada tajribayam yo`q…

--Jur-jur, tajribayam asta-sekin bo`ladi.

--Bo`ladi, deb g`ishtlar ustidan keta boshladi Qismatillo. –Ammo ungacha odamni qaritib tashlaydi-da… bu hayot! Uf, ishqilib, siz ham…

--Bog`ni so`rama paqat… U gaplarni qo`y, dedi chol. –Egasiga nasib etsin joyi.

-Albatta, albatta, -deya to`ng`illagancha ho`kiz kallasidek keladigan tosh-zinani bosib, ayvonga ko`tarildi Qismat. –Nasib etsin iloyi… ha, to`xtab qoldingiz? Chiqing!

--E, chiqqim kemayapti. Ichiyam bir ahvolda jotqandir. Mayli, sen kirib ko`r. Eshigi ochiq, qulfi jo`q, -dedi Amirqul polvon va keskin burilib, yana boqqa yuzlandi.

(Sh. Xolmirzaev)

Daftar hoshiyasidagi bitiklar

Ushalmas orzu

Qaniydi, yoshligingda keksalardek donishmand, keksayganda yoshlardek baquvvat bo`lsang…

Aql va til

Goho aql qancha qisqa bo`lsa, til shuncha uzun bo`ladi…

Tuhfa emas

Mustaqillik berilmaydi. Mustaqillik olinadi!

Unutmang

Ona tilini unutmoq –o`z onasini unutmoq demakdir.

Vatan tuyg`usi

Qaysi yurtda non arzon bo`lsa, o`sha yerga ko`chib yuradigan odamda Vatan tuyg`usi bo`lmaydi.

Tanishuv

“Jiring-jiring!”
--Labbay, eshitaman.
--Allo, kim bu?
--Assalomu alaykum. Kechirasiz kim kerak sizga?
--Kim bu o`zi?
--Uzr, kimni chaqiray?
--Kim bu deb so`rayapman?
--Kim kerak axir?
--Sendan so`rayapman: kim san?
--E. Bor-e o`zing kimsan?
--Esh-sh-ak!
--Tanishganimdan xursandman, ammo bu yerda sizning qavmlaringiz yo`q. Xex!
“Tut-tut-tut…”

Shukr qilgan…

Bir sinfdoshim bor edi. Otasi “katta joy”da ishlar, badavlat yashashardi. Mahallada birinchi bo`lib televizor olishgandi. Sinfdoshim yaxshi o`qirdi. Yettinchi sinfni bitirgan kuni mototsiklli bo`ldi. Maktabni oltin medal bilan tugatdi.

Yillar o`tdi. Bir kuni ko`rishib qoldik.

-Ishlar qalay? –desam, Zarda bilan qo`l siltadi:

-Rasvo! Domlam o`lgudek maraz! Kandidatlik ishimni cho`zib yotibdi.

Yillar o`tdi. Tag`in ko`rishdik.

-Ishlar qalay?

-Rasvo! O`g`lim ko`p ichadi. Kecha yap-yangi mashinani pachag`ini chiqarib keldi!

Yillar o`tdi. Yana ko`rishdik.

-Ishlar qalay.

-Rasvo! Qizimning turmushi notinch. Qaynonasi yomon. Sudlashmoqchiman.

-Yillar o`tdi. Sinfdoshim betob deb eshitdim. Shifoxonaga borsam, rangi bir xolatda yotibdi.

-Ishlar qalay!

-Rasvo! Qand kasali degan palakat adoyi-tamom qildi. O`lib o`lmayman, tuzalib tuzalmayman!

Tavba, deb gapiray-ku, farishtalar omin, degan ekanmi, uzoqqa bormadi, bechora…

Yana bir sinfdoshim bor edi. Otasi urushdan yarim jon bo`lib qaytgan, to`kilib ketay deb turgan kulbada turishardi. Yaxshi o`qirdi. Lekin medalga "ilinmada".

Yillar o`tdi. Bir kuni ko`rishib qoldik.

-ishlar qalay!

-Xudoga shukr, zo`rman! Mebel fabrikasida ishlayapman. Kunduzi duradgorlik qilaman. Kechasi uch kunda bir qorovulman. Yaqinda velosiped oldim.

Yillar o`tdi. Yana ko`rishdik.

-Ishlar qalay!

-Xudoga shukr zo`rman! Qizim farzand ko`rdi. Nevaramga beshik olishga ketyapman!

Yillar o`tdi. Sinfdoshim betob deb eshitdim. Xuddi o`sha, boshqa sinfdoshim yotgan shifoxonada ekan. Rangi bir xolatda.

-Ishlar qalay!

-Xudoga shukr, zo`rman. Buyrak jinday shamollabdi. Bergan dardiga shukr!

Yaqinda uni tag`in ko`rdim.

-Ishlar qalay!

Xudoga shukr, zo`rman! To`ng`ich nevaramning bo`yi cho`zilib qoldi. Xudo xohlasa, besh-olti yilda nevara kuyov ko`raman. To`yga borasan-a?!

«Mushtipar»

-Mumkinmi? Gud moning! Salom!

Ruxsatingiz bilan o`zimni tanishtirsam. Jonetta Kabulovna Xaltaeva… Men, k sojileniyu, sizning sochineniyalaringizni o`qigan emasman. Xotya eshitganman. Mamashkalar to`g`risida yozarkansiz…

Mening ham to`rtta bolam bor… Nima? "Unaqaga o`xshamaydi-ku", deysizmi? Raxmat, kompliment uchun! Hamma shunaqa deydi. Men mamamga o`xshayman. Mamam oltmish yoshidayam oppitetniy edi. Kak kukolka!

Kechirasiz, olovingiz bormi?... Yo`q-yo`q, men "More" chekaman… Senkyu! Zajigalkangizga gap yo`q!

Itak, to`rtta bolam bor. Maratik-Nukusda. Internatda. Yoshi…Minutochku… Yoshi po moemu… o`n to`rtda. Shu yil o`nt o`rtga kiradi. Papasida o`xshagan krasafchik, Maratik Smugliyligi, ko`zlarining razrezi. Birinchi vstrechamiz praktikaga borganimda bo`lgan. Zam ministr edi papasi. Shunaqa abayatelniy,

Intelligentniy!... Ikki yilcha turdik… Stilivizovanniy ajrashdik. To`g`risini aytdi. “Jannochka, jonim, dedi, bu yog`I prokol bo`ladiganga o`xshaydi, xotinim jaloba yozibdi, dvoejonstva uchun ishday xaydashlari mumkin”, dedi. Bilasiz, u paytda bunaqa masalalar strogiy edi. “Maratik uchun volnovatsiya qilma, o`zim opekamga olaman, sen toshkentga ketaver, regulyarno borib turaman”, dedi. “O-key” dedim…

…Nigorochka- Samarqandda. Tois, Nigorochka emas, Nargizochka! Nigorochka-Qo`qonda…

Gde-to ikki yil oldin Samarqandga bordim. Nargizochkaning detdomiga kirdim. Detdommiga kirdim. Detdom tak sebe, ammo direktori nishtyak ekan. Dilda! Bo`y pachti ikki metr! “Bratan, dedim, Nargizochkadan xabar olishim qiyin, ishim ko`p”, dedim. “Xotirjam bo`ling, Nargizochkaga o`zim otalik qilaman”, dedi. Uch kun mehmon bo`ldim. Krutoy erkak ekan! Molodes!

Nargizochkaning papasiyam krutoy edi. Mejrayonniy neftebazada director bo`lib ishlardi. Yoshi ellikdan oshgan bo`lsayam kak ogurchik edi! Samarqandning paxani edi. Xotinidan qo`rqmasdan shikkarniy to`y qildi. Restoranda! Yomon yashamadik. Qamalib ketgani chatoq bo`ldi… O`sha yoqdan “ksiva” yuboribdi. Kak budto hammasiga men vinovata emishman. E, to`kil, dedim! Benzinga diztopolivo qo`shishni senga men o`rgatdimmi, dedim.

Ammo Nigorochkadan anchadan beri xabar ololganim yo`q. Qo`qonga yo`lim tushmayapdi. Otasi predprinimatel edi. Takoy paslushniy… “Jaxon bozori”da oltita “tochkasi” bor edi. Qarasam, menga notatsiya o`qiydigan odat chiqardilar. Har kuni ming`irlaydi: Jannatxon, nomaxramlar bilan gaplashmang, xuftondan keyin ko`chaga chiqmang … Tomi ketgan fanatic! E sirpan, dedim! Obbergan bir xonali kvartiranga kak durochka ikkinchi xotin bo`lib o`tirishim kerakmi!

…Kechirasiz, yana olovingizdan… Senkyu! Mejdu prochem, zajigalkangizga gap yo`q!.. Ko`p chekasizmi? Shavkatikning papasi ham ko`p chekardi… Mana buni nastoyashshiy mujik desa bo`ladi! Qomat bespodobniy! Biznesni sindirib qo`yadi! Hamma ishi “doda”! To`rtta xotinni vot tak obespechit qip qo`ygan! Razumeetsya, zagsimiz yo`q edi. O`sha yoqdagi bratanlardan surishtirsam, bizlar ne v kurse delo, deydi…

Shavkatik - o`zimda. Ikki yoshga chiqdi. Shustriy. Xodyachiy bomba! Mejdu nami, Bir gap aytaymi? Uyga notanish “dyadya”lar kelsa, halitdan meni revnovat qiladi, parazit! Kstati, fazendamga bormoqchi bo`lsangiz, zaranee “zvyaknut” qip qo`ying. “Xodyachiy bomba”ni babushkasinikiga yuboraman, o-key?

Vobshem mayli. Bliji k delu! Menga sizning paddejkangiz kerak. Hokimiyatga zayavlenie bergan edim. “Men mat-odinochaman. Shahar markazidan kvartira berishingizni so`rayman” deb. Borsam, bir patsan o`tiribdi. O`n kundan keyin keling, dedi. Bugun borsam, nima deydi, deng? “To`rt xonali uyingiz bor ekan-ku”, deydi! Men uni sening pulingga olgan edimmi? Xudoga shukur, boshimda erlarim, toist erim bor… Toist bor edi. Bu uyni o`zimning pulimga sotib olganman! O`n besh ming “baks”ga! Tag`in nima deydi, deng! “Opajon, monetniy dvordan chiqib keldingizmi, hamma yog`ingiz brilliantku”, deydi! Menga

kompliment qilyapdi, soplyak! Brilliantni sen sovg`a qip qo`yipsanmi! Erlarim obergan! Ayol boshim bilan biznes qilyapman. “Chelnok”gta boryapman. Pekinga. Stambulga. Dubayga… Osonmi? Har qadamda “ment!” “Dolya”sini bermay ko`r-chi!

Kstati… Dubayda bo`lganmisiz? Obyazateno boring! Texnika-pochti darom! Tilla-navalom! Arablar temperamentniy bo`… Nu mayli, Bunisi nevajno…

Koroche, hokimiyatdagi o`sha patsan “Sizga uy yo`q, qayoqqa borsangiz katta ko`cha”, dedi. Shunu boplab bir feleton qiling! Ayol kishini unijat qilishi qanaqa bo`lishini bilib qo`ysin! Familiyasi… Minutochku… Yozib olganman…

…Nima? Yozmaysiz? Tois kak yozmaysiz? Nima? Nima dedingiz?! “Men inkubator tuzatadigan usta emasman”, dedingizmi? Kim “inkubator?” Nega ayol kishini haqorat qilasiz! Naxal! Pisaka neschastniy! Ma, zajigalkang boshingda qolsin!

«Duogo`y»

Said Ahmad aka boshchiuligida bir guruh adiblar olis tog` qishlog`iga bordik. Mehmonga chaqirishdi. Uy to`la odam. Davra boshida to`rvadek soqoli ko`ksiga tushgan qariya o`tiribdi. Hamma unga ta`zim bajo qiladi. Davraga kim kelib qo`shilmasin chol uzundan-uzoq duo o`qiydi. “Sen ham mening yoshimga yetib yurgin, bacham”, deb fotiha tortadi.

Bir xil duo takrorlanavergach, Said Ahmad aka so`radi:

-Necha yoshga chiqdingiz, taqsir?

-Menba? –dedi dedi chol salmoqlab. –ikkam jetmishga bordim!

-Voy bo`-o`-o`!-dedi Said Ahmad aka bosh chayqab. –Agar sening duoying mustajob bo`lsa men sakkiz yil avval o`lib ketishim kerak ekan-da, ukam? Men yetmish oltiga chiqdim! Turaqol endi, joy almashamiz!

Behi

Namanganlik shoir Habib Sa`dulla bilan ish xonada suhbatlashib o`tirsak, said Ahmad aka qo`ng`iroq qilib qoldi. Habobjon kelganini eshitib, bog`iga taklif qildi.

-Bir soatda yetib kellaring, osh damlab qo`yaman.

Borsak, chindan ham osh damlangan ekan.

-Behiyam soldim, -dedi ustoz maqtanib. –Yesang, og`zingda erib ketadi! Jonivor o`ziyam boshini yeb meva soldi-da, bu yil!

Dachada behi borligi esimga tushib gapni aylantirdim.

-Qorong`i tushib qolyapdi, kech qolsam uydagilar xavotir olmasmikan.

-Said Ahman aka jo`yali maslahat berdi:

-Ana telefon! Qo`ng`iroq qil, menikida o`tirganingni ayt. Osh bo`lyapti de.

-To`g`ri-ku, -dedim “ma`yus tortib”. –Uydagilar sizning bog` hovlingizda o`tirganimizga ishonadi. Osh bo`layotganigayam ishonadi. Ammo ustoz oshga behi solibdilar, dachadagi behi “boshini yeb” meva qipdi, desam baribir ishonmaydi-da!

-Obbo, har kelganingda bir nima yulib ketmasang, ko`ngling joyiga tushmaydi-a! –Said Ahmad aka shunday deb, o`rnidan turdi. Alla qayerdan yelib

xalta topib chiqdi. –Sen Habib bilan choy ichib o`tirgin, xo`pmi? –dedi bog` tomon yurib. –Qorong`u tushmasdan senga o`zim behi uzib beraman.

Bunaqa “mehribonchilik” bejiz emasligini bilib, sekin ketdan bordim. Qarasam, bitta behini shohdan uzyapti-da, ikkitasini yerdan olib qopchiqqa solyapti. Iriganroq, Zah yeganroq…

-Ustoz! –dedim ikki qo`limni ko`ksimga qo`yib.

-Odamni unaqa hijolat qilmang, ustoz! Shu behi savilni o`zim uza qolay, ustoz!

-Said Ahmad aka keskin bosh chayqadi:

-Yo`-yo`-yo`, san urinma! Mening qo`lim chang bo`lishga bo`ldi. Qara, ko`ylaging oppoqqina ekan!

-Sizning tabarruk qo`lingiz chang bo`lgunucha mening oppoq ko`ylagim yirtilib, dabdalasi chiqqani yaxshimasmi? –dedimu, eng sarhil behilarni uzib xaltaga solaverdim.

Qopchiq to`lavergan sari oqsoqolni peshanasi tirishib ketayotganini ko`rib, chapni chalg`itdim.

-Ustoz! Anavi tepa shoxdagi behini qarang! Naq Nosir Fozilovning kallasidek keladi-ya! Narvon qayoqda edi?

San topolmaysan, o`zim olib kelaman! –Said Ahmad aka shahdam qadamlar bilan nari ketdi.

Shoxga tarmashib, tag`in uch-to`rtta behi uzgan edim, yon bosh tomondan ustozning ovozi keldi:

Munday qarasam, Said Ahmad aka zanglab ketgan kattakon arrani qo`ltiqlab turibdi.

-Ushla! –Arraning bir dastasini menga uzatib. Bir tomonidan sen tort. Bir tomonidan men tortay… Senam qutulasan, menam qutulaman, behiyam qutuladi!

«Aqling yetmagan narsaga ishonma»

Jamiki ijodkor qavmiga tekkan “kasal” dan Said Ahmad aka ham benasib qolmagan: maqtovni yaxshi ko`radi. Jinday tanqid qilsangiz baloga qolasiz! Ustoz, biror narsasi gazetada chiqib qolsa, darrov shogirtlariga qo`ng`iroq qiladi:

-Habaring bormi, bugun falon gazetta klassik hikoya chiqdi! Darrov o`qi!

Navbatdagi hikoyasi chiqqan kuni ham shunday qildi.

-O`qi, bolam, o`qi! O`ziyam ja-a-a “obborganman”. Bunaqa asarni mendan boshqasi yozolmaydi.

O`qidim. Hikoya chindan ham juda ta`sirchan edi, Stalin lagerlarida azob chekkanlar qismati butun dahshati bilan tasvirlangan… Hikoyani o`qib bo`lmasimdanoq ustoz tag`in qo`ng`iroq qildi.

-Qalay, “obboribmanmi?”

-“Obborishga obboribsiz-ku”, bir joyida jinday “qovun tushibdi”, -dedim rostini aytib.

Said Ahmad akaning ovozi darrov o`zgardi.

-San o`zi, mani ko`rolmaysan. Har narsadan bir ishkal qidirasan.

-Bo`g`ilmang, ustoz, bo`g`ilmang, -dedim hovuridan tushirish uchun. –Ammo kitobga kiritayotganda baribir o`sha joyini tuzatish kerak… Siz tasvirlagan voqea qishda bo`ladi. To`g`rimi?

-To`g`ri, -dedi Said Ahmad aka. –Qahraton qishda bo`lgan. Hammasini o`z ko`zim bilan ko`rganman.

-Ishonaman, oqsoqol, ishonaman. Shunday qilib, qahraton qishda qamoqdagi barakka o`t ketadi, to`g`rimi? Noinsof dejurniy yuqoridan buyruq bo`lmaguncha barak eshigini ochmayman, menga desa hammasi yonib ketsin, deydi. Qancha odam jarohatlanadi, zaharlanadi, bir o`zbek yigit bechora kuyib o`ladi, to`g`rimi?

-To`g`ri, -dedi ustoz. –Mahbuslar paytavasini quritish uchun pechka ustiga ilib qo`ygan. Shundan o`t chiqqan. Jez qazg`onning qishini ko`rmagansan-da! Izg`irinda hangragan eshak shamollab "vaspaleniya lo`kki"lab tarashaga aylanadi-ku!

-Bunisini tushundim, oqsoqol. Shunday qilib o`lgan yigitni qorga opchiqib tashlaydilar. To`g`rimi? Ertasiga muzlagan yerni ming mashaqqatlar bilan kovlab go`r qaziydilar. Mayitni ko`mgach, buhorolik ikki askar bola Qur`on tilovat qiladilar, to`g`rimi?

-To`g`ri. Bizga o`xshagan mahbuslar tilovat qilsa baloga qoladi-da!

-Qur`on tilovat qilayotganda osmonda uchib yurgan to`rg`iylar qabriston ustiga kelib, muallaq turib qoladi. Hatto, sayrashni ham bas qiladi, to`g`rimi?

-To`g`ri. Shu… bolam, to`rg`ay ja-a aqilli qush bo`larkan-da!

-Shunaqa-ku, ustoz, qahraton qish bo`lsa, muzni ko`chirib, go`r kovlashgan bo`lsa, eshakni "vaspalena lo`kki" qiladigan sovuq bo`lsa, to`rg`ayga balo bormi?

Ustoz bir lahza sukutga ketdi. Chamasi, nima deyishni bilmas edi. Ammo zum o`tmay telefondan zardali ovoz keldi:

-San, yaramas, aqling yetmagan narsaga aralashma, xo`pmi? Mani to`rg`aylarim "zimniy" to`rg`ay! Yozda ketib qishda keladi, tushundingmi? I vapshe bunaqa mayday-chuyda gaplarni ko`tarib yurma, xo`pmi?

…Shunday deyishga dedi-ku, ammo hafta o`tmay hikoyaning o`sha joyini qoyilmaqom qilib tuzatib qo`ydi.

Isaning alami Musadan

Bir gal dam olishga borganimizda ulfatchilik "shaxmat jangi"ga to`g`ri kelib qoldi. Ozod aka sanatoriydagi hamma shahmat ishqibozlarini pistadek "chaqib" tashladi. Ammo o`sha kuni puxtagina raqibga duch keldi. Ko`rinishidan oddiy traktorchiga o`xshagan yigit balo ekan! Domla har chand urinmasin, hali beri "chaqiladigan" ko`rinmasdi.

Shu orada beshariqlik yigitlar osh qilishdi. Domla narigi so`rida hamon "jang" qilish bilan ovora. Mehmonlar "domla ayting, kelsinlar endi", deb iltimos qilishdi.

O`yinni birpoas tomosha qilgan bo`lib, yigitlarnin iltimosini aytdim.

-Mezbonlar ovqat tayyor bo`ldi, deyishyapti, domla.

Ozod aka "xo`p" dediyu poshini ham ko`tarmadi.

Oradan ancha o`tdi. Bir mahal mezbonlardan biri keldi.

-Yuraqoling, domla, birpas suhbatingizni olaylik.

Domla battar qovog`i osilib “xo`p” dediyu hayoli hamon shahmatda.

Shu orada yanga yaqin keldilar.

-Yigitlar ovqat suzishdi, domla…

Ozod aka qayrilib ham qaramadi.

Ohiri mening oilamni “elchi” qilib yuborishdi, shekilli, ayolim uch-to`rt qadam narida to`xtab, domlaga emas, menga murojaat qildi:

--Mezbonlar ketaman, deyishyapti, adasi, nima qilaylik?

Huddi shu payt raqibi ot surib “shoh!” dedi.

Ozod aka shaht bilan boshini ko`tarib menga chaqchaydi:

` -Xotiningiz buncha ko`p gapiradi-a, boshqa xotin olsangiz bo`lmaydimi?!

Ibtido va intiho

U eshikdan kirib kelganida hech vaqosi yo`q edi. Bir parcha matoga o`rab, beshikka soldilar. O`sdi. Ulg`aydi. Mol-dunyo topdi. Antiqa jihozlar oldi. Uy soldi. Bir qavatli. Ikki qavatli, uch qavatli… mashina oldi. “Volga”. “Neksiya”. “Mersedes”. “Yaguar”… Dacha qurdi. Saunasi bilan. Basseyni bilan. Massajxonasi bilan. Mayshat qildi…

Birovga yaxshi ko`rindi. Birovga yomon ko`rindi…

U eshikka kirib ketayotganida hech vaqosi yo`q edi.

Bir parcha matoga o`rab, “beshik”ka soldilar-da, so`ngi manzilga eltib qo`ydilar…

«Donishmand» sichqon

“Oshkoralik” degan narsa udum bo`lgan kezlari g`aroyib toifa paydo bo`ldi. Har majlisda, so`zga chiqmasa, qulog`ini kesadilar. O`zi o`g`ling tengi keladiyu, Otangdan zo`r nasixat qiladi.

-Undoq qilmoq kerak! Mana bundoq qilmoq kerak! Shu gapga qo`shilmaganlarni yo`q qilmoq kerak!

…Qadimiy hangoma yodimga tushadi.

Sichqonlar kengash to`plab mushukdan qutilish yo`lini izlabdi. Bir sichqon bag`oyat dono fikr aytibdi:

-Qo`ng`iroq topish kerak! Qo`ng`iroqni mushukning bo`yniga ilib qo`yish kerak! Mushuk qayerga borsa, qo`ng`iroq jiringlab turishi kerak! Biz qo`ng`iroqni eshitib qochib ketishimiz kerak! Oxiri, mushuk ochidan o`lishi kerak! Shu gapga qarshi chiqqan sichqonlarni dumini kesish kerak!

Hamma qoyil qolib, unga “donishmand sichqon” degan unvon berishibdi. Majlis oxirida bir sichqon so`rab qopdi:

-Hammasi yaxshiku-ya, o`sha qo`ng`iroqni mushukning bo`yniga kim iladi?

Shu gap chiqishi bilan sichqonning ini ming tanga bo`lib ketgan ekan…

Albatta, maslahat berish yaxshi, ammo uni bajarish qiyin. “Falon ishni qilaman” degan so`z bilan “falon ishni qildim” degan so`z orasida yuz chaqirim masofa bor…

(O`.Hoshimov)

Mavzuni o`zlashtirish uchun qo`shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Тошкент: «Ўзбекистон», 1990.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Тошкент: «Ўзбекистон», 1996.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Тошкент: «Ўзбекистон», 1997.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Тошкент: «Маънавият», 2008.
5. Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? -Тошкент. 1978.
6. Абдураҳмонов Ҳ., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. –Тошкент: «Фан», 1981.
7. Бегматов Э. Номлар ва одамлар. –Тошкент: «Фан», 1968.
8. Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилнинг шаклланиши ҳақида. –Тошкент. 1999.
9. Бегматов Э. Номлар ва одамлар. –Тошкент: «Фан», 1966.
10. Бегматов Э. Нотиқнинг нодир бойлиги. -Тошкент. 1990.
11. Бектемиров Ҳ., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. –Тошкент: «Фан», 2002.
12. Бодун де Куртене И.А. Языкознание (Избранные труды по обшему языкознанию) Т.2. -Москва. 1963
13. Бондолетов В.Д. Социальная лингвистика. -Москва. 1987
14. Веселитский В.В. О некоторых понятиях правильной речи. Вопросы культуры речи. №6. 1961.
15. Вопросы социальной лингвистики. -Ленинград. 1969
16. Дешериев Ю.Д. Социальная лингвистика. -Москва. «Наука» 1977.
17. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. –Тошкент: «Фан», 1958.
18. Жамолов Х. Нотиқлик санъати. –Тошкент: «Ўзбекистон», 1978.

19.Иброҳимов И. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. –Тошкент: «Фан», 1972.
20. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одобининг мулоқот шакллари. Номзодлик диссертацияси автореферати. -Самарқанд. 1993.
21.Кайковус. Қобуснома. -Тошкент: «Ўқитувчи», 1986.
22.Колшанский Г.В. Паралингвистика. -Москва: «Наука», 1974.
23.Қошғарий М. Девону луғотит турк. Т.I. -Тошкент. 1960
24.Маҳмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. -Тошкент. 1997
25.Маҳмудов Н. Тил. –Тошкент: «Ёзувчи», 1998.
26.Маҳмудов Н. Маданий нутқ муаммолари. -Тошкент: «Шарқ», 1999.
27.Маҳмудов Н., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. -Тошкент. 2000.
28.Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. –Тошкент: «ўқитувчи», 1992.
29.Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Докторлик диссертацияси автореферати. -Тошкент. 2000
30.Мўминов С. Сўзлашиш санъати. -Фарғона. 1997.
31.Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. -Тошкент. 1993.
32.Никольский Л.В. Синхронная социолингвистика. -Москва. 1976.
33.Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. –Андижон. 1980
34.Поливанов Е.Д. Статьи по языкознанию. –Москва: «Наука», 1968
35.Раджер Т. Белл Р. Sotsiolingvistika. М. 1987
36.Рустамов А. Сўз хусусида сўз. –Тошкент. 1987.
37. Содиқова М. Нутқ этикаси (Сўз одоби). –Тошкент. 1972
38.Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. -Самарқанд. 2007.
39.Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши. Номзодлик диссертацияси автореферати. –Тошкент. 1993.
40.Содиқова М., Жўраева Ж. Сўздан сўзнинг фарқи бор. –Тошкент. 1966.
41.Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. -Москва. 1997.
42.Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Уч томлик. –Тошкент. 1997.
43.Усмонов С. Умумий тилшунослик. -Тошкент. 1972.
44.Тожиев Ё. ва бошқалар. Ўзбек нутқ маданияти ва услубият асослари. –Тошкент. 1994.
45.Тожиев Ё. «Нутқ маданияти» ва «Нотиқлик санъати» курсларининг ўрганилишига доир. -Тошкент: «Шарқ», 1999.
46.Эргашев Й., Мўминов С. Дили покнинг тили пок. –Фарғона. 1997.
47.Хоназаров Қ. Тил ва дил. –Тошкент: «Ўзбекистон», 1991.
48.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик. –Москва. 1981.
49.Ўринбоев Б. Сўзлашув нутқи. –Тошкент: «Фан», 1979.
50.Ўринбоев Б., Солиев А. Нотиқлик маҳорати. –Тошкент: «Ўқитувчи», 1993.

51. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент. 1983.
52. Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. –Тошкент: «Ўқитувчи», 1993.
53. Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. –Самарқанд. 1985.
54. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Тошкент: «Ўқитувчи», 1992.
55. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент. 2002.

Mustaqil ish uchun mavzular

1. Til va jamiyat o`rtasidagi munosabatlar.
2. Tilda millatning ijtimoiy guruhlanishi.
3. Jamiyatda ilmiy asoslangan til siyosati.
4. Struktural tilshunoslik.
5. Milliy tillarning shakllanishi va rivojlanishi.
6. Qardosh va qardosh bo`lmagan tillarning bir-biriga ta`siri.
7. Mikro va makrosotsiologiya.
8. Sotsiolingvistik tadqiqotlar.
9. Tilning o`zgarish nazariyasi.
10. Til taraqqiyotida ichki va tashqi omillar.
11. Sotsiolingvistik til tipologiyasi.
12. Tillarning tipologik tasnifi.
13. Sotsiolingvistikaning taraqqiyotidagi asosiy omillar.
14. Boshqa tillardan so`z o`zlashtirishning ijobiy va salbiy tomonlari.
15. Tillarning hozirgi davrdagi taraqqiyoti.
16. Horijiy tillarda sotsiolingvistikaga bo`lgan e`tibor.
17. Tilda kompensatsiya qonuni.
18. Struktural va areal tipologiya.
19. Sotsiolekt va nutq.
20. Nutqning etnosotsiopragmatik asoslari.
21. Lisonshunoslik va nutqshunoslik.
22. Tilshunoslikda muloqot birligi.
23. Nutqiy muloqot.
24. Muloqning asosiy birliklari.
25. Nutqiy muloqotning tarkibiy qismlari.
26. Sotsiolingvistika va xorijiy tillar.
27. Muloqot xulqi.
28. Muloqotda adresant va adresat.
29. O`zbek muloqot xulqining hududiy jihatdan xoslanishi.
30. Dialektologiya va sotsiolingvistika.
31. Muloqot nutqining jins nuqtai nazargan xoslanishi.
32. O`zbek muloqot xulqining o`ziga xos xususiyatlari.
33. Salomlashish va ko`rishishdagi xoslanishlar.
34. Nutqda verbal va noverbal vositalar.
35. Sotsiolingvistika fani kursi.
36. Milliy til va milliy ma`naviyat.
37. Til va nutqning rivojlanish omillari.

38.Jamiyat taraqqiyotida ko`p tillilik.
39.Nutqning ixtisoslashuvi.
40.Nutq sharoiti va uning nutqqa ta`siri.
41.So`zlovchi va tinglovchi sa`viyasi.
42.Nutqning paralingvistik va ekstralingvistik vositalari.
43.Nutqning mintaqaviy xoslanishi.
44.Sotsiolingvistikaning boshqa yo`nalishlardan farqi.
45.Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning taraqqiyot etaplari.
46.“Yosh grammatikachilar maktabi”.
47.F.de Sossyur- ijtimoiy tilshunoslikning asoschisi.
48.A.Shleyxer ta`limoti.
49.Milliy til-milliy ma`naviyatning tarkibiy qismi.
50.Sho`ro davrida o`zbek tili va o`zbek nutqi.
51.Istiqlol va o`zbek tili.
52.Istiqlol davrida o`zbek nutqi.
53.Jamiyatda til siyosati.
54.Lisoniy interferensiya.
55.O`zbek tili lug`at sathidagi o`zgarishlar.
56.Mustaqillik davrida Yevropa tillarining o`zbek tiliga ta`siri.
57.Nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvida me`yor tushunchasi.
58.Nutqning kommunikantlarga bog`liq tarzda ixtisoslashuvi.
59.Nutqning so`zlovchi va tinglovchi ijtimoiy mavqeiga ko`ra ixtisoslashuvi.
60.Muloqotning shakli (muloqotning kontakt - distantligi).
61.Salomlashish - muomala madaniyati.
62.So`zlash va tinglash - katta san`at.
63.Nutqning ta`sirchanligini oshiruvchi vositalar.
64.Muloqot jarayonida o`zbekona odat, rasm-rusumlar.
65.O`zbekistonda sotsiolingvistikaning taraqqiyoti.
66.Nutq mavzusi va uning nutqqa ta`siri.
67.Nutq jarayonida farosat. Farosatning yuksak qadrlanishi.
68.Xorijiy tillarga qiziqishning asosiy sabablari.
69.Til qurilish sathlarining o`zgarib borishi.
70.Mustaqillik davrida O`zbekistonda til siyosati.
71.Nutq stamplarining nutqqa ta`siri.
72.Notiqning nodir boyligi, notiqlik san`ati.
73.Nutq ishtirokchilarining tabaqalanishi.
74.Me`yoriy nutq.
75.Bolalar va kattalar nutqlaridagi tafovutlar.
76.Tilshunoslikda naturalizm oqimi.
77.“Yosh grammatikachilar”ning namoyondalari.
78.XIX asrda Yevropa mamlakatlarida tilshunoslik oqimlari.
79.Inson nutqining xarakter - xususiyati.
80.Sotsiolingvistik tadqiqotlarga ehtiyoj.
81.Mustaqillik davrida O`zbekistonda ko`p tillilik.
82.Hozirgi davr terminologiyasining asosiy talablari va me`zonlari.

83. O`zbek nutqida almashgan va ikki variantli so`zlarning qo`llanishi.
84. O`zbek terminologiyasida keyingi paytda yuz berayotgan lisoniy jarayonlar.
85. Mustaqillik davrida yangi lisoniy kashfiyotlar.
86. Sho`rolar davrida til siyosati va lisoniy zug`um.
87. Mustaqillik davrida o`zbek atamashunosligi.
88. O`zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonuni.
89. Til va madaniyat.
90. Milliy til - millatning boyligi.
91. Til va tafakkur.
92. Kommunikatsiya jarayonida tilning funksional ko`rinishlari.
93. Til tizimining sotsiolingvistik tahlili.
94. Mustaqillik davrida mamlakatlararo va millatlararo muloqotlar.
95. Jamiyat taraqqiyotida tillarning ijtimoiy vazifalari.
96. Millatlararo aloqa vositalarini bajaruvchi til to`g`risida.
97. Globallashuv jarayonida tillarning bir-birlariga ta`siri.
98. Erkak va ayol nutqining o’ziga xosligi.
99. Mustaqil tillarning standartlashtirish, hayotiylik, tarixiylik, avtonomlik kabi xususiyatlarga ega bo`lishi.
100. Sotsiolingvistika fani oldida turgan dolzarb muammolar.

M U N D A R I J A

1. Sotsiolingvistika fani va uning o`rganish obyekti……..
2. Sotsiolingvistikaning yo`nalish maktablari.
   Lisonshunoslik va nutqshunoslik……...
3. Sotsiolingvistikada jamiyat va til o`rtasidagi munosabat. Mikro va
   makrosotsiolingvistika…….. ……
4. Milliy til va milliy ma`naviyat……..
5. Jamiyatning til sathlari rivojiga ta'siri. Til va nutqning rivojlanish
   omillari……..
6. Nutqning ixtisoslashuvi. Muloqotning tarkibiy qismlari……..
7. So`zlovchining nutqi, saviyasi, va tinglovchining tinglash
   san`ati…….
8. Muloqot jarayonida paralingvistik va ekstralingvistik
   vositalar…….
9. Sotsiolingvistika va dialektologiya……...
10. Sotsiolingvistik til tipologiyasi. Sotsiolingvistik
    tadqiqotlar……..
    Amaliy mashg`ulotlarda tahlil uchun matnlar…….
    Adabiyotlar ro`yxati ……
    Mustaqil ish uchun mavzular.